

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**  
**FAN VA TEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI**

**ERGASHEVA NARGIZA IBROHIMOVNA**

**MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARDA MILLIY**  
**G‘URUR HISSINI SHAKLLANTIRISH**  
**(katta va tayyorlov guruhleri misolida)**

**MONOGRAFIYA**

**TOSHKENT – 2025**

## KIRISH

Jahon miqyosida yosh avlodni tarbiyalash va unga ta'lim-tarbiya berishda buyuk siymolarning boy madaniy meroslaridan foydalanish orqali bolalarda milliy g'urur hissini shakllantirish, mamlakatda maktabgacha ta'lim tizimini innovatsion rivojlantirishning asosi hisoblanadi. Shu bois, YUNESKO tomonidan qabul qilingan xalqaro ta'lim konsepsiyasida "ijtimoiy institutlarning ta'limiy, madaniy va ma'rifiy salohiyatini rivojlantirish, hamkorlik qobiliyatlari va qiziqishlarini kuchaytirish"<sup>1</sup> dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarda milliy g'urur hissini shakllanishi va tarbiyasiga ta'sir ko'rsatadigan eng muhim ijtimoiy institut bu tarixda o'zining salohiyati zakosi bilan buyuk ishlar qilgan ajdodlarimiz buyuk siymolar ekanligi ta'kidlanib, ajdodlarning madaniy merosi – avloddan-avlodga o'tib kelayotgan ilmiy, ma'naviy asarlar, urf-odatlar, qadriyatlarining uzviyligini saqlaydigan ijtimoiy-ma'naviy ko'nikmaning shakllantiruvchi asosi sifatida qaraladi. Shu jihatdan, MTT tarbiyalanuvchilarida buyuk ajdodlarimizning boy ma'naviy merosiga nisbatan ehtirom, hurmat munosabatlarini shakllantirishning metodik imkoniyatlarini kengaytirish hamda ushbu pedagogik jarayon samaradorligini oshirishni taqozo etadi.

Dunyoda maktabgacha ta'lim tizimida bolalarning ajdodlarning madaniy merosiga nisbatan ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish jarayonini takomillashtirish strategiyalarini ishlab chiqish va uni amalga oshirish metodikalarini loyihalashtirishga doir qator tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Bunda buyuk siymolar bilan tanishtirish orqali bolalarda milliy g'urur hissini shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishiga alohida e'tibor berilib, maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining yosh va psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda ularda milliy ong ta'sirida o'zlikni anglash, muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda asrlar mobaynida shakllangan urf-odatlar, an'analarni o'rganish, tarixda jahon sivilizatsiyasi tamal toshlarini qo'ygan buyuk siymolar bilan maktabgacha ta'lim yoshidan boshlab bolalarni tanishtirish orqali milliy g'urur, iftixor va faxr tuyg'ulari shakllangan ma'naviy barkamol insonni tarbiyalash dolzarb masala hisoblanadi.

O'zbekistonda milliy g'urur va iftixor hislari vatanparvarlik tushunchasi bilan uyg'unlashib, yangicha mazmun kasb etdi. Milliy g'urur hissini tarbiyalash uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, uning samaradorligi ko'p jihatdan maktabgacha yoshdan aniq beriladigan ta'lim-tarbiya yo'nalishlariga bog'liq ekanligini ko'rsatdi. Shu bois, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha

---

<sup>1</sup> Incheon declaration/Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea). 6p. 26 P.

Harakatlar strategiyasida “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarmog‘ini kengaytirish va ushbu tashkilotlarda bolalarning har tomonlama intellektual, estetik va jismoniy rivojlanishi uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash, bolalarning maktabgacha ta’lim bilan qamrab olinishini jiddiy oshirish va foydalanish imkoniyatlarini ta’minlash, pedagog va mutaxassislarining malakad

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 maydagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PQ-4312-sonli Qarori, 2020 yil 18 fevraldagi “Jamiyatda ijtimoiy-ma’naviy muhitni sog‘lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo‘llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5938-son Farmoni, hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertasiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Y  
u  
k  
S  
a

**I BOB. BUYUK SIYMOLAR BILAN TANISHTIRISH ORQALI  
BOLALARDA MILLIY G‘URUR HISSINI SHAKLLANTIRISHNING  
NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI**

**1.1. Bolalarda milliy g‘urur hissini shakllantirish ijtimoiy zaruriyat sifatida.**


1 Respublikamizda mustaqillikdan keyin maktabgacha talimni tubdan isloh qilish, uni yanada mustahkamlash va rivojlantirish masalasiga alohida e’tibor qaratildi. Jamiyatimizning barcha jabhalari singari maktabgacha ta’lim tashkilotlari ham keng ko‘lamda o‘rganilib, yaratilgan islohatlar va yangiliklarni amaliyotga keng tatbiq etish uchun katta imkoniyatlar paydo bo‘ldi. Eng asosiysi o‘sib kelayotgan yosh avlodga, ularning ta’lim-tarbiyasiga yurtimizda yashab ijod qilgan mutaffakkirlar, buyuk siymolar haqida, Vatanimiz tarixi va madaniyati, qadimiy urf-odat, an’ana va qadriyatlarimizni har tomonlama o‘rgatishga e’tibor kuchaydi. “Yoshlarni o‘qitish, ularni ma’naviy va axloqiy tarbiyalash, ularning bilim olish va o‘zini o‘zi kamolga yetkazishga intilishini shakllantirishga alohida e’tibor qaratish lozim” [12.422] degan mamlakatimiz prezidenti Sh.Mirziyoev. Ma’lumki, maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy qadriyatlar, milliy tarbiya ruhida tarbiyalash, xususan, ularning ong va tafakkurida milliy g‘urur hissini shakllantirish bolalarning ruhiy va aqliy olamiga ezgulik, vatanparvarlik urug‘ini ekishdir. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoev “Bizning havas qilsa arziydigan buyuk tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz bor. Havas qilsa

---

<sup>2</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони //Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. – Тошкент, 2017. Б. 39.

arziydigan beqiyos boyliklarimiz bor. Xudo xolasa, havas qilsa arziydigan buyuk kelajagimiz ham bo'ladi." [12.15] degan fikrga alohida to'xtalib, mazkur g'oyada bir butun ta'lim-tarbiya tizimida buyuk siymolarning ma'naviy me'rosi, to'plangan boy tajribalardan foydalanishning afzalligi va zaruriyati haqidagi qarashlar o'z aksini yaqqol topgan. O'z hayoti va faoliyati davomida Vatan tinchligi, xalqining osoyishtaligi, madaniyati va ma'rifati uchun kurashgan Alisher Navoiyning ijodiy merosi inson kamlotiga bag'ishlangan tarixiy-ma'rifiy, ma'naviy-ahloqiy asarlari muhim tarbiyaviy ahamiyatga ega. O'z o'rnida Suqrot, Aflotun, Balzak, Gyote, Russo, Leonardo do Vinchi kabi g'arb olimlarining qarashlarida ma'naviy tarbiya qanchalik ulug'langan bo'lsa, Konfutsiy, Al Buxoriy, Termiziy, Forobiy, Beruniy, Firdavsiy, Jomiy, Ibn Sino, Lutfiy, Navoyi, Mirzo Ulug'bek kabi allomalar asarlarida jamiyatning har bir a'zosi o'z xalqiga xizmat qilishi, sadoqatli, vatanparvar, insonparvar va boshqalarga yordam berishi, xalq manfaatini har yerda o'z manfaatidan yuqori qo'yishi lozimligini alohida ta'kidlanadi. XI asrning qomusiy olimlaridan biri Mahmud Qoshg'ariy o'zining "Devonu lug'otit turk" nomli asarida o'z davrining xalqlariga, udum, urf-odatlarini, an'analari, qadriyatlarini va o'ziga xos ma'naviy-ruhiy olami haqida yozar ekan, Vatanni, unga tegishli har bir narsani har bir zarra tuproqni muqaddas, aziz deb bilish, o'zini shu Vatanning farzandi deb his qilish turkiy xalqlarning haqiqiy insononiylik fazilatlaridan ekanligini alohida ta'kidlab o'tadi. Shunday ekan, milliy g'oya millatni bir biridan ajratuvchi, millatlarni bir-biridan ustun qo'yuvchi tushuncha emas, aksincha barchani yagona Vatan tuyg'usi ostida harakat qilishga chorlaydigan va safarbar qiladigan tuyg'udir. Ana shu g'oyani, eng avvalo, oilada, maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan boshlab, keyin uzluksiz ta'lim jarayonida davom ettirish maqsadga muvofiqdir. Dunyodagi barcha davlatlar, o'zining tili, dini, e'tiqodi, aholisining sonidan, katta-kichikligidan qat'iy nazar o'zining taraqqiyoti jarayonida ma'naviyat, ma'rifat va taraqqiyotga ehtiyoji bor. Xalqning ijtimoiy-siyosiy yetukligi, milliy ma'naviyati darajasi, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga amal qilishi, ularni asrab kamolot bosqichlariga ko'tarilishi bilan belgilanishi ayni haqiqat.

**“Milliy g'urur** – shaxs, ijtimoiy guruhning muayan millatga mansubligidan faxrlanish hissi. Bu tuyg'u o'zini-o'zi anglash shakllaridan biri bo'lib, ajdodlar qoldirgan moddiy, ma'naviy meros, o'z xalqining jahon sivilizatsiyasiga qo'shgan hissasi, qadr-qimmatini, obro'-e'tiboridan faxrlanish hissini ifodalaydi. U shaxs va ijtimoiy guruh xulq atvorini muayan tarzda yo'naltiradi, tartibga soladi. Milliy g'urur quyidagi shakllarda namoyon bo'ladi: (1.1- rasm)



### 1.1.1-rasm. Bolalarda milliy g'urur hissini tarbiyalash shakllari

Millatning yutuqlari, obro‘-e‘tibori bilan faxrlanish, uning muammolariga befarq qarab turmaslik, o‘z eliga, millatiga jonkuyar bo‘lish, o‘z millatining moddiy, ma‘naviy me‘rosini asrab-avaylash; xalq odatlari, an‘analari, qadriyatlarini hurmat qilish, ularni boyitish va takomillashtirish; o‘z millatiga mehr muhabbatini amaliy faoliyatida namoyon etish” [93. 411-412]. *Milliy g‘urur hissi, millat o‘z-o‘zini anglash mazmuni va mohiyatida namoyon bo‘ladi, yillar davomida bir-birini boyib, to‘ldirib boradi. Milliy urf-odat, madaniyatimiz, asrlar davomida shakllangan qadriyatlarimizni asrash, avaylash va ularni unutmazlik, ularga sodiq bo‘lishlik, ularni kelgusi avlodlarga yetkazish bizga ajdodlardan meros emas, omonat ekanligini, o‘z navbatida bu omonatni kelajak avlodga shikastsiz yetkazish, bolalarimizga o‘rgatish biz uchun muhim, shuningdek, ta‘lim va tarbiyaning ajralmas qismi ekanligini chuqur anglab yetmog‘imiz zarur.* Milliy g‘urur hissi, har bir millat vakilining o‘z xalqi tarixini, urf-odati, moddiy-ma‘naviy, ahloqiy fazilatlari, asriy qadriyatlarini bilishi va qadrlashi va boshqa xalqlar va millatlarning milliy udumlari, tarixi, adabiyoti, san‘ati va madaniyatini hurmat qilishi iftixor, g‘urur hissi bilan bog‘liq bo‘lgan millatning insoniy fazilati ekanligi haqidagi dastlabki tushunchalar oila, mahalla va maktabgacha ta‘lim tashkiloti hamkorligida shakllantirilishini nazarda tutishimiz lozimligini ko‘rsatadi. “Sizlarga yaxshi ma‘lum, bizning davlatimiz – ko‘p millatli va ko‘p konfessiyali davlat. Bugungi kunda mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari bir oila farzandlaridek ahil va inoq yashamoqda. Bu borada, hech shubhasiz xalqimizga azaldan xos bo‘lgan bag‘rikenlik an‘analari muhim rol o‘ynamoqda” [12.464].

“**Milliy iftixor** – millatning o‘zini yaxshi ijtimoiy birlik ekanligini ongli ravishda his qilishidir. Bu shunday kuchli tuyg‘uki, ya‘ni, ruhiy holatni faqatgina uning yordamida tarixiy birlik, qon-qarindoshlik, til, madaniyat-ma‘naviyat, iqtisodiy hayot va kelajak birligi millat vakillarining qalbida o‘rinlashaolishi mumkin. Bunda eng avvalo millatning (alohida

bir shaxsning ham) o‘zligini anglashi, millat ravnaqini ta’minlash yo‘lidagi hatta-harakat, o‘z millati istiqboli yo‘lidagi mas’ullikni ongli ravishda his etishning milliy iftixorli bo‘lishning asosiy poydevorlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Ushbu poydevor yoshlarning qaysidir millatga mansubligini uning keng imkoniyatlaridan quvona olish fazilatigina emas, balki yashb turgan zaminiga, fuqaroligiga dahldor bo‘lgan mamlakatga munosabat belgisini anglatishga ham asosdir.

Natijada yoshlar o‘z mamlakat, yurti, turoni bilan faxrlana oladilar, ayniqsa yurt taqdiriga befarq bo‘la olmaydilar” [150. 318]. Milliy iftixor hissi noto‘g‘ri talqin etilganda shunchaki maqtanchoqlik vositasiga aylanib qolishi mumkin. “Buyuk sohibqiron Amir Temur Oqsaroy peshtoqiga biz – avlodlarga qoldirgan vasiyatida g‘oyat muhim bir fikrga alohida urg‘u berib, “El dardiga darmon bo‘lmoq – ezgu vazifangizdir”, deb ta’kidlagani albatta bejiz emas” [14.92-93] Darhaqiqat inson vatanparvarlik, insoniylik, milliy g‘urur, faxr, umuminsoniy qadriyatlar asosida bolalarni tarbiyalamog‘imiz lozimki, ular millat Vatan oldidagi burchini har doim his etsinlar.

“**Milliy his-tuyg‘u** – muayyan mamlakat fuqarolarining ijtimoiy voqelikda sodir bo‘layotgan voqea-hodisalarni his etish, unga bo‘lgan munosabat bilan bog‘liq ruhiy-psixologik kechinmalar ko‘rinish va shakllari majmuini ifoda etuvchi tuyg‘u. U millat ruhiyat, madaniy-ma’naviy meros, urf-odatlar va an’analar, tarixiy tajriba bilan bog‘liq holda millat mentalitetida yaqqol namoyon bo‘ladi. Turli xalqlar va millatlarda bunday his-tuyg‘ularning namoyon bo‘lish shakllari o‘ziga xosdir” [93.412] Milliy g‘urur – bu ma’lum bir millatning o‘z milliy iftixoridir - milliy iftixor bir millat o‘zini yaxlit ijtimoiy birlik ekanligini ongli ravishda his qilishidir. Bu shunday bir kuchli ruhiy holatki, u tufayli tarixiy birlik, qon-qarindoshlik, til, madaniyat, ma’naviyat, urf odatlar, qadriyatlarning, iqtisodiy hayot va kelajak birligi millat vakillarining qalbidan chuqur o‘rin olishi va undan yuksak faxrni his qilishidir.

“**Ma’naviy-axloqiy tarbiya** – yosh avlodni xalqning boy milliy-madaniy tarixiy an’analariga, urf-odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlariga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib amaliyotga joriy etiladigan tarbiya.” [150.286] Shuni inobatga olgan holda maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar tarbiyasi va bu tarbiya zaminida ularning ma’naviyatini uyg‘otuvchi, shakllantiruvchi mustaqillik g‘oyalari, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va rivojlantirish tuyg‘usi, Vatan istiqboli yo‘lida halol va pok mehnat qilish milliy mafkura ruhi asoslari bilan yo‘g‘rilgan milliy g‘urur hissini shakllantirish maqsadi asosida ishlarimizni tashkil etishimizni taqozo etadi. “Adolat va ma’naviyat-o‘zaro chambarchas bog‘liq tushunchalardir. Ma’naviyat

b

o

‘

l

m

a

o

tuysinlar va namuna olish uchun ajdodlarining shonli, nurli yo‘lidan borishni afzal biladigan vatanparvar avlod bo‘lib yetishsinlar. “El-yurtimiz necha asrlardan buyon bu qutlug‘ qadamjoni asrab-avaylab, obod qilib, unga hurmat-ehтиrom ko‘rsatib kelmoqda. Shu birgina misolning o‘zi olijanoblik, ezgulik va tom ma‘nodagi bag‘rikenglik fazilati xalqimiz tabiati, mentaliteti asosini tashkil etishdan dalolat beradi” [12.465] Shu o‘rinda, “Milliy iftixor boy milliy, madaniy-ma‘rifiy iqtisodiy, harbiy siyosiy barkamol millatning davomchisi bo‘lishdek faxrlanish tuyg‘usini shakllantirish orqali singdiriladi” [150.318] haqiqatda ham, ma‘naviy-ahloqiy komillik, vijdoniylik, or-nomuslil, o‘zlik, Vatanga sadoqat, yaqinlariga g‘amxo‘r bo‘lish va boshqa insoniy tuyg‘ular o‘z-o‘zidan paydo bo‘lib qolmaydi. Bu borada oila, uzluksiz ta‘limning ilk bo‘g‘ini bo‘lgan maktabgacha ta‘lim, mahalla hamkorligida tarbiyalanuvchilarni buyuk siymolar bilan tanishtirish vositasida milliy g‘urur, faxr, iftixor hislarini tizimli ravishda shakllantirishni, tarbiyalashni taqozo etadi. “Farobiyning ta‘kidlashicha, insonni tarbiyalash ikki xil usul yordamida olib borilishi mumkin. Agar tarbiyalanuvchi ixtiyoriy ravishda zaruriy, aqliy va axloqiy xislatlarni – bilimli bo‘lishga to‘g‘rilikni, haqiqatni sevishga, jasur do‘stlarga sadoqatli bo‘lish kabi fazilatlarni egallashga intilmasa tarbiyachi muallim unday fazilatlarni shakllantirmog‘i lozim. Bunday insoniy fazilatlarga ega bo‘lish uchun baxt-saodatga eltuvchi jamoa bo‘lishi kerak” [144.121]. Mukammal bola tarbiyasi asrlar davomidagi mutafakkir olimlarning izlanishlari bolani oilada, MTTda davomli uzluksiz, mashaqqatli mehnatini taqozo etadi

Shunga ko‘ra, bolalarda milliy g‘urur hissini shakllantirishning o‘zaro uyg‘unligini quyidagicha ifodalash mumkin. Quyida keltirilgan 1.1.2 rasmda milliy g‘urur hissini shakllantirishning o‘zaro uyg‘unligi berilgan bo‘lib, milliy g‘urur hissini tarkibini Ma‘naviy-axloqiy fazilatlar, asriy qadriyatlar, milliy iftixor, vatanga sadoqat, millati manfaatini o‘z millati manfaatidan yuqori qo‘yish va boshqa komponentlar asosida qilishini ko‘rishimiz mumkin.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, yosh avlodni tarbiyalashda maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida ajdodlar merosi, milliy qahramonlar, buyuk siymolarning ibratli hayot yo‘li haqidagi o‘git, matal, rivoyat, xalq og‘zaki ijodi, ertak, hikoyatlaridan unumli va o‘rinli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Biz olib borayotgan tadqiqot ishimiz maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning katta va tayyorlov guruhlarida o‘zining samarali natijasini berdi. Bolalarni milliy g‘urur, milliy o‘zlikni anglash, faxr, iftixor, vatanparvarlik, sadoqat hislarini shallantirishni aynan oiladan, mahalladan, maktabgacha ta‘lim tashkilotidan boshlash maqsadga muvofiq ekanligiga amin bo‘ldik. Dastlab milliy

gʻurur, oʻzlikni anglash uchun, Vatan tarixi, oʻtmishi haqida bilim koʻnikmalarni shakllantirib borish katta ahamiyatga ega. Har bir qadimiy obida, har bir buyuk mutafakkirning bolaligi, hayot yoʻli haqidagi kichik ibratli voqea, hikoyalar, rivoyatlar maktabgacha taʼlim yoshidagi bolalar ongida katta iz qoldirish kuchiga ega. “Bizning eng katta yutugʻimiz oʻz boyligimizga oʻzimiz ega boʻlganimizdir. Binobarin, yoshlarga bu boyliklarning qadriga yetish zarurligini oʻrgatishimiz, ularda minnatdorchilik, gʻurur va ishonch tuygʻularini tarbiyalashimiz kerak. Maʼnaviy-ahloqiy mukammallik, vijdoniylik, or-nomuslilik, yakinlariga gʻamxoʻr boʻlish va boshqa insoniy tuygʻular oʻz-oʻzidan paydo boʻlib qolmaydi. Ularning asosida tarbiya yotadi” [12.141] degan fikr bejizga ilgari surilmagan.

Milliy tarbiya mezonida mustaqil Oʻzbekistonning ijtimoiy buyurtmasi boʻlmish ijodiy sifatlar: milliy iftixor, milliy gʻurur, faxr, bagʻrikenglik, vatanparvarlik, sadoqat, millatlararo hamjihatlik, milliy oʻzlik, odob, axloq, vijdoniylik, imon-eʼtiqod, milliy istiqlol kabi tushunchalarni maktabgacha tarbiya yoshidan boshlab singdirib borish zarur.

Milliy tarbiya mezonlarini belgilashda tarbiyalanuvchilarni yosh xususiyatlari, aqliy imkoniyatlari eʼtiborga olinadi. Quyida katta va tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilarining milliy tarbiyalanganlik koʻrsatkichlari va mezonlari qanday boʻlishining taxminiy namunasini keltiramiz: Oʻzbekiston – Vatanim mening, Oʻzbekistonning milliy xususiyatlarini anglash, oʻlkaning oʻtmishi, hozirgi hayoti va kelajagi haqida tushunchalariga ega boʻlish, yurtimizning qahramon farzandlarini bilish, Oʻzbekiston davlat ramzlarini bilish.

Milliy gʻurur hissini asoslarini – oʻzining oʻzbek millatiga mansubligini anglash, Oʻzbekiston vatani ekanligini anglash, “Oʻzbek xalqi” tushunchasining madaniy mohiyatini tushunish, milliy burchini anglash, ajdodlarimiz intellektual merosini chuqur oʻrganish va qadrlash, oʻtmish merosimiz va qadriyatlarimizga tayangan holda milliy maʼnaviyatimizni rivojlantirish, ona tilini sevish, shu tilda toʻgʻri soʻzlash va fikrlash kabilar tashkil etadi.

**Milliy odob** – “Odob insonni maʼnaviy kamolotga yetaklovchi jarayondir. Odob bolalikdan shakllanadi. Yosh ulgʻayishi bilan insonning odob darajasi kengayib boradi. U kishi faoliyatini belgilovchi jarayon boʻlib, uni xatolaridan saqlaydi. Natijada kishining xulqiy goʻlalligi ortadi”[150, 370 b]. Avval salomlashib, keyin soʻz boshlash, katta-kichikni izzat qilish, ota-onani hurmat qilish, farzandlik burchini bajarish, kishilar bilan muomala-muloqot qilganda, jamoat joylarida til odobini saqlash, nooʻrin soʻzlarni ishlatuvchilarga, odobsizlarga salbiy munosabatda boʻlish, ustozlarni eʼzozlash, doʻstga sadoqatli boʻlish, Vatanni sevish, ardoqlash, vatanparvar boʻlish, ota-ona oldidagi farzandlik burchini ado etishi, oilani muqaddas bilish va boshqalar.

**Vijdoniylik** – “bu kishining kundalik faoliyati, qilmishi, fʼel-atvori uchun

oila, jamoat, jamiyat va vatan, millat oldida ma'naviy mas'ullikni his etishidir" [150.101]. Biror ishga qo'l urishdan oldin uning oqibatlarini o'ylash, yaxshiyomonni, farqiga borish, nafsning imkonsiz talablariga yo'l bermaslik, qanoat, halollik va ezgulik, vatanparvarlik, insonparvarlikni o'ziga kasb qilib olish, qalbiga quloq solib to'g'rilik, vijdoniylik va haqiqat, haqgo'ylikni odat qilish. Shu o'rinda Abdulla Avloniyning tarbiya haqidagi fikrlari juda o'rinlidir "Tarbiya haqida gap ketar ekan, insonni muayyan ijtimoiy jamiyat mahsuli ekanligini unutmasligimiz lozim. Insonning hayotiy faoliyatida ijtimoiy muhit ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ijtimoiy jamiyat shaxs imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishi yoki yo'q qilishi mumkin. Bu jamiyatning ma'naviy qiyofasi, unda tashkil etilayotgan munosabatlar mazmuni hamda darajasiga bog'liq. Bundan tashqari, maktabgacha yoshdagi bolalarda murakkab harakatlarni takomillashtirish, elementar gigiena, madaniy va mehnat ko'nikmalarini hosil qilish, nutqini o'stirish hamda ijtimoiy axloq va estetik didning dastlabki kurtaklarini yuzaga keltirish davri hamdir. Ilmi axloqning asosi tarbiya o'ldug'indan shul xususda bir oz so'z so'ylaymiz. Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaktidan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o'rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o'sdurmakdur. Tarbiya qilguvchilar tabib kabidurki, tabib xastaning badanidagi kasaliga davo qilgan kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jaxl maraziga «yaxshi xulq» degan davoni ichidan, «poklik» degan davoni ustidan berub, katta qilmog'i lozimdur. Zeroki, «Xassinu axloqikum» amri sharifi uzra xulqimizni tuzatmakga amr qilinganmiz. Lekin xulqimizning yaxshi bo'lishining asosiy panjasi tarbiyadur" [20.2]. ***Bola ilk yoshdan boshlab tarbiyalanib boradi, ulardagi taqlidchik xususiyatidan dastlab oiladan oila a'zolaridan namuna, ibrat tariyasini oladi, keyin MTTda ta'lim va tarbiyani davom ettiradi, tarbiya faqatgina uzluksiz ta'lim bilan cheklanmaydi, bola uchun atrof-muhitdagi tashqi ta'sir ham katta rol o'ynaydi, bunda qo'ni-qo'shnilar, mahalla ahli, ularni qurshab olgan insonlarga bog'liqdir.***

Ye.Lyutova va G.Moninlarning [70.156] ta'kidlashicha, bolalarni yosh xususiyatlariga mos badiiy adabiyotlar bilan tanishtirish orqali tafakkurini rivojlantirish sub'ektiv xarakter kasb etadi. Buning natijasida u o'zining hayotiy faoliyatiga bo'lgan munosabatini ifodalaydi. Shuningdek, o'ziga xosligini namoyon etadi. Mamlakatimizning birinchi prezidenti I.Karimov o'zining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" asarida "Agarki, mendan hozirgi kunda ma'naviyatimizni asrash uchun nima qilish lozim va unga tahdid soladigan hujumlarga nimani qarshi qo'yish kerak, deb so'rasa, men avvalambor, shu yurtda yashayotgan har qaysi inson o'zligini anglashi, qadimiy tariximiz va boy madaniyatimiz, ulug' ajdodlarimizning merosini chuqurroq o'zlashtirishi, bugungi tez o'zgarayotgan hayot voqeligiga ongli

qarab, mustaqil fikrlashi va diyorimizdagi barcha o'zgarishlarga daxldorlik tuyg'usi bilan yashashi zarur, deb javob bergan bo'lardim" [14.17].deb ta'kidlaydi. *Qachonki, inson Vatani tarixini chuqur bilib, qanday buyuk ajdodlar avlodi ekanligini bilsa va his etsa, u o'zligini angelaydi va yuragida shu yurt, shu millat farzandi ekanidan chuqur g'ururni, faxrni tuyib boshlaydi.*

D.Abduraximovanning "Maktabgacha yoshdagi bolalarni ahloqiy ruhda tarbiyalashda xalq ertaklaridan foydalanish" nomli nomzodlik dissertatsiyasida ham milliy g'urur tuyg'usi borasida fikr yuritiladi. Muallifning ta'kidlashicha "Xalq og'zaki ijodi yoshlarni tarbiyalashda bitmas- tunganmas xazina bo'lib, uning ahamiyati benihoya kattadir. Xalq og'zaki ijodi hayot sinovlaridan o'tgan xalqning ma'naviy ko'rsatkichi, aql-idroki, qadriyati, insonlarning birdan-bir jozibali tarbiya vositasidir"[153.5] deb, xalk og'zaki ijodining tarbiyaviy ahamiyatiga yuksak baho beradi. Har bir xalqning asrlar osha orttirgan boy turmush tajribasi, orzu-umidlarini aks ettirgan adabiyoti durdonalari mavjud. Xalqning hayotiy tajribalari asosida yaratilib, avlodan-avlodga o'tib kelayotgan badiiy asarlar bolalarda milliy g'urur, milliy ong, saxovat, insoniylik kabi xislatlarni tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Bolalar hali go'dakligidayok ertak, afsona, rivoyatlarning ilk namunalari bilan tanish bo'lishi, ularning qalbida insoniylik fazilatlarini urug'larini unishiga zamin yaratadi. Buyuk siymolarning ijodi, ularning hayoti faoliyati haqidagi rivoyat, afsonalar asrlar to'fonidan o'tib, xayotning tub mohiyati bilan tanishtirish, o'zlikni anglash vositasi sifatida necha-necha avlodlarni tarbiyalashga, ularning qalbida milliy g'urur, vatanparvarlik, saxiylik, insonparvarlik hislarini tarkib toptirishda xizmat kilib kelmokda. Bolalarning qalbida milliy umuminsoniy qadriyatlarni singdirishda ertaklarning o'rni beqiyosdir.

Sh.Shodmonova "Yosh avlodda vatanparvarlik, ahloq-odob, milliy mafkura, milliy iftixor tuyg'usini shakllantirishga e'tibor berish zamon talabiga aylanganligini, vatanparvarlik, milliy iftixor tuyg'ulari milliy qadriyatlarni ifodalaydigan tushunchalar bo'lib, bolalarni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalash mezonlari"[130.49] degan xulosaga keladi.

Maktabgacha ta'lim sohasidagi N.Abdullaevaning "Maktabgacha ta'limni variativ yondashuv asosida takomillashtirish"[158], G.Berdialievaning "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari nutq o'stirish mashg'ulotlarida bolalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish tizimi"[161], S.Raximovanning "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining malakasini oshirish mazmunini takomillashtirish" [168] G.Nazirovanning "Maktabgacha ta'lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni takomillashtirish"[166], N.Rejametovanning "O'zbek xalq cholg'ulari vositasida bolalar ijodkorligini shakllantirish texnologiyalarini takomillashtirish" [170], M.Berdievaning "Maktabgacha ta'lim tashkilotlari

tarbiyalanuvchilarini pedagogik qo'llab-quvvatlash asosida intellektual imkoniyatlarini rivojlantirish" [160], Z.Azizovning "Qo'g'irchoq teatri vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish" [159] nomli, qator tahlil qilingan ilmiy tadqiqot ishlarida shaxsning ma'naviy kamolotida tarbiyalash muammosiga turli jihatdan yondashilganini guvohimiz.

"Milliy g'urur - bu milliy iftixordir. Milliy g'urur o'z xalqining bir necha ming yillar davomida yaratib kelgan barcha moddiy va ma'naviy boyliklari, tarixiy merosi, urf-odatlari, an'analari, odob-ahloqi, turmush tarzi, yuksak ma'naviyati, barcha tarixiy yutuqlari va saboqlariga cheksiz hurmat va e'zoz bilan munosabatda bo'lish, avaylab-asrashdir" [98 197]- deb yozadi professor S.Otamuratov, - milliy o'zlikni anglash - bu millatchilik emas, balki o'z millati, xalqi, an'analari, urf-odatlari, tug'ilib o'sgan joyi, Vatani, dini, tili, avlod-ajdodlari kasb-kori, shajarasi, oilasidan g'ururlanishi, ularni asrab-avaylash, hamda uni keyingi avlodlarga hech bir shikastsiz yetkazishdir. "Milliy g'urur, - deb yozadi M.Quronov, - bu, millatining moddiy va ma'naviy meroslari, xalqi, ona yurti bilan faxrlanishi, millat psixologiyasiga oid qarashlar, munosabatlar demakdir. U insonni tug'ilib o'sgan, kindik qoni tomgan yurtini ulug'lashda, uning o'tmishi, buguni, kelajagi uchun qayg'urish va faxrlanishida o'z aksini topadi." [149.196]. Professor M.Quronov ta'lim-tarbiyada, avvalo, "milliy tuyg'u", "milliy mafkuraviy onglik", "vijdoniylik", "millatlararo muloqot madaniyati", "milliy g'urur", "milliy odob", "O'zbekiston vatanparvarligi", kabi tushunchalar mezonini ilmiy asoslar ekan, milliy g'urur - bolaning yoshiga mos ravishda o'z xalqining qadr-qimmatini bilishi, izzatlashi, uning madaniyati, ma'naviyati, iqtisodiyotida qo'lga kiritgan yutuqlari, xizmatlari, boy merosini bilishi va ana shu yuksak milliy madaniy yutuqlarga mos bo'lishga, ularni boyitishga intilishni o'z ichiga olishini alohida ta'kidlaydi. "Milliy g'urur-iftixor xalqning qudratini orzu-intilishlarini mujassamlashtiradigan ulug' kuchdir" [86.96], - deb yozadi professor U.Maxkamov. - Milliy g'urur - xalqning el-yurtning ulug'vorligi, hayotiyliigi va haqqoniyliigi bilan ajralib turadi. Milliy g'urur xalqni xalq, millatni millat qilib ko'rsatadi. O'zbekiston mustaqilligi tufayli - o'zbek xalqining milliy g'urur tuyg'usi butun jahon bo'ylab qayta qad ko'tardi. Jahon xalqlari orasida O'zbekiston eng nufuzli mamlakatlar qatoridan o'rin oldi. Endilikda husni bilan go'zal, mehri bilan saxovat, mehnati bilan obod, shon-shuxrati bilan shafqatli bo'lgan o'zbek xalqini butun dunyo tan oldi"[86. 90]. Jumladan olimning quyidagi fikrlari ham e'tiborga molik. "G'ururli bo'lish, birinchi navbatda, xalq manfaatini yoqlash, elga foyda keltirishdir. Xalqimiz o'z hayoti, turmush tarzida eng olijanob g'oyalarni mujassam etgan ahloq-odob qoidalariga, ma'naviy qadriyatlarga tayanib kelgan. Shunday ilg'or g'oyalar tufayli elimizda adolat, rostguylik, halollik, birovning haqiga xiyonat qilmaslik, nogironlarga mehrlilik, odamiylik, qardoshlik va umuminsoniy qadriyatlar

[86.90]. O‘z navbatida mamlakatimizning birinchi Prezidenti I.Karimov “Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch” asarida “Tarix haqiqati shuni ko‘rsatadiki, tomirida milliy g‘urur, Vatan ishq jo‘sh urgan odamgina buyuk ishlarga qodir bo‘ladi. Biz shunday ma’naviy muhit yaratishimiz kerakki, yurtimizning har bir burchagida, barcha shahar va qishloqlarimiz qiyofasida Vatandan faxrlanish hissi ko‘zimizni,

q  
a  
l  
b  
i  
m  
i  
z  
n  
i

y  
a  
s  
h  
n  
a  
t  
i  
b

t  
u  
r  
s  
i  
n  
”

[14.90] deb ta’kidlagan edilar. Haqiqatda ham, xalqimizning hayotida katta tarixiy o‘zgarishlar yuz berdi. Ming yillik tarixga ega millatimizga, Ona tilimizga Davlat tili maqomi berildi. Milliy g‘oya, milliy tafakkur egalari qatog‘on qurbonlari bo‘lgan Abdulla Qodiriy, Cho‘lpon, Behbudiy, Fitrat, Usmon Nosir, Fayzulla Xo‘jaev, Akmal Ikromovlar singari iste’dodli, xalqparvar, vatanparvar, buyuk ijodkorlarning hurmati o‘z joyiga qo‘yildi. Milliy va ma’naviy qadriyatlarimiz, Navro‘z, Hosil bayrami, Ramazon, Qurbon hayiti kabi umumxalq bayramlari, “Uloq”, “Ko‘pkari” kabi xalq o‘yinlari qayta tiklandi, millatimizning tantiligini bag‘ri kengligini isbotlovchi “Milliy kurash” dunyo tan olgan sport turiga aylandi, bir so‘z bilan aytganda ko‘hna bir bulog‘ qayta ko‘z ochdi. Qadim qadimdan

B.Ziyomuxammadov o‘zining izlanishlarida milliy g‘urur hissini ma’rifatli va demokratik davlat fuqarolarining insoniy sifatlari tarzida sanab o‘tadi va jumladan shunday fikrlarni bildirib o‘tadi, “Ajdodlarimizning moddiy va ma’naviy merosini egallab, ular bilan faxrlanuvchi va ularni boyitishga hissa qo‘shuvchi har bir kishining insoniy g‘ururi asosida milliy g‘urur hissini tarbiyalash jamiyatning buyuk kelajagi sari intiltiruvchi asosiy omil hisoblanishini, odamlarda milliy g‘urur hissini tarbiyalash uchun muayyan millatning tarixiy qahramonlari, olimu fozillari to‘g‘risida to‘liq ma’lumotga ega bo‘lib, ularning dunyo ma’naviyatiga, ilm-fan va

m

a

d

a

n

i

y

a

t

i

g

a

q

o

,

s

h

g

a

n

h

i

s

Zero, yosh avlod o‘z xalqini, uning madaniyati va vazifalarini chuqur anglab yetgandagina, bizning ma’naviyatimiz qudratli kuchga aylanadi. Ma’naviyat, insoniylik, vatanparvarlik, milliy g‘urur insonda, eng avvalo, ona suti, ona allasi, mehri, ta’lim – tarbiyasi, ota – bobolarning oqilu dono so‘zlari, o‘gitlari, yo‘l – xo‘riqlari bilan ular qoldirgan ma’naviy meros, shuningdek hayotning saboqlari ta’sirida shakllanib sayqallanib, takomillashib, rivojlanib boradi. Bolalarga ta’lim-tarbiya berishda ularga donolar o‘gitlarini, asarlarini o‘qib, o‘rnak qilish orqali yoki,

h

a

g

o‘zining mustaqil qilgan ishlaridan tajriba orttirib xulosa chiqarish orqali ta’lim va tarbiyaga yo‘naltirish mumkin. Bolalarni buyuk siymolar bilan tanishtirish orqali ularda o‘z ajdodlariga muhabbat va sadoqatning qaror topishida, ajdodlariga sodiq avlod bo‘lish, ularda shu muqaddas Vatan, ona yurt tuprog‘idan minnatdorlik, milliy g‘urur va faxr, iftixor tuyg‘ularini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi.

## **1.2. Bolalarda milliy g‘urur hissini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari**

Mamlakatimiz istiqbolga erishganidan keyingi davrda asrlar davomida ko‘z ochgan buloq kabi yana milliy g‘urur hissi qadriyat darajasiga ko‘tarildi. Milliy g‘urur bu o‘tmishda o‘z vatani, xalqining tarixiga, o‘z o‘rnida kelajagiga daxldorlik hissidir. Bolalarda maktabgacha ta’lim yoshidan boshlab Vatan tuyg‘usini, milliy g‘urur hissini shakllantirishga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiq. Qadimdan Buxoro ma’naviyat o‘chog‘i bo‘lgan butun ilm ahillari Buxoroyi Sharifda ta’lim olishni niyat qilishgan. Samarqand Temuriylar davrida olimu ulamolari uchun makrkazga aylangan. Biz o‘tqizgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki hozirgi kunda aksariyat mamlakatimizda o‘sib ulg‘ayib kelayotgan yoshlarimizning 85 foizi mutafakkirlarning faqatgina nomlarini biladilar, ular qanday ishlarni amalga oshirib mutafakkirlik, ulamolik darajasiga ko‘tarilganini bilmasliklari achinarli holat. Aslini olganda barkamol farzand tarbiyasi ona qornidan undan avval balog‘at yoshiga yetgan qiz-yigitlarimizni onalikka otalikka tayyorlashdan boshlanadi. Biz maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarga, yoshlarga vatanimizda yetishib chiqqan ulamolarimizni qanday ishlar, amallar bilan dunyo tamadduniga qo‘shgan hissalarini bilan tanishtirish, xabardor qilish bilan ularda faxr iftixor, g‘urur hisslarini tarbiyalashimiz lozimki yoshlarimiz ajdodlarga munosib farzand bo‘lishga, ulardan namuna olishga xarakat qilsinlar. Shu o‘rinda mamlakatimiz rahbari Sh.Mirziyoevning tashabbusi bilan barpo etilgan “Islom madaniyati markazini” ahamiyati katta shu markazdagi nutqida yurtimiz rahbari jumladan shunday degan edi: “Ma’lumki, bizning mintaqamiz, avalambor, bugungi O‘zbekiston zamini islom ilm-fani va madaniyatining qadimiy beshiklaridan biri hisoblanadi. Xalqimizning ana shunday boy tarixiy, ilmiy, ma’naviy merosini har tomonlama o‘rganish, jahon afkor ommasiga keng tanishtirish, eng muhimi, islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini chuqur ochib berish maqsadida biz azim poytaxtimiz Toshkent shahrida O‘zbekistondagi Islom madaniyati markazini barpo etishga qaror qildik... Bu maskanga tashrif buyuruvchilar bir vaqtning o‘zida islom olamining o‘nlab eng yorqin namoyondalarining hayoti va faoliyati bilan tanishish imkoniga ega bo‘ladi. Masalan, Imom Buxoriy, Yusuf Xamadoniy, Abduxoliq G‘ijduvoniy, Imom Termiziy, Abu Muin Nasafiy, Najmiddin Kubro, Mahmud Zamaxshariy, Bohouddin Naqshband, Xo‘ja Ahror Valiy, G‘azzoliy kabi aziz-

aviyolarimiz, Muhammad Xorazmiy, Ahmad Farg‘oniy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Mirzo Ulug‘bek, Ali Qushchi, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Jalloliddin Rumiy singari alloma va mutafakkirlar, Kamoliddin Behzod, Mahmud Muzahhib kabi musavvirlarning bebaho merosidan namunalar, ular tavallud topgan va faoliyat ko‘rsatgan shaharlar manzaralari turli noyob eksponatlar orqali aks ettiriladi” [12.468-469]. Bu kabi qilalayotgan ishlar va so‘zlangan nutq mamlakatimizdagi buyuk siymolarga bo‘lgan e‘tiborning yuksakligidan dalolat beradi. O‘z o‘rnida bu e‘tiborga avlodlar diqqatini maktabgacha ta‘lim yoshidan boshlab tortishimiz zarur. Mustaqillik xalqimizning azaliy orzusi, bu orzu istak yo‘lida qanchadan qancha vatanparvar, millatparvar, xalqparvar yurtdoshlarimiz, Vatanimiz mustaqilligi uchun qurbon bo‘lishgan. Hozirgi kunlarga osonlik bilan erishilgani yo‘q. Istiqloq sharofati bilan bir necha asrlik tariximiz, boy madaniy-ma‘naviy merosimiz yana qayta tiklanib xalqimiz ma‘naviyati o‘zligiga erishdi. Hozirgi kunda ta‘lim-tarbiya tizimida ma‘naviy-ahloqiy tarbiyaga alohida e‘tibor berilmoqda. Har bir xalqning o‘ziga xos va o‘ziga mos mentaliteti mavjudligi sababli, yosh avlodning ma‘naviy yetuklikka erishishida, ajdodlari moddiy ma‘naviy merosiga sadoqat hissini tarbiyalashda o‘sha millatning va jamiyatning mentalitetiga xos tarbiya jarayonidan kelib chiqish maqsadga muvofiqdir.

**“Milliy mentalitet** – bu mohiyatan muayan millat yoki elat vakillari o‘rtasidagi qaror topgan ijtimoiy aloqa va ular o‘rtasidagi ruhiy birlikning mavjudligi hamda har qanday vaziyatda o‘zaro birdamlikning saqlanib qolishini aks ettiruvchi holat. O‘zbek xalqi madaniyatida ijobiy mazmun kasb etuvchi bag‘rikenglik, vatanparvarlik, har qanday vaziyatlarda ham Vatanni tark etmaslik, shovinizm, irqchilik, millatchilik va diniy adovat g‘oyalarini inkor etish; mehnatsevarlik; jamoa bo‘lib yashash, etnik birlikka intilish; milliy qadriyatlarga sodiqlik, shuningdek, ijtimoiy hayotda urf-odatning yetakchi o‘rin egallashi, shaxsiy manfaatlarni ustun qo‘yish; milliy g‘urur, or-nomuslik, qadr-qimmat, hallollik, oriyatlilik, qon-qarindoshchilik tuyg‘usining ustunligi, ota-onani, shuningdek kekxa kishilarning hurmatini saqlash, nikoh va oilani muqaddas deb bilish; bolalarni sevish (bolajonlik); zo‘ravonlik va shavqatsizlikni qoralash; jamoatchilik fikriga tayanib ish ko‘rish; rahbar shaxslarga ergashish kabi xislatlar uning mohiyatini anglatuvchi asosiy ko‘rsatkichlardir” [150.320-321]. O‘rta Osiyodagi milliy va umuminsoniy qadriyatlar, urf – odat, aqidalar Islom dini asosida tarkib topgan. Ma‘naviy ahloqiy tarbiyaning asosini esa milliy g‘urur, milliy o‘zlik, insoniylik, vatanparvarlik, umuminsoniylik, bag‘rikenglik qadriyatlari tashkil qiladi. Shu qadriyatlarni MTT katta va tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilari shuurida tarbiyalash, o‘rinli foydalanish bolalarning ma‘naviy kamolotga erishishining zarur shart sharoitidir. Bolalar ongida milliy g‘urur his-

tuygʻusini, milliy manfaat, milliy gʻoya, milliy qadriyat, vatanparvarlik va milliy qiyofani turmush tarziga aylantirgan munosabatlarni qaror toptirmasdan turib, xuquqiy demokratik davlat, erkin fukarolik jamiyati qurishning jonkuyar, kuyunchak yosh qaxramonlari, fidokorlari haqida gapirish bu quruq gapdan boshqa narsa emas. Darhaqiqat, buyuk siymolar hayoti, ijodi, ularning bizgacha yetib kelgan maʼnaviy merosi bilan tanishtirish orqali ularda milliy gʻurur hissini shakllantirish maktabgacha taʼlim tashkiloti tarbiyalanuvchilariga muhim ahamiyat kasb etadi. Buyuk siymolar ijodining deyarli barcha janrlariga mansub asarlarida (maqol, hikoyat, ertak, rivoyat, doston, afsona) ilgari surilgan taʼlimiy-ahloqiy gʻoyalar nafaqat bola tarbiyasi, balki barchada birday ahloqiy-maʼrifiy va ijtimoiy muammolarni hal qilishda donolik, jasurlik, tadbirkorlik, ziyraklik, dovyuraklik, sadoqat, milliy gʻurur, tantilik, vatanparvarlik, bagʻrikenglikni bir soʻz bilan aytganda barkamol inson – komil inson tarbiyasi tarkib toptiradi, buyuk siymolarning hayot yoʻli, taʼlim tarbiyaga oid madaniy merosi bilan tanishish orqali bolalar xalqimizning oʻtmishi va jahonga dovrugʻ taratgan buyuk allomalari, mutafakkirlari, qomusiy olimlari faoliyati, ularning dunyo tamadduniga qoʻshgan hissasi, ilmiy-ommabop, nasriy, nazmiy, badiiy asarlar matni bilan tanishish jarayonida ulardan namuna olishi jarayonida shaxs sifatida shakllanib, oʻz yurti, Vataniga sadoqat, millati qadriyatlariga xurmat ehtirom ruhida tarbiyalanib boradi. Oʻz yurti, oʻz millati, tuprogʻidagi buyuk insonlardan faxrlanish, gʻururlanish hislari, oʻz navbatida ulardan oʻrnak olish, ularga taqlid qilish hislari tarkib topib boradi.

Maʼlumki, bugungi statistik maʼlumotlarga qaraganda respublikada davlat, nodavlat va sherikchilik asosida tashkil etilgan 18000 maktabgacha taʼlim tashkilotlari faoliyat olib bormoqda. Ushbu MTTlarda taʼlim-tarbiya faoliyatlarini samarali tashkil etish uchun har tomonlama sogʻlom va har tomonlama rivojlangan avlodni tarbiyalashda mutaxassislar faoliyat yuritib kelmoqda. MTT tizimi uzluksiz taʼlim tizimining ilk boʻgʻini hisoblanadi. MTT olib boriladigan taʼlimiy tarbiyaviy faoliyatning asosiy maqsadi – tarbiyalanuvchilarni barkamol shaxs qilib tarbiyalash va maktab taʼlimiga sifatli tayyorlashga qaratilgan pedagogik faloliyatni samarali tashkil etishga yoʻnaltirilgan jarayon sanaladi.

MTT katta va tayyorlov guruh tarbiyalanuvchilariga buyuk siymolar bilan tanishtirish orqali milliy gʻurur hissini shakllantirishga qaratilgan bilim va qadriyatlar ularning kelgusida barkamol avlod sifatida shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Shunga koʻra mazkur sohani rivojlantirish va takomillashtirish maqsadida Oʻzbekiston Respublikasida maktabgacha taʼlim tizimini rivojlantirish va takomillashtirish maqsadida sifatli faoliyat koʻrsatishiga qaratilgan keng qamrovli islohatlar va qator meʼyoriy-huquqiy hujjatlar, qonun va davlat talablari, dasturlar ishlab chiqildi. Shuningdek mazkur sohani xorij

davlatlarda orttirilgan tajribalarga tayanish va bu borada qo‘lga kiritilgan yutuq va muvoffaqiyatlardan ta‘lim-tarbiya jarayonlarida unumli foydalanish maqsadida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 19 iyuldagi “Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 528-son [2], 2017 yil 7 noyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta‘lim vazirligining markaziy apparati tuzilmasini takomillashtirish” to‘g‘risidagi PQ-3378-son [5], O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘hrisida” 2019 yil 13 maydagi 391-son[8]li qator qonunlar misol bo‘ladi.

Mamlakat Prezidentining 2017 yil 30 sentabrdagi “Maktabgacha ta‘lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5198-sonli Farmoni [4] qarorida sohadagi kamchiliklar sanalar ekan: jumladan, “...to‘rtinchidan, milliy madaniy-tarixiy qadriyatlarni aks ettiruvchi va bolalikdan kitob o‘qishga qiziqishni uyg‘otuvchi o‘quv-metodik, didaktik (o‘yinlar va o‘yinchoqlar) materiallar va badiiy adabiyotlarni tayyorlash hamda maktabgacha ta‘lim tashkilotlari faoliyatiga joriy etish masalalari bo‘yicha olib borilayotgan ishlari zamonaviy talablarga yetarli javob bermaydi; beshinchidan, kadrlarni tayyorlash va qayta tayyorlashning amaldagi tizimi maktabgacha ta‘lim sohasini bolalarni tarbiyalash va har tomonlama rivojlantirish masalalarini professional darajada hal etishga qodir yuqori malakali mutaxassislar bilan ta‘minlay olmayotgan”i haqidagi taklif mulohazalarga alohida to‘xtalib o‘tilgan.

Tadqiqot ishimizda mana shu kamchiliklarni o‘rganib ularni bartaraf etishga yo‘naltirilgan ilmiy-didaktik va nazariy-amaliy ishlardan biridir.

Respublikamzda, maktabgacha ta‘lim tashkiloti faoliyatini yanada takomillashtirish, tarbiyachi pedagoglarni sifatli tayyorlash orqali bolalarni har tomonlama o‘sib ulg‘ayib barkamol shaxs sifatida shakllanishi va kamol topishini ta‘minlash maqsadida chet el tajribalaridan foydalanish maqsadida ham keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Ma‘lumki, maktabgacha yoshdagi bolalarning har tomonlama rivojlantiruvchi ko‘nikmalarni shakllantirishga qaratilgan ishlar Janubiy Koreya maktabgacha ta‘lim tizimi alohida ahamiyat kasb etadi. Janubiy Koreya maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalar uch yoshdan boshlab, koreys va ingliz tillarida o‘qish va yozishni o‘rganadilar. Shu yoshdan boshlab matematika sir-asrorlarini kashf qiladilar. Koreyada bolalarning jismonan sog‘lom va baquvvatligiga, shuningdek, musiqa saboqlarining o‘zlashtirilishiga, nutq ravonligiga, milliy qadriyatlar, milliylik, axloq-odob qoidalari, ekologik tarbiya va mintalitetga xos tarbiya o‘rganish va ularni qadrlashga alohida e‘tibor qaratadilar. Bolalarda yuqoridagi talablarni bajarilishini ta‘minlash maqsadida maktabgacha ta‘lim bo‘g‘inidan boshlab bolalarga juda ham katta hajmda uy

vazifalari va topshiriqlar beriladi. Tarbiyalanuvchilar ingliz tili mashg‘ulotlarida alohida so‘z va jummalarni tarjima qilishdan tashqari o‘z fikr va qarashlarini sodda hamda ravon tilda ifodalashga o‘rgatib boriladi.

Bunday yondashuvlarning afzallik tomonlarini har tomonlama o‘rganib amaliyotda tadbiq etish masalalariga e‘tibor yanada kuchaydi. Jumladan, Respublika Prezidentining 2016 yil 29 dekabrda “2017–2021 yillarda maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PQ–2707-son Qarori [1]da maktabgacha ta‘lim tizimini isloh qilishda Janubiy Koreya modeliga asoslanish, mazkur tizimni yanada takomillashtirish, uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, maktabgacha ta‘lim tashkilotlari tarmog‘ini yanada kengaytirish, ularni malakali pedagog kadrlar bilan ta‘minlash, tarbiyalanuvchilarni maktab ta‘limiga sifatli tayyorlash darajasini tubdan yaxshilash, ta‘lim-tarbiya jarayoniga zamonaviy ta‘lim dasturlari va texnologiyalarini olib kirish, tarbiyalanuvchilarni har tomonlama rivojlangan, kreativ, kommunikativ, intellektual, axloqiy, estetik va jismonan va ruhan shakllangan avlodni tarbiyalash uchun yetarli shart-sharoitlar va imkoniyatlarni yaratish alohida ahamiyat kasb etishini nazarda tutadi.

Mazkur qaror asosida “Maktabgacha ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha 2017–2021 yillarga mo‘ljallangan Dastur” [1] qabul qilindi. Bu dasturda ko‘zda tutilgan asosiy maqsad, vazifalar va yo‘nalishlar quyidagilardan iborat etib belgilandi: ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda bolalarni har tomonlama intellektual, ahloqiy, estetik va jismoniy rivojlantirish sharoitlarini yaratish, maktabgacha ta‘lim sifatini oshirish, maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalarni maktabga sifatli tayyorlashni tubdan yaxshilash, jahon amaliyotida qo‘llanib kelinayotgan zamonaviy ta‘lim dasturlari va texnologiyalarini ishlab chiqish va amaliyotda tadbiq etish, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va ilg‘or metodlarga tayangan holda maktabgacha ta‘lim tashkilotlariga samarali faoliyat yuritishga loyiq deb topilgan pedagog kadrlarni tayyorlash va malakasini oshirishning o‘quv reja hamda dasturlarini takomillashtirishga erishish muhim deb qaraldi.

Ushbu qaror asosida Maktabgacha ta‘lim vazirligining 2018 yil 7 iyunda 1-MH “O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari” [9] tasdiqlandi.

Ushbu Davlat talablarining o‘z oldiga qo‘ygan asosiy **maqsadi** – mamlakatda o‘tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni, xorijiy mamlakatlar ilg‘or tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy informatsion kommunikativ texnologiyalarni inobatga olgan holda maktabgacha ta‘lim tizimida ma‘nan mukammal va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalashdan iborat deb topilgan.

Davlat talablarining **vazifalari**: maktabgacha yoshdagi bolalarning rivojlanishi, ta‘lim-tarbiyasi mazmuni va sifatiga qo‘yiladigan talablarni belgilash;

milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar asosida bolalarga ta'lim-tarbiya berish, rivojlantirishning samarali shakllari va usullarini joriy etish; ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish; kadrlarni maqsadli va sifatli tayyorlash uchun ta'lim, fan va ishlab chiqarishning samarali integratsiyasini ta'minlashdan iborat, deb belgilangan.


Davlat talablari quyidagi **tamoyillar** asosida amaliyotga tatbiq etiladi: bolaning noyoblighi; "Men" konsepsiyasini yaratishda bolaning roli; bolaning huquqlarini himoya qilish va ta'minlashning muhimligi; bola ta'limi va rivojlanishida kattalarning o'rni; bolalar rivojlanishida individual farqlanishlar mavjudligi sababli har bir bolaga moslashuvchan, individual variativlik asosida yondashish.

Davlat talablarida maktabgacha ta'lim tushunchasiga: «maktabgacha yoshdagi bolalar qiziqishi, iqtidori, individual ruhiy va jismoniy xususiyatlari, madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda hamda bolada ma'naviy me'yorlarning shakllanishi, hayotiy va ijtimoiy tajriba egallanishini ko'zda tutgan har tomonlama rivojlantirishga qaratilgan yaxlit jarayon», tarzida ta'rif berilgan.

Tahlildan ko'rinadiki, mazkur Davlat talablarida maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanayotgan bolalarni buyuk siymolar bilan tanishtirish orqali ularda milliy g'urur hissini tarbiyalash, shakllantirish masalasiga alohida talab shaklida qaralmagan.

Maktabgacha ta'lim tashkilotining "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshidagi bolalarni rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablariga muvofiq ishlab chiqilgan me'yoriy-huquqiy hujjatdir, unda maktabgacha ta'lim tashkilotining maqsad va vazifalari, o'quv-tarbiyaviy faoliyatning asosiy g'oyalari ifodalangan, shuningdek, bolaning ta'limning keyingi bosqichiga o'tishidagi asosiy kompetensiyalari belgilangan. [10] Davlat o'quv dasturining maqsadi bolalarda umumiy asosiy kompetensiyalar va rivojlanish sohalari kompetensiyalarini shakllantirish uchun tegishli sharoitlar yaratishdir.

"Ilk qadam" davlat o'quv dasturining **vazifalari** – bolani jismoniy, aqliy hamda ijtimoiy-hissiy jihatdan kamol toptirish va sog'lig'ini muhofaza qilish; erkin fikrlash, ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, axloqiy va ma'naviy jihatdan barkamol, shuningdek, kelajakda mustaqil va ongli yashaydigan komil inson qilib voyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishdan iborat. Davlat o'quv dasturining mazmuni quyidagi **tamoyillarda** o'z aksini topadi.



### **1.2.3 rasm. Milliy g‘urur hissini shakllantirish tamoyillari.**

“Ilk qadam” davlat o‘quv dasturining «Maktabga tayyorlash» (6–7 yosh) guruhlarida ham har ikki yo‘nalishdagi soatlar sonida o‘zgarish yo‘q. Mazkur bosqichda “O‘qish va savod malakalarini egallash” rukni qo‘shilgan va unda: *“Bolaning 15– 20 daqiqa davomida zerikmay kitob tomosha qilishini rag‘batlantirish; bir necha mashhur asarlar va adabiy qahramonlarni aytib berish, adabiy asardan ayrim parchani so‘zlab berish, yodlagan she’rlarini ifodali o‘qish malakasini rivojlantirish”* [22.164] kabi talablar tavsiya etilgan. “Badiiy adabiyot” ruknida esa yuqoridagilarga qo‘shimcha ravishda: “Bolani ertakning o‘ziga xos xususiyatlari (boshlanma, takror, tugallanma) haqidagi tushunchalarini aniqlash; turli ertaklardagi o‘xshash qahramonlarni, o‘xshash voqealarni qiyoslash; ertakni she’r va hikoyadan farqli tomonlari haqida ma’lumot berish asosida, badiiy asar janrlari (she’r, hikoya, ertak) haqidagi tushunchalarini mustahkamlash” [22.166] kabi talablar kiritilgan.

Mazkur tahlildan ko‘rinadiki, mazkur dasturda maktabgacha ta’lim tashkiloti tarbiyalanuvchilarining milliy g‘urur hissini shakllantirish va rivojlantirish masalasi diqqat markazida bo‘lgan tadqiqot ishi mana shu g‘oyaning nazariy asoslarini belgilash va ularni amalda qo‘llash vazifasini zimmasiga olgan.

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari [9] asosida maktabgacha ta’lim tashkilotlari “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturida [10] maktabgacha ta’lim jarayoniga kompetensiyaviy yondashuv ustuvorlik qiladi. Dasturda bu yoshdagi bolalarning quyidagi kompetensiyalarni egallashlari lozimligi ta’kidlangan:

- kommunikativ kompetensiya;
- o‘yin kompetensiyasi;

- ijodiy kompetensiya;
- bilish kompetensiyasi [10.6-9].

Davlat talablari va “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi talablarida ilgari surilgan g‘oyalar hamda dissertatsiya maqsadidan kelib chiqqan holda maktabgacha ta’lim tashkilotlarida faoliyat olib borayotgan tarbiyachilarning umumiy saviyasi, bilimdonlik darajasini aniqlash maqsadida tadqiqotimiz doirasida MTT tarbiyachilar orasida quyidagi mazmunda anketa so‘rovnomasi o‘tkazdik.

1. Ma’naviy tarbiya deganda nimani tushunasiz?
2. Milliy g‘urur hissi deganda nimani tushunasiz?
3. Bolalarda nech yoshdan milliy g‘urur hissini shakllantirishga urg‘u berish kerak deb hisoblaysiz?
4. MTT tarbiyalanuvchilari uchun chop etilgan adabiyotlarda milliy g‘urur hissini shakllantirishga oid qarashlarga qay darajada e’tibor berilgan?
5. Mashg‘ulotlarda bolalarda milliy g‘urur, iftixor, iftixor hissini shakllantirish uchun qanday usul va vositalar qo‘llaniladi?
6. Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy g‘urur hissini shakllantirishda buyuk siymolar hayoti va ijodini o‘rni va ahamiyatini qanday baholaysiz?
7. Olib boriladigan mashg‘ulotlarda bolalarning milliy g‘urur, iftixor hissini shakllantirishda qanday metodlardan foydalanishni maqsadga muvofiq deb bilasiz?

Mazkur so‘rovnomada Toshken shahri, Samarqand viloyati va Buxoro viloyatidan 102 nafar tarbiyachilar ishtirok etdi. Ishtirokchilarning 75-80 foizi o‘rta-maxsus ma’lumotli. Bu anketa savollariga berilgan javoblarning saviyasidan ham yaqqol ko‘zga tashlanadi. Olingan javoblarning 81 foizida tarbiyachilar so‘rovnomaning birinchi, ikkinchi savollariga “bilmayman”, “aniq bir gap aytolmayman”, “bu haqda tushunchaga ega emasman” singari javoblarni berishgan. Respondentlarning 34 foizi uchinchi savolga “3-4 yoshdan” deya, javob berishgan, 20 foizi “maktabga tayyorlash guruhlaridan” deyishgan, 20 foizi javobsiz qoldirgan, qolganlari “bilmayman” deya javob berishgan.

4-savol: “MTT tarbiyalanuvchilari uchun chop etilgan o‘quv adabiyotlarida bolalarda milliy g‘urur hissini shakllantirishga oid qarashlar qay darajada e’tibor berilgan?” tarzidagi savolni tarbiyachilarning 18 foizi umuman tushunmagan, undan nima so‘ralayotganining mohiyatiga ham kirolmagan. Ularning 3 foizi metodik qo‘llanmalarni har xil rasmlil ko‘rgazmalar bilan takomillashtirishni taklif etishgan. Qolganlar bu savolni ochiq qoldirishgan.

“Mashg‘ulotlarda bolalarda milliy g‘urur, iftixorni shakllantirish uchun qanday usul va vositalar qo‘llaniladi?” mazmundagi 5-savol ham tarbiyachilarni ancha mushohada yuritishga undadi. 11 foiz tarbiyachilar “ko‘rgazmali qurollar,

tarqatma materiallar, rasmlar” va hokazolarni sanashgan. Javoblar tahlilidan ko‘rinadiki, tarbiyachilar bu javoblarni bir-birlaridan ko‘chirishgan. Umumiy hisobda 19 foizi mazkur bandni javobsiz qoldirgan.

6-savol. Maktabgacha yoshdagi bolalarni milliy g‘urur hissini shakllantirishda buyuk siymolar hayoti va ijodini o‘rni va ahamiyatini qanday baholaysiz? Degan so‘rovnoma tarbiyachilarning deyarli barchasi tushunmagan, ulardan nima so‘ralayotganiga qiziqmagan va o‘ylab ham o‘tirmay nimadir yozish kerak, deb hisoblagan va so‘rovnomani taxminan to‘ldirib bergan. 4 foiz tarbiyachilarning javoblarida aniqroq javoblar yoritib berilgan. Jumladan, Toshkent shahridagi BOSS BABY nomli maktabgacha ta‘lim tashkiloti tarbiyachisi G.Rizaeva, D.Xalilova “Olib boriladigan mashg‘ulotlarda bolalarni milliy g‘urur, iftixor hissini shakllantirishda qanday metodlardan foydalanishni maqsadga muvofiq deb bilasiz?” degan

7 - savolga quyidagicha javob yozishgan: “turli metodlardan foydalanib mashg‘ulot o‘tish bolaga bilim, ko‘nikma va malakani shakllantirishda samarali yordam beradi, natijada bola o‘z fikrini ayta oladi, o‘z munosabatini bildira oladi, mustaqil yondasha oladi, eng asosiysi bolaning malaka va ko‘nikmasi rivojlanib boradi”.

O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari va “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturida ham bolalarda milliy g‘urur hissini tarbiyalashning ilk talablari o‘z aksini topgan. Ammo shu kungacha ishlatilayotgan metodlarda buyuk siymolarning tarjimayi holi va kichik hikoyalar bilan tanishtirish nazarda tutilgan. Aynan buyuk siymolar bilan tanishtirishda ularni milliy g‘urur hissini tarbiyalashga urg‘u berilmagani, mazkur tushunchaning mohiyatini to‘la aks ettirmayotganini ko‘rishimiz mumkin.

MTT katta va tayyorlov guruhlarida, Davlat talablari mazmuniga bizning Vatanimiz O‘zbekiston ekanligi, Davlatimiz ramzlari – gerb, bayroq, madhiya, armiya, milliy qadr-qimmat tuyg‘usi, mamlakat hayotidagi muhim voqealarga doir milliy istiqlol g‘oyasining asosiy tushunchalari kiritilgan. O‘zbekiston Respublikasi ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan “Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturi[10]da fevral oyi buyuk siymolar bilan tanishtirish oyligi bo‘lib, biroq bu oydagi rejalashtirilgan mavzularda milliy iftixor va milliy g‘urur hissini tarbiyalashga urg‘u beruvchi, xizmat qiluvchi mavzularning mavjud emasligini ko‘rishimiz mumkin. Holbuki, bolalarda milliy g‘urur hissini tarbiyalash ko‘p jihatdan taqdim qilinayotgan badiiy adabiyot namunalari, tashkil etilayotgan faoliyatlardagi topshiriq va materiallarga bog‘liqdir.

Mamlakatimiz dadil qadamlar bilan rivojlangan davlatlar qatoriga kirib borishga harakat qilayotgan bir davrda MTT bolalari o‘z Vatandan, shu millatga mansubligidan, shu yurt farzandi ekanligidan faxrlanish, g‘ururlanish hislari,

hamda shu el-yurtga munosib farzand bo'lishga intilish istagini tug'dirishga xizmat qiladigan, milliy merosimiz, faxrimiz, g'ururimiz bo'lgan buyuk mutafakkir, allomalar Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Ulug'bek, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur, Kamoliddin Behzod, Jaloliddin Manguberdi kabi shaxslarning hayot yo'li, ijodi, bola tarbiyasi inson kamoloti haqidagi bolalarning yosh xususiyatlariga xos, milliy g'urur hissi, milliylik va umuminsoniy qadriyatlarga urg'u beradigan materiallarini olib kirish, asar qahramonlari atributlaridan foydalanib qo'g'irchok teatri, stol teatri, audio yozuvlar, kichik video roliklarni ishlab chiqish ayni muddao bo'lar edi. Shu kungacha maktabgacha ta'lim tashkilotlarida milliy g'urur hissini targ'ib qiladigan materiallarni tahlil qilar ekanmiz, buyuk siymolar haqidagi milliy g'urur hissini tarbiyalashga xizmat qiladigan maqol, afsona, xalq og'zaki ijodi, rivoyat, ertak, matallarning sanoqli ekanligining guvohi bo'ldik. Jumladan katta va tayyorlov guruhlari uchun hozirgi kunda ishlab chiqilgan yillik rejada faqatgina fevral oyining uchinchi haftasidagina, faqatgina Alisher Navoiy haqida ma'lumot bo'lib, u ham milliy g'urur hissini targ'ib qilishdan ancha yiroqda. Bizningcha, MTT katta va tayyorlov guruhlari milliy g'urur hissini tarbiyalashga urg'u beradigan buyuk siymolar hayoti aks etadigan materiallarni qo'shimcha sifatida kiritishimiz kerak, o'z navbatida tarbiyalanuvchilarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarimiz bilan yoshlikdan tanishtirib, dastlabki bilimlar bilan qurollantirmog'imiz maqsadga muvofiqdir.

MTT katta va tayyorlov guruhi bolalari uchun milliy g'urur hissini tarbiyasi sharqona urf-odatlar, milliy an'analar, qadriyatlar asosida Vatanga muhabbat ruhida tarbiyalash, ularda halollik, poklik, rostgo'ylik, to'g'rilik, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, insof-diyonat, mehr-oqibat kabi tushunchalarni shakllantirishga, tarkib toptirishga xizmat qiladi.

### **1.3. Buyuk siymolarning farzand tarbiyasi va kamolotida tutgan o'rni va ahamiyati.**

Har bir xalq jahon madaniyatining bebaho xazinasiga o'z ulushini, hissasini qo'shib kelgan. Jumladan, O'rta Osiyo xalqlarining bu boradagi qo'shgan hissasi alohida tahsinga sazavordir. "... qadimiy O'zbekiston zamini ko'p asrlar davomida fan va ma'rifat o'chog'i, jahon sivilizatsiyasi markazlaridan biri bo'lib kelgan, ilmu ma'rifatga intilib yashash esa xalqimiz mentalitetining ajralmas qismiga aylanib ketgan. Muhammad Xorazmiy, Abu Rayhon Beruniy, G'arbda Avitsenna nomi bilan mashhur bo'lgan Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek va boshqa ko'plab buyuk ajdodlarimiz butun dunyoda o'zlarining matematika, astronomiya, geodeziya, mineralogiya, farmakologiya va tibbiyot sohalaridagi tengsiz kashfiyotlari bilan shuhrat qozonganlar" [16.10]. Shunday ekan, Movarounnahrda vujudga kelgan ulkan davlat hududida hayot kechirgan xalqning madaniy-ma'naviy merosi

dunyoda, umuman olganda insoniyat tarixida o'ziga xos ahamiyatga ega. Ushbu meros uzoq asrlar mobaynida yosh avlodni milliy g'urur, iftixor va faxr tuyg'ularini shakllantirishda o'ziga xos ma'naviy ozuqa bo'lib xizmat qiladi. Mazkur holatni quyidagi jadvalda alohida keltirib o'tamiz.

**Buyuk siymolarning ilg'or qarashlarida bolalarda milliy g'urur hissini  
tarbiyalashning retrospektiv tahlili  
1.3.4-jadval.**

№	Buyuk siymolarning ismi va sharifi	Buyuk siymolarning maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy g'urur hissini shakllantirishga yo'naltirilgan ilg'or qarashlari	Ilg'or qarashlardan foydalanishning ahamiyati va zaruriyati
1	(873-950)	“Forobiy insonning ma'naviy hayotda, asosan uning ikki tomoniga: aqli-ongiga va axloqiga (xulq-atvoriga) e'tibor beradi. Shuning uchun ta'lim-tarbiya, uning fikricha, insonni aqliy tomondan ham, axloqiy tomondan ham yetuk mukammal kishi qilib yetishtirishga qaratilmog'i lozim: demak, ta'lim-tarbiyaning birdan-bir vazifasi – jamiyat talablariga to'la-to'kis javob bera oladigan va uni bir butunlikda, tinchlikda, farovonlikda saqlab turish uchun xizmat qiladigan ideal inson tayyorlashdir” [144.128] deya ta'lim va tarbiyaga katta ahamiyat beradi.	bo'lish, milliy o'zlikni  Bolani yoshligidan tarbiyasiga e'tibor berish, bola tilida munosabatga kirishish kelajakda uning tarbiyasiga samarali ta'sir ko'rsatishi haqida fikr bildiriladi
2	9 7 3 -	Faxrlanish haqiqatda yaxshi xulqlar va oliy fe'llarda oldin ketish, ilmu hikmatni egallash va imkoniyat boricha mavjud nopokliklardan tozalanishdir. Kimda shunday sifatlar topilsa, xulq uning foydasiga va kimda bular yetishmasa, xulq uning zarariga bo'ladi.	
3	9 8 0	“Jamoat tartibida o'qitishning yana bir ijtimoiy foydasi shundaki; o'quvchilar bir-birlari bilan do'st bo'ladilar, bir-birlarini hurmat qila boshlaydilar, bir-birlari bilan fikr almashadilar, musobaqa qiladilar, vazifa va huquqlari haqida mulohaza	o'zaro va ustozga hurmat b o ' q

		yuritadilar. Bular hammasi... namunali xulq va axloq qoidalarini shakllantirishga yordam beradi” [144 139]	
5		<p>“Qutadg‘u bilig” “Saodatga boshlovchi bilim” asari ta‘bir joiz bo‘lsa, bilimning mohiyati, uning ijtimoiy hayotdagi ahamiyati, inson kamolotini ta‘minlashdagi roli, yovuzliklarni bartaraf etuvchi vosita ekanligi to‘g‘risidagi qomus sanaladi. Allomaning fikricha, bilimli bo‘lish ezgu ishlar tantanasini ta‘minlovchi garov bo‘lib, uning yordamida hatto osmon sari yo‘l ochiladi: Hamma ezguliklar bilim nafi tufaylidir, Bilim tufayli, go‘yo ko‘kka yo‘l topiladi. Ushbu fikrlarni ifoda etganda alloma naqadar haq edi. Zero, oradan to‘qqiz-o‘n asr vaqt o‘tgach, inson nafaqat osmonga ucha oldi, balki koinotni ham zabt etishga muvaffaq bo‘ldi.</p>	r a g‘
6	<b>Amir Temur (1336-1405)</b>	<p>“Temur tuzuklari” yoshlar qalbiga bemisl g‘urur joylab, ularni chinakkam inson qilib yetishtirishda, qo‘rqmas va dovyurak, aqilli va vatanparvar sifatida tarbiyalashda bebaho bir maktab vazifasini ado etadi. Bu maktabda hali ne-ne avlodlar saboq “olishlariga aslo shubha yo‘q.” deydi. Shuningdek, “Bizning kimligimizni bilmoqchi bo‘lsangiz biz qurgan imoratlarga qarang” degan gapi o‘ziga xos ma‘no kasb etadi. Zotan, Amir Temur o‘z qudratini salb yurishidagi g‘olibliklarida yoki yengilmas qo‘shinida emas, balki o‘zi qurgan mahobatli binolari, rasadxona-yu, madrasalarda, yurt obodligiyu, xalq</p>	<p>U barpo etgan inshootlar yana yillar davomida Vatanimiz nomini tillardan tushirmaydi, bu esa o‘z navbatida kelajak avlodlar uchun ibrat va milliy g‘urur hissini shakllantiruvchi muhim omil bo‘lib xizmat qilishi shubhasizdir.</p>

		farovonligida ko‘radi. Amir Temur Oqsaroy peshtoqiga biz – avlodlarga qoldirgan vasiyatida g‘oyat muhim bir fikrga alohida urg‘u berib, “El dardiga darmon bo‘lmoq – ezgu vazifangizdir”, deb ta’kidlagani a	
7	<b>Ulug‘bek</b>	“Ulug‘bek yosh avlodning erkin va har tomonlama kamol topish huquqini himoya qiladi va mudarrisni talabalarni ongli va savodli qilib yetishtirishga da’vat etadi. Ulug‘bekning o‘zi Samarqand madrasasi talabarlari ko‘z o‘ngida ana shunday fazilatli ustoz timsoli bo‘lib, faoliyat ko‘rsatadi. Ulug‘bekning fikricha, o‘quvchi hayotida darsliklar muhim ahamiyatga ega. Shuna ko‘ra, har bir fan bo‘yicha yaratiladigan darslikda voqea, hodisa yoritilishidan qat’iy nazar, hayotiy haqiqat o‘z ifodasini topishi kerak. Darslik sodda, ravon, o‘qimishli bo‘lishi lozim. Ammo darslik qanchalik yaxshi bo‘lmasin, ta’limda muallim asosiy o‘rinda turadi, o‘z pedagogik mahorati, yaxshi insoniy fazilatlari bilan o‘quvchilarga namuna bo‘ladi” [144.174]	Insonparvarlik, mas’uliyatlilik, ma’rifatlilikni yoshlar hayotida ahamiyat kasb etadigan muhim omillar ekanligi takidlaydi.
8	<b>Zahiriddin Muhammad Bobur (1483-1530)</b>	Mirzo Bobur o‘z ajdodlariga katta hurmatda bo‘lgan shohlardan sanaladi. Chunki, hayoti davomida har juma kunlari qarindoshlaridan xabar olish uchun, albatta, vaqt ajratgan. katta imperiya hukumdori bo‘lsa-da, bu odatini umrining oxirigacha kanda qilmagan. Yana o‘zining bobokalonlari bo‘lgan Amir Temur avlodidan ekanligidan nihoyatda	Yoshlarni vatan, xalq ravnaqi yo‘lida fidoiyi bo‘lishga, milliy iftixor va g‘urur hissini ular ongi va shuuriga singdirish, ona vatanini sevish, qadriga yetish haqida.  ko‘rsatish, atrofdagilarga

		g'ururlangan, Vatani Andijonu Samarqandni beqiyos muhabbat bilan qo'msab yashagani har bir avlod vakillari uchun ibratlidir. Zotan, Bobur Vatan sog'inchining eng yorqin timsolidir. Bobur farzandlarining adabiyotga oshno bo'lishini juda-juda istardi. O'z ijodi namunalaridan ularni ham xabardor qilib turgan. Shundanmi, Mirzo Xumoyun vaqti-vaqti bilan she'rlar mashq qilgan, Gulbadan Begim esa otasi kabi xassos qalb egasi bo'lib voyaga yetgan va uning ham tarixiy asarlari asosida bir qancha asarlar yozilgan	
9.	<b>Alisher Navoiy (1441–1501)</b>	Tuzg'ay aning birla muvaddat ishi.  “Navoiy insonlarni milliy, irqiy va ta'kidlashicha, odamlar bir-birlari o'z orzu-niyatlariga yeta olmaydilar.	B b o , q a y o
10		Abdulla Avloniy “Vatan” tushunchasiga ta'rif berib, uning ravnaqi uchun kurashish vatanparvar insonga xos xususiyat ekanligi quyidagicha qayd etadi: “Har bir kishining tug'ilib o'sgan shahar va mamlakatini shul kishining vatani deyilur. Har kim tug'ilgan, o'sg'on yerini jonidan ortiq suyar. Hatto bu vatan hissi – tuyg'usi hayvonlarda	b o , o , o

		<p>ham bor. Agar bir hayvon o'z vatanidan – uyuridan ayrilsa, o'z yeridagi kabi rohatda yashamasdir". Tarbiya haqida to'xtalib, "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo halokat, yo saodat, yo falokat masalasidir", deb ta'kidlashi tarbiya biz uchun qay darajada muqaddas ekanligini asoslaydi.</p>	
--	--	--	--

Mazkur jadvalda buyuk siymolarning ilgari surilgan g'oyalari bolalarda milliy o'zlikni anglash, milliy g'urur faxr, iftixor hissini shakllantirishga xizmat qiladi.

Sharq mutafakkirlari qadim qadimdan komil inson tarbiyasi, vatanparvarlik, milliy g'urur, insoniylik, sadoqat, halollik, umuminsoniy qadriyatlarga o'z ijodlarida katta o'rin berib kelganlar. Ularning inson kamolotidagi o'rni beqiyosdir. Quyida buyuk siymolarning barkamol inson tarbiyasi va jahon tamadduniga qo'shgan hissalaridan dalillar keltirib o'tishni joiz deb bildik. Sharqning buyuk allomasi Abu Ali ibn Sino 980 yilda Buxoro yaqinidagi Afshona qishlog'ida tug'ilgan. Ibn Sino iste'dodli va xotirasi o'tkir bo'lgan. U 10 yoshidayoq, Qur'oni Karimni yod olgan. O'sha vaqtda diniy ilmlar keng targ'ib qilinib, dunyoviy ilmlar bilan shug'ullanish gunoh hisoblanar edi. Shunday vaziyatda ham u ilm o'rganishdan tolmaydi. 10-13 yoshlaridan boshlang'ich matematika, mantiq, falsafa ilmlarini mukammal egallay boshlagan. 18 yoshga kirganda esa, tibbiyot sohasida yetuk mutaxassis tabib-hakim bo'lib tanildi o'z zamonida somoniylarning amiri Nuh Ibn Mansurni davolaydi. Evaziga saroy kutubxonasidagi noyob kitoblarni o'qish uchun ruhsat oladi va mashhur ensiklopedist olim, huquqshunos, shoir, faylasuf va dunyoga taniqli hakim bo'lib yetishadi.

“Bolalarning kun tartibi... ularning tanasi va nafsining salomatligini saqlash va o'sishini ta'minlashga qaratilgan bo'lmog'i darkor” [18.122] “Ibn Sino “Qonun fit-Tibb” asarida yosh bolalarni tug'ulgandan boshlab tarbiyalash masalasiga alohida bo'lim ajratadi. Bola tug'ulgandan boshlab oyoqqa turguncha ma'lum tartibda tarbiyalanib borishi lozim. Bu tartib o'z vaqtida ovqatlantirish, cho'miltirish, uxlatish, yo'rgaklash kabi tartiblardan ibort... Bola tabiatini mustahkamlashdagi muhim vositalar asta-sekin tebratish, musiqa eshittirish, ashula aytishdan iborat bo'lib, ular tartib bilan amalga oshirilsa, bola yaxshi uxlaydi” [144.137]. *Darhaqiqat bolaning jismonan va ruhan sog'lom bo'lib o'sib ulg'ayishi uchun kun tartibiga rioya qilish, ona suti bilan oziqlantirish, beshikda, alla aytib, ohista tebratib uxlatish, bu ishni davomiy ravishda*

***takrorlash bolaning ruhiyatiga sokinlik beradi.*** Ibn Sino bola tarbiyasida otaning birinchi vazifasi farzand uchun yaxshi ma'noli ism berishi, yana bola balog'at yoshiga yetguncha o'z vazifasini bajarib borishi, bola mustaqil ovqatlanishga boshlashi bilan uning axloqiy tarbiyasi bilan shug'ullanishni tavsiya etadi, tarbiya jarayonida bolaning maqtovg'a sazovor ishlari uchun vaqti vaqti bilan maqtab, kerak bo'lganda jazolash ham kerak degan fikrni beradi. Bir so'z bilan aytganda bola tarbiyasidagi turli yosh bilan bog'liq tarbiya usullarida otani masuliyatini hozirgi kun bilan taqqoslaganda, sezilarli darajada ko'proq qilib ko'rsatadi. "Ibn Sino "Tib ilmi qonuni" asarida bola katta bo'lib, yetilgan chog'ida jismoniy tarbiyaga ahamiyat berish zarurligini aytadi... o'z davridagi jismoniy mashg'ulot turlari – arqon tortish, kamondan otish, tez yurish, nayza otish, sakrash, qilichbozlik, otda yurish, turli xil kurashlarning ahamiyatini ko'rsatadi" [144.140] haqiqatda ham jismoniy tarbiya mashqlari tanani chiniqtirishi va sportning hamma turi inson uchun koni foyda ekanligi hech kimga sir emas. Ulug' mutafakkir qoldirgan o'lmas asarlari asrlar davomida o'z qadrini yo'qotmay kelmoqda, dunyo xalqlari hali hanuz ibn Sinoning tibbiyotga oid qoldirgan davolaridan foydalanmoqda.

Muhammad ibn Ahmad Beruniy o'rta asrning buyuk ensiklopedist olimi yoshligidan astranomiya, fizika, matematika, geodeziya, geologiya, mineralogiya kabi fanlarga qiziqib, ularni puxta egallab olgan. U 973 yil 4 sentabrda (hijriy 362 yil 2 zulhijja) Xorazmning qadimiy poytaxti Kot (Kat) shahrida tug'ilgan. Otonadan juda erta yetim qolgan Beruniy yaxshi odamlar qo'lida tarbiyalangan. Beruniy ona tilidan tashqari arab, so'g'diy, fors, suryoniy, yunon va qadimgi yahudiy tillarini bilgan, tabiat hodisalarini ilmiy asosda izohlab bergan.

"Beruniy har bir yaratgan ishining kishi ruhiyatiga, qobiliyatiga mos, uni toliqtirmaydigan bo'lishiga e'tibor beradi. Beruniy yozadi: "Bizning maqsadimiz o'quvchini toliqtirib qo'ymaslikdir. Hadeb bir narsani o'qiy berish zerikarli bo'ladi va toqatni toq qiladi. Agar o'quvchi bir masaladan boshqa masalaga o'tib tursa, u xuddi turli – tuman bog'-rog'larga sayr qilgandek bo'ladi..." [144.150] haqiqatda ham hozirgi kunda MTTlarda tashkil qilingan 5 ta markaz va ularda bolalarning erkin faoliyati, bolalardagi ijodkorlikni, iqtidor va yashirin qobiliyatlarini ochilishiga sabab bo'layotganini shohidimiz. "Beruniy muruvvat va futuvvat (shavkat)ning yuksak xislat ekanini ta'kidlar ekan, bu fazilatlar kishining asli zoti, kelib chiqishiga bog'liq emasligini uqtiradi. Kishining nasabi va asl zoti emas, uning fazilati, elga qilgan xayr va yaxshiligi muhimdir..." [144.154]. ***Bolani yoshligidan boshlab yaxshi xulq va axloq, ezgulik, adolat, insoniylik, iymon bilan tarbiya qilinsa, u shu tarbiyaga munosib bo'lib kamol topadi.***

Dunyo tamadduniga munosib hissa qo'shgan Amir Temur harbiy salohiyatda jahonga mashhur sarkarda va o'z zamonasining eng qudratli hukmdori

bo'lgan. Amir Temur 1336 yilning 9 aprelida o'sha paytlarda Kesh (Shaxrisabz)ga qarashli Xoja Ilg'or (bu qishloq hozir Yakkabog' tumaniga qaraydi) qishlog'ida tavallud topadi. Otasi Amir Tarag'ay o'ziga to'q, badavlat kishi edi. Amir Temur bolaligidan o'tkir zehni, mulohazali bola bo'lgan. U kattalar gapini diqqat bilan tinglagan. Kerak bo'lib qolganida, o'z fikrini odob bilan ayta oladigan, qo'rqmas, kuchli, to'g'ri so'z, g'ururli bola bo'lgan. Shu bois o'rtoqlari uni nihoyatda hurmat qilishgan. Temur o'z tengqurlari bilan birgalikda turli o'yinlar tashkil qilib, o'zi doimo boshchilik qilgan. U yoshligidan Qur'oni Karimni yod olgan, Hadis ilmini o'rgangan, iymon-e'tiqodli, halol, pok inson bo'lgan. Amir Temur o'sha paytdagi feodal tarqoqlikdan foydalanib, hokimiyatni qo'lga oladi. Samarqandda uni Movarounnahr amiri deb e'lon qiladilar (1370). Keyin u Samarqandni markaz poytaxt deb e'lon qiladi va uning gullab yashnashi uchun, ilm-fan madaniyat, savdo-sotiq ishlarini rivojlantirish uchun boshqa mamlakatlardan olimlarni, me'mor, rassom, ganchkor, zardo'z va boshqa hunarmandlarni taklif etadi. Samarqandda tengi yo'q hashamatli va chiroyli tarixiy obidalar yaratadi. 1399-1404 yillar mobaynida sevimli xotini Saroy Mulk xonimga atab mashhur Bibixonim masjidini, Toshkentda bo'lganda esa, Zangiota va Shayx Zayniddin bobo maqbaralarini qurdiradi.

Amir Temur dovyurak sarkarda bo'lib, urushlarda oldingi saflarda yurib jang qilgan. U otda mohirlik qilib har ikkala qo'lida ham qilich ishlata bilgan, askarlarini sog'lom, jasur, epchil bo'lishlari uchun doimiy ravishda jismoniy mashqlar bilan chiniqtirib turgan. U nihoyatda shijoatli, dovyurak odam bo'lgan.

Amir Temur – buyuk shaxs, mashhur sarkarda, davlat arbobi: qonunshunos, iqtidorli me'mor, notiq, ruhshunos, shu bilan birga, el-yurtini sevgan va uni mashhuri jahon qilgan inson.

Sohibqiron bobomizni tavallud kunlarini xalqimiz har yili nishonlaydi. Temur nomini hurmat bilan tilga oladilar.

“Temur tuzuklari”da davlat tizimi, davlatdagi turli lavozimlarning vazifasi, undagi turli toifalar va ularga munosabat, davlatni boshqarishga asos bo'lgan qoidalar, qo'shinlarning tuzilishi, tartibi, uni boshqarish, ta'minlash, rag'batlantirish, qo'shin turlarining tutgan o'rni va o'zaro munosabati kabi masalalar bayon etiladi. Davlat ishlarini har doim islom va shariat hukmlari asosida olib borilganligi bir necha bor ta'kidlanadi. “Saltanatim martabasini, - deb ta'kidlaydi Amir Temur,— qonun-qoidalar asosida shunday saqladimki, saltanatim ishlariga aralashib, ziyon yetkazishga hech bir kimsaning qurbi yetmasdi”. Bundan tashqari, asarda jamiyat ishlaridagi odamlarning 12 toifaga bo'linishi, saltanatni boshqarishda 12 qoidaga amal qilinganligi, saltanat 4 qatiy qoidaga asoslanishi kabi masalalar ham tartib bilan bayon etilgan.

Shaharlar va shahar atrofi aholisidan na jon solig'i va na boj olinardi. Birorta

ham askarning doimiy turish uchun shaxsiy kishilar uyini egallashga yoki fuqarolarning molini va boyligini o'zlashtirib olishga haqqi yo'q edi. «Barcha ishlarda, — degan edi Amir Temur, — bu ishlar qaysi o'lka xalqiga taalluqli bo'lmasin, hokimlarning adolat tomonida qattiq turishlariga buyruq berilgan. Qashshoqlikni tugatish maqsadida boshpanalar tashkil qildimki, kambag'allar ulardan nafaqa olib turardilar». Bundan tashqari, Temurning soliqlar haqidagi qoidasi juda muhim ahamiyatga egadir. Temur yozadi: «Soliqlar yig'ishda xalqni og'ir ahvolga solishdan yoki o'lkani qashshoqlikka tushirib qo'yishdan ehtiyot bo'lish zarur. Negaki, xalqni xonavayron qilish davlat xazinasining kambag'allashishiga olib keladi, xazinaning bequvvatligi harbiy kuchlarning tarqoqlanishiga, bu esa, o'z navbatida hokimiyatning kuchsizlanishiga sabab bo'ladi...» degan fikrlari hozirgacha o'z qadrini yo'qotmadi. Amir Temur uzoq tarix zarvaraqlarida adolatni himoya qiluvchi, so'zi va adolati, olijanoblighi bilan dushmanlari orasida ham nom chiqargan. «...G'anim tomonidan bo'lgan navkar bizga qarshi qilich ko'targan bo'lsa, o'z yurtining tuzini halollagan bo'ladi,»[114.8] – deydi. Ya'ni o'z yurtini himoya qilgan askar, dushman navkari bo'lsada katta hurmatga loyiq, chunki u o'z yurti Vatanini himoya qildi. Yana Amir Temurning bir xislati har qanday jangda o'z Vatani himoyasidan voz kechib Amir Temur tomoniga o'tmoqchi bo'lgan askarni eng yomon dushmani dib bilganidir. «...Sohibqiron qalami bilan insho etilgan «Temur tuzuklari» yoshlar qalbiga bemisl g'urur joylab, ularni chinakkam inson qilib yetishtirishda, qo'rqmas va dovyurak, aqilli va vatanparvar sifatida tarbiyalashda bebaho bir maktab vazifasini ado etadi. Bu maktabda hali ne-ne avlodlar saboq olishlariga aslo shubha yo'q»[114.10]. Haqiqatda ham Amir Temurning ma'naviy merosi, qurdirgan imoratlarning salobati dunyo ahlini asrlar davomida lol qoldirib kelmoqda.

Mirzo Ulug'bek Navoiy ta'biri bilan aytganda, dunyo bor ekan, uning merosi ham boqiy qolaveradi. Movarounnahrda qirq yil hukmronlik qilgan davrida, ilm-fan uchun alohida g'amxo'rlik ko'rsatishi, madrasalar barpo etishi, Samarqandda yirik astronomiya maktabiga asos solishining o'zi tarix oldidagi katta xizmatidir. Mirzo Ulug'bekning pedagogik qarashlarida o'zidan oldin o'tgan ulug' mutafakkirlar Beruniy, ibn Sino, Rudakiylarning sezilarli ta'siri borligi ko'rinadi. Masalan, Rudakiyning yosh avlod ta'lim tarbiyasida ota-onaning tutgan o'rniga bergan ahamiyati, ibn Sinoning bola tarbiyasi, uning sog'ligi, bola hayotida muallimning tutgan o'rnini, Beruniyning ta'limda ma'lumdan nom'lumga, oddiydan murakkabga o'tish haqidagi qarashlarini sinchiklab o'rganadi va madrasa hayotiga tatbiq etadi. «U insonda har bir ishni ado etishga qobiliyat mavjudligiga ishonadi,... fan va madaniyat taraqqiyotigina insonni aqliy va axloqiy kamolotga erishtirishiga ishonadi, bilimni faqat kitobdan emas, balki faoliyat orqali egallashi zarurligini, kashfiyot, yangiliklar ochish inson uchun oliy fazilat ekanligini aytadi.» [144.173]

*o‘z o‘rnida bu fikrlar MTT tizimida ham katta ahamiyatga ega, tatbiq etilganda o‘z natijasini uzok kutdirmaydi, erkin faoliyat bola hayotida muhim ekanligini yana bir dalilidir. Ayniqsa bilimni faoliyat bilan egallash haqidagi fikrlar, tarbiyalanuvchilarning tajriba sinov ishlarida olgan bilimlarini hayotga, faoliyatga tatbiq etishlarida yaqqol ko‘rinadi.* “Ulug‘bek o‘z atrofiga davrning yirik, ilg‘or fikrli ziyoli, olimlarini to‘plab, ulardan madrasada mashg‘ulotlarni yuqori saviyada o‘tkazishni talab etadi...” [144.174]. Ulug‘bek davridagi bu ta‘limotlar asosida ta‘lim-tarbiya olgan uning zamondoshlari faoliyatida yaqqol ko‘zga tashlanadigan xususiyatlar, asrlar davomida o‘z mohiyatini yo‘qotmay kelyapti. Mirzo Ulug‘bekning ta‘lim tarbiya haqidagi fikr-g‘oyalari, uning o‘lmas asarlari hozirgi davrda yosh avlod tarbiyasi uchun ham nixoyatda katta ahamiyatga egadir

Butun turk dunyosi Alisher Navoiyni «shams ul-millat» — millat quyoshi deb hamma davrlarda e‘zoz bilan tilga oladi. Alisher Navoiyning ta‘lim tarbiya haqidagi fikrlari, o‘zidan oldin ijod qilgan Abu Nasr Frobiy, ibn Sino, Beruniy, Mirzo Ulug‘beklarning g‘oyasini davom ettiradi va o‘z asarlari bilan boyitadi. “U bolaning voyaga yetishida, kamol topishida tarbiyaning kuch qudratiga alohida e‘tibor beradi. Tarbiya natijasida bolaning foydali va yetuk kishi bo‘lib o‘shishiga ishonadi” [144.178]. Navoiyning fikricha insonni voyaga yetkazishda asosiy omil ta‘lim va tarbiya ekanligini qayta qayta asarlarida ta‘kidlaydi. “Alisher Navoiyning insonga muhabbati vatanga muhabbati bilan bog‘langan. Navoiy el-yurtning obod, farofon, mustaqil bo‘lishini va unda insonlarning do‘st-yor, ahil, hur yashashini istaydi. Navoiy odamlarni vatanni sevishga da‘vat etadi,...” [144.182]. “Adab – kichik yoshdagilarni kattalar duosiga sazovor etadi va duo barakati bilan umrdan bahramand qiladi. Adab kichiklar mehrini ulug‘lar ko‘ngliga soladi va u muhabbat ko‘ngilda abadiy qoladi; yoshlarni ko‘zga ulug‘ ko‘rsatadi, ularning yurish turishini xalq ulug‘vor biladi: odamlar tomonidan bo‘ladigan hurmatsizlik eshigini bekitadi, bog‘laydi va kishini hazil-mazaxdan va kamsitilishdan saqlaydi, kishi tabiatini insonlik yo‘liga soladi va odam mijoziga odamgarchilik manzilida orom beradi; kichiklarga undan muncha natija hosil bo‘lgach, kattalarga allaqancha bo‘lishini ko‘rarsan...” [Mahbubul qulub, 43 b] ta‘lim-tarbiya va insoniylik fazilatlarini, go‘zal xulq egasi bo‘lish haqida Alisher Navoiy o‘z asarlarida yaqqol yorib bergan. O‘z navbatida Alisher Navoiyning ta‘lim tarbiyaga oid qarashlarini hozirgi zamon maktabgacha ta‘lim tizimiga olib kirish, tadbqiq qilish foydadan xoli bo‘lmas edi... Jumladan hayoti davomida turli soha olimlariga homiylik qilib, o‘nlab ilmiy risolalar bitilishiga bevosita sababchi bo‘lgan. Uning quyidagi so‘zlari ta‘lim tarbiyaning asoslaridan biridir.

“Boshni fido ayla ato qoshig‘a,  
Jismni qil sadqa ano boshig‘a...

Tun-kunungga aylagil nur fosh,

Birini oy angla, birisin quyosh”[95. 7 b], - “Tarbiyaning yana biri ota-onani hurmat qilishdir; buni bajarish uning uchun majburiyatdir. Bu ikkisiga xizmatni birdek qil, xizimating qancha ortiq bo‘lsa ham, kam deb bil. Otangni oldida boshingni fido qilib, onang boshi uchun butun jismingni sadaqa qilsang arziydi! Ikki dunyong obod bo‘lishini istasang, shu ikki odamning roziligini ol!”[95.262] *haqiqatda ham ota-onani hurmatini o‘z joyiga qo‘yish, farzandlik burchini to‘la to‘kis ado etish yuksak axloqiy fazilatlar sirasiga kiradi, va uni aynan ilk yoshdan boshlab, bola shuuriga singdirish lozimdir.*

Zahiriddin Muhammad Bobur O‘rta asr Sharq madaniyati, adabiyoti va she‘riyatida o‘ziga xos o‘rin egallagan adib, shoir, olim bo‘lish bilan birga yirik davlat arbobi va sarkarda hamdir. Mirzo Bobur o‘z ajdodlariga katta hurmatda bo‘lgan shohlardan sanaladi. Bobur Vatan sog‘inchining eng yorqin timsolidir. Bobur farzandlarining adabiyotga oshno bo‘lishini juda-juda istardi. O‘z ijodi namunalaridan ularni ham xabardor qilib turgan. Shundanmi, Mirzo Xumoyun vaqti-vaqti bilan she‘rlar mashq qilgan, Gulbadan Begim esa otasi kabi xassos, shoir tabiat qalb egasi bo‘lib voyaga yetgan va uning ham tarixiy asarlari asosida bir qancha asarlar yozilgan. Bobur Mirzoning qisqa umri, asosan, jangu jadallar ichida o‘tmaganida, ehtimol, u buyuk adib sifatida o‘zbek va qolaversa jahon sh‘riyatini yangi, qo‘l yetmas, ko‘z ilg‘amas cho‘qqisiga olib chiqqan bo‘lardi! Uning qalamiga mansub “Boburnoma”ga e‘tibor qilsak, u o‘ziga nisbatan juda talabchan, mohir so‘z ustasi bo‘lganiga, har bir iborani o‘ta xassoslik bilan tanlaganiga ishonch hosil qilish mumkin. Mirzo Boburning Humoyun Mirzoga yozgan xatida ham ana shu talabchanlik sezilib turadi: “Xatingni xud har tavr qilib o‘qisa bo‘ladur, vale bu mug‘laq alfozingdin maqsud tamom mafkum bo‘lmaydur. G‘olibo xat biturda qohillig‘ing ham ushbu jixattandur. Takalluf qilay deysan, ul jihattin mug‘laq bo‘ladur. Bundin nari betakalluf va ravshan va pok alfoz bila biti: ham sanga tashvish ozroq bo‘lur va o‘quvchig‘a”[69.113].

Bobur Mirzoning adiblikka bo‘lgan mehri va ishtiyoqini qizi Gulbadan Begim keyinchalik o‘zida yorqin mujassam etganini ko‘rganida edi, Mirzo Bobur bundan cheksiz hayratga tushgan va albatta, mamnun bo‘lgan bo‘lardi. Gulbadan begim o‘z asarlarida akasi Humoyun kabi ortiqcha takalluflarga berilmagan[104.35].

Fanda “Iste‘dod meros bo‘lib o‘tmaydi” degan aqida mavjud. Lekin Amir Temurning ulug‘ iste‘dodi kichik o‘g‘li Shohruh mirzo orqali Ulug‘bekka o‘tganligi, uning o‘rtancha o‘g‘li Mironshoh esa otasining o‘lmas dahosini chevarasi Mirzo Boburga yetkazib berganligi tarixda o‘z tasdig‘ini topgan. O‘z o‘rnida yana shuni ham aytish mumkinki, Amir Temurning ulug‘ davlat arbobi va yengilmas sarkarda sifatidagi iste‘dodi ikki asrdan so‘ng, Bobur Mirzoning

nabirasi Akbar shohda yangi bir shaklda qayta tirilgani sharqning barcha mashhur tarixchilari tomonidan e'tirof etilgan. Akbar shoxning me'mor sifatidagi iste'dodi esa uning nevarasi Xurram shoh (tarixda Shohjahon nomi bilan mashhur)da yanada baland bosqichga ko'tarilgani ko'rishimiz mumkin. Bu sulola vakillari umrboqiylik bilan hayratomuz mo'jizalar yaratganiniga tarix guvoh.

Mashhur Hind adibi Javoharlal Neruning ingliz mustamlakachilari qamoqxonalaridan qizi Indira Gandiga yozgan maktublarida Akbar Hindistonni birlashtirgan va hind millatiga ota bo'lgan ulug' siymolar qatorida tilga olinadi. "Faqat shohlik martabasidan bo'lak hech vaqosi bo'lmagan behisob ko'p tojdorlar orasida Akbarning chinakkam mardona qiyofasi yuksakka bo'y cho'zib, haligacha bizni qoyil qilib kelayotgani hayron qolarli hol emasmi!"[121.3] -deb yozadi Javoharlal Neru.

Bu ulug' sulolaning sarzamini bizning qadim Turkistondir. Bu sulola vakillari har doim o'zlarining Amir Temur avlodidan bo'lgan temuriy zoda ekanliklaridan faxr, iftixor qilganlar. Shu o'rinda 1405 yilda vafot etgan Sohibqiron Amir Temurning qilichi 1605 yilda Akbarning o'g'li Salim tarixda Jahongir nomi bilan ga yetib kelguncha rosa ikki yuz yil vaqt o'tgan. Bu ikki asrning dahshatli to'polonlarida bobokalonlarining qilichini asrab-avaylab, avloddan avlodga yetkazib kelgan Mirzo Bobur va uning o'g'ili nevaralaridir. Bu ham o'z navbatida ajdodlariga bo'lgan chuqur hurmat va ehtirom ramzidir. Har safar qilichni yangi sohibiga topshirishdan oldin – "Bu qilich bobokalonimiz Amir Temurga tegishli, albatta, uni adolat uchun bo'layotgan janglarda taqing, shunda sizga zafar olib kelgay, qilichni asrab avaylang va kelgusi avlodlarga meros qoldiring"[121.124] deb, vasiyat qilishgan. "Boburnoma" tarixiy manba bo'lishi bilan birga, o'zbek adabiyotining qimmatli yodgorligi va o'zbek adabiy tilining yorqin namunasi hamdir. Asarning yetakchi shaxsi Boburning o'zi bo'lib, u asarning boshidan to oxirigacha tarixiy voqealarni bayon etuvchi, voqealarning ishtirokchisi bo'lib gavidalanadi. Mirzo Boburning ibratga loyiq hayot yo'li, vatan tarannumi bilan to'liq ijodiy merosini kerakli o'rinlarda maktabgacha ta'lim tizimida keng targ'ib qilish bolalarda milliy g'urur, faxr, iftixor hislarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu o'rinda mamlakatimiz prezidenti Sh.Mirziyoevning "Ma'lumki, tarixda xalqimiz orasida ko'plab sarkardalar yetishib chiqqan. Ana shunday mard va fidoyi ajdodlarimizning harbiy sohadagi boy merosi, mardlik va jasurlik fazilatlari yoshlarimiz uchun ibrat maktabi bo'lib xizmat qilsin" [12.534] degan fikrlari dasturi amal bo'lib xizmat qilsin.

### **Birinchi bob buyicha xulosa.**

Tadqiqotimiz doirasida tarbiyalanuvchilarning milliy g'urur hissini shakllantirishda maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi faoliyatlarda Alisher

Navoiyning bolaligidan zukkoligi, yozgan asarlari, qilgan xayriya ishlari, ibratli hayot yo‘li, odilligi, saxovatpeshaligi, tarix tamadduniga qo‘shgan hissasi haqidagi rivoyatlardan foydalanish, matematika mashg‘ulotlarida Abu Rayhon Beruniyning bolaligi haqida, aniq fanlarga qo‘shgan, fanlar, qobusiy olim sifatida qo‘shgan hissasi haqidagi hikoyalar bilan tanishtirish, uni O‘rta Osiyoda yetishib chiqqan buyuk mutaffakkir ekanligi, bolalarning tadqiqiy faoliyatida (atrofdagi olamni anglash), tabiat bilan tanishuv faoliyatlarida esa Abu Ali ibn Sinoning tabobat ilmiga qo‘shgan hissasi, tibbiyot ilmida tutgan o‘rni, o‘simliklar tarkibini, shifobaxshligini o‘rgangani va insonlarni davolash uchun ulardan qo‘llanganligi, tabobat ilmining o‘ziga xosligi, va buyuk tabib haqidagi rivoyatlar bilan tanishtirish, bolalarning erkin, mustaqil va o‘yin, jismoniy madaniyat faoliyatlarida yurtimizda yetishib chiqqan buyuk sarkardalar Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Amir Temur, Muqanna, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi mahoratli, shijoatli, Vatanga sodiq, lashkarboshilarning yoshligi hayot yo‘li va Vatan sarhadlarini kengaytirish va xalqini himoya qilish, haqidagi voqea hikoyalarni so‘zlab berish, bolalarni turli xildagi rang tasvirlari va ko‘rgazmali materiallar, devoriy gazetalar bilan tanishtirishda o‘z navbatida Kamoliddin Behzodning bu sohaga qo‘shgan hissasi haqidagi rivoyatlar va san‘at asarlari bilan tanishtirish yuqoridagi fikrlarni tasdiqlash imkonini beradi. Milliy o‘zlikni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o‘rganish, tarixda o‘chmas iz qoldirgan buyuk mutafakkirlarning boy merosidan maktabgacha ta‘lim yoshidagi bolalar ta‘lim tarbiyasida unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. O‘z o‘rnida o‘tmishda yurtimizda yashab ijod qilgan allomalar, mutafakkirlar haqidagi qichik hikoyalar, rivoyatlarni to‘plashni, maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar faoliyat markazlarida qo‘llashdan boshlash kerak. O‘z o‘tmishini bilmagan va e‘zozlamagan xalqning kelajagi yo‘q. Tarix, o‘tmish allaqachon ko‘z o‘ngimizdan olishlashgan, tarix mulkiga aylangan davr bo‘lsada, ammo ahamiyati hech yo‘qolmaydigan madaniyatimiz, ma‘naviyatimizning tub ma‘nodagi asosi ekanligini bolalarga tarixiy voqea, hikoya, rivoyatlarni so‘zlab berish orqali yetkaziladi. O‘zbek xalqining yuksak milliy madaniy qadr-qimmat, or-nomusi va shon-sharafi uning mehribonligi, mehmondo‘stligi, vatanparvarligi, halolligi va sof vijdonligiga asoslangandir. Fikrimizcha, maktabgacha yoshdagi bola rivojlanish jarayonida buyuk siymolar tomonidan yaratilgan turli asar, ijodiy me‘ros, narsa va hodisalar, olam sir-sinoatlari bilan alohida munosabatga kirishadi. Ular buyuk siymolarning qo‘lga kiritilgan yutuqlarni faol o‘zlashtirib, egallab boradi. bolada narsa-hodisalar olami, ular yordamida amalga oshiriladigan xatti-harakatlar, ona tili va odamlar orasidagi munosabatlarni anglash, ayni zamonda faoliyat motivlarining rivojlanishi, qobiliyatlarning o‘zlashtirish borishi kattalarning bevosita yordami asosida amalga oshadi. Bu oilada ota-ona, maktabgacha ta‘lim

tashkilotlarida esa tarbiyachilar ko‘magida yuz beradi. Asosan mana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyati kuchaya boshlaydi. Faoliyatdagi mustaqillik, o‘z-o‘zidan tafakkurdagi mustaqillikka asos bo‘ladi. Mustaqillikka erishganimizdan keyin farzandlarimizni o‘zbek xalqining boy milliy, ma‘naviy qadriyatlari, urf-odatlari, dini, Sahih Hadis durdonalari asosida tarbiyalash imkoniyati kengaydi. Tadqiqot muammosi yuzasidan olib borilgan tahlillar natijasida birinchi bob yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi:

MTT tizimida milliy g‘urur, faxr, iftixor hissi tarbiyasi bilan bog‘lik ijod namunalariga nisbatan kam o‘rin ajratilgan.

“Ilk qadam” Davlat o‘quv dasturida buyuk siymolar ijodi misolida milliy g‘urur hissini tarbiyalash usul va metodlari chuqur yoritilmagan.

Bolalarda buyuk siymolar ijodi asarlaridan olgan saboqlarini hayotga tatbiq etish, aynan milliy g‘urur hissini shakllantirishga oid ko‘nikma va malakalarini shakllantirish yaxshi yo‘lga qo‘yilmagan.

MTT o‘quv dasturining tahliliy natijalari milliy g‘ururni hissini shakllantirishga xizmat qiluvchi buyuk siymolar ijodi janrlaridan ko‘proq kiritish zarurligini ko‘rsatadi.

Oila - MTT - mahalla o‘rtasidagi hamkorlikda milliy g‘urur hissini shakllantirishga doir pedagogik shart-sharoitlar yaratilmagan.


Ota-onalar uchun oilada buyuk siymolar ijodi bilan tanishtirish asosida bolalarda milliy g‘urur hissini tarbiyalash yuzasidan metodik tavsiyanomalar ishlab chiqilmagan.

Mazkur xulosalar buyuk siymolarning ijodi asosida bolalarda milliy g‘urur hissini tarbiyalash mezonlarini ishlab chiqish, milliy g‘urur hissini tarbiyalashning pedagogik shart-sharoitlari, bor metodlarini takomillashtirish, vazifalarni bizning oldimizga qo‘ydi. Mustaqillikni saqlab qolish, ko‘p millatli yurtimizda tinchlikni barqaror qilish, millat, elatlarni birlashtirish va jiplashtirishga, ularda o‘z tarixi, madaniyati, ma‘naviyatiga, turmush tarziga hurmat-extirom, e‘tibor bilan qarashga ko‘mak beradigan, milliy ong, milliy qiyofani, milliy g‘oya, milliy g‘urur hissini shakllantirish, qaror toptirishga ta’sir qiladigan milliy an’analarini asrab, avaylash va kelgusi avlodlarga shikastsiz yetkazish juda katta ahamiyatga ega. Zotan bu ajdoddan avlodga qolib kelayotgan ona tilimiz, milliy qadriyatlarimiz, urf, odatlarimiz bizga meros emas balki omonatdir. Omonatni ko‘z qorachig‘iday asrab avaylab xiyonat qilmay avlodlarga yetkazish mashaqqati har bir millat a’zosi uchun burchdir.

## **II BOB. BUYUK SIYMOLAR BILAN TANISH TIRISH ORQALI BOLALARDA MILLIY G'URUR HISSINI SHAKLLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH**

### **2.1. Buyuk siymolar tanishtirish orqali bolalarda milliy g'urur hissini shakllantirishning tashkiliy pedagogik shart-sharoitlari.**

Milliy g'urur hissi – insonning o'zi tug'ilib o'sgan yurtining tarixini, madaniyati, ona tilini, milliy, umuminsoniy qadriyatlarini bilish, ajdoddan avlodga meros bo'lib kelayotgan urf odatlarni saqlab qolish va uni kelajak avlodlarga asrab avaylab yetkazish, millat va vatan taraqqiyotiga xizmat qilish demakdir. Bolalar shaxsida hallolik, sadoqat, vijdoniylik, insoniylik, vatanparvarlik, axloqiy fazilatlar, or-nomuslilik, yaqinlariga mehribon g'amxo'r bo'lish kabi fazilatlar o'z-o'zidan paydo bo'lib qolmaydi. Bunday fazilatlarni shakllantirish omillarini aniqlash va metodlarini qayta ishlash, takomillashtirish hozirgi pedagog olimlar oldiga qo'ygan dolzarb muammolardandir. Biz tadqiqotimiz doirasida MTT katta va tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilari uchun milliy g'urur hissini tarbiyalashga xizmat qiluvchi yondashuvning quyidagi turlarga bo'ldik bular: tizimli, erkin faoliyatli; muammoli-maqсадli; ma'naviy; akseologik; shaxsga yo'naltirilganlik kabilarga. Tadqiqotimizda tizimli yondashuv – oddiydan murakkabga qarab borish yetakchi rol o'ynaydi. Bulardan foydalanishda keltirilgan komponentlarning: tarbiyachilar va ota-onalar bilan hamkorlikda olib boradigan ta'lim-tarbiya mazmuni, shakli va metodlarini bolalarning ta'lim tarbiya jarayonida bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lgan yaxlit ijtimoiy pedagogik tizim ekanligiga alohida ahamiyat berdik. Tizimning har bir komponenti aniq bir rol ni bajaradi. Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qiluvchi tarbiyachi va bolalarni tarbiyalovchi komponentlarning asosiylari bo'lib hisoblanadi. Tadqiqotimiz doirasida MTT ta'lim tizimida katta va tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilari milliy g'urur hissini tarbiyalashda muvaffaqiyatli qo'llangan tizimli ketma-ketlik, erkin faoliyatli, mazmunli, maqsadli, tashkiliy va individual shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Shu o'rinda MTT katta va tayyorlov guruhi bolalarida milliy g'urur hissini tarbiyalashga doir asosiy metodologik yondashuvlarga to'xtalib o'tamiz.(4-rasm)



#### **2.1.4-rasm. Tarbiyalanuvchilarda milliy g‘urur hissini shakllantirishning metodologik yondashuvi**

**Tizimli ketma-ketlik:** oddiydan murakkabga, egallangan bilimlardan yangi bilimlarga asta sekinlik bilan o‘tish.

**Erkin faoliyatli yondashuv.** Tarbiyaga erkin faoliyatli yondashuv mazmunida tarbiyachi va tarbiyalanuvchi tarbiya ob‘ektga aylantirishi, uning asosiy mazmuni - bolalarning oldiga quygan maqsadlarini amalga oshirish uchun zaruriy shart-sharoitlardan foydalangan, o‘yin faoliyatiga ko‘proq e‘tibor bergan holda erkin harakatlana olishi.

**Shaxsga yunaltirilgan yondashuv.** Har bir bolaning betakrorligi, yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda bolani tarbiya jarayonining faol sub‘ekti sifatida tan olishga asoslanadi. Buda bolaning jismoniy-fiziologik, psixologik, ma‘naviy kamoloti milliy g‘urur hissini tarbiyalashga asos bo‘lib xizmat qiladi.

**Mazmunli yondashuv.** Mazkur yondashuv MTT ta‘lim-tarbiya jarayonida tarbiyachi tomonidan milliy g‘urur hissini tizimli tanishtirishda foydalaniladi.

**Maqsadli yondashuv.** Bu yondashuv MTT tarbiyalanuvchilarida milliy g‘urur hissini tarbiyalashda bolalar jamoasi oldiga qo‘yilgan vatanparvarlik, milliy qadriyatlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, buyuk siymolar bilan tanishtirish orqali tanishtirish orqali tarbiyalash maqsadini amalga oshirish.

**Ma‘naviy yondashuv.** Bu yondashuv tarbiyalanuvchilarda milliy g‘urur hissini tarbiyalashda ma‘naviy bilimlar bilan bolalarni qurollantirish va inson hayoti, faoliyatining ma‘nosiga aylantirishni nazarda tutadi.

Shu o‘rinda pedagog tarbiyachi va ota-onalarning hamkorlikdagi pedagogik madaniyati va ma‘naviyati; bolalarda milliy g‘urur hissini tarbiyalanganlik darajasini aniqlash uchun maxsus pedagogik metodlardan foydalanish yaxshi samarali natijalar beradi. Biz tadqiqotimiz doirasida MTT katta va tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida milliy g‘urur hissini tarbiyalash murakkab tizimli, pedagogik va psixologik elementlardan tuzilgan deb qaraymiz. Bu tizim yadrosining mazmuni MTT katta va tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida milliy g‘urur hissini buyuk siymolar bilan tanishtirish orqali tarbiyalash bilan xarakterlanadi. Yuqoridagilardan kelib chiqib, tadqiqotimiz natijasi MTT katta va tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida milliy g‘urur hissini tarbiyalash tizimini modellashtirish

komponentlarining optimal tarkibini aniqlash imkoniyatini beradi: maqsadli, sub'ekt ob'ekt, mazmunli, protsessual-kommunikativ, diagnostik-natijali, refleksiv-boshqaruvli va boshqalar. "Modellashtirish tadqiqotchilik faoliyatining yaxlit turkumini aks ettirishga xizmat qiladi. Tadqiqotchi turkum mohiyatini sinchiklab o'rganib chiqadi. Zero, u yakuniy model sifatida nazariyani xulosa va g'oyalar bilan boyitadi. Demak, modellashtirish tanlangan ob'ekt turkum ko'rinishida tasavvur etishga imkon beradi"[176]

Demak, Model [fr. Modele <lot. Modulus – o'lchov, me'yor] biror narsaning xuddi o'zidek yoki kichraytirib, kattalashtirib olingan, ko'plab ishlab chiqarish uchun andoza bo'ladigan nusxasi hisoblanadi.

Modellashtirish bilish ob'ektining har xil modellarni yaratish va undan ilmiy ijodda foydalanish imkonini beruvchi ilmiy metoddir. Modellashtirish metodida ob'ekt o'rniga uning modeli o'rganiladi.

Tarbiyanuvchilarda buyuk siymolar orqali milliy g'urur hissini shakllantirish tizimini takomillashtirish jarayonlarini modellashtirishni tarbiyalanuvchilarda buyuk siymolar bilan tanishish orqali milliy g'urur hissini shakllantirishga tayyorlash maqsadidagi tayyorgarligi va milliy g'urur hissini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan talablar asosida ishlab chiqilgan, ilg'or metodlardan foydalanish bosqichlari va funksiyalari hamda qayta aloqaning ta'minlanishi aks ettirilgan andoza deb tavsiflash mumkin.

Tarbiyalanuvchilarda buyuk siymolar orqali milliy g'urur hissini shakllantirish tizimini takomillashtirish jarayonlari modelini ta'lim-tarbiya jarayonlarining barcha shakllarini o'zaro bog'liqligini ta'minlovchi, belgilangan maqsad va vazifalarning yo'nalishini ifodalovchi va ko'zlangan natijalarga erishishni ta'minlovchi o'zaro bog'liq bo'lgan va bir-birini o'zaro to'ldiruvchi komponentlardan iborat bo'lgan modelni tasvirlash mumkin, buni quyidagi 2.1.5-rasmda o'z ifodasini topgan, bunda Buyuk siymolar bilan tanishtirish orqali bolalarda milliy g'urur hissini shakllantirish modeli, maqsad vazifa, tamoyillari

Buyuk siymolar bilan tanishtirish orqali bolalarda milliy g'urur hissini shakllantirish modeli

Vazifalar

Buyuk siymolarga bag'ishlangan videoroliklar yaratish, ularning faoliyatiga bag'ishlangan ijodiy kechalar o'tkazish

Buyuk siymolar haqidagi badiiy adabiyotlar bilan tanishtirish ularning ijodiga bag'ishlangan bellashuvlar o'tkazish Ajdodlarni eslash, xotirlashga bag'ishlangan

Ajdodlardan meros ma'naviy yodgorliklarni ziyorat qilish, turli naminatsiyalar bo'yicha tanlovlar tashkil etish

Pedagogik shart-sharoitlar

qayta aloqa

Ta'lim-tarbiya jarayonlarini tashkil etishga tizimli yondashuv

Ajdodlarni eslash, xotiralash, ibrat, namuna ko'rsatish, ma'naviy ma'rifiy ishlarni tashkil qilish

O'zlikni anglash, milliy urf odatlar, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, moddiy va ma'naviy me'ros, xalq og'zaki ijodi (rivoyat, ertak, afsona...)

Shaxsiy sifatlar, Vatandashlik, mehnatsevarlik, fidoyilik, mehnatsevarlik, cadoqat, xushmuomalalilikni tarbiyalash

Pedagogik ta'minot

shakllar

metod

vosita

Seminar treninglar, ekskursiya, davra suhbatlari, tadbirlar tashkil qilish

So'zlab berish, kuzatish, tushintirish, taqqoslash, tanqidiy fikrlash, "aqliy hujum", "qor to'pi". "Uchinchisi ortiqcha"

Qadimiy obidalar, muzeylar, minatyuralar, albomlar, ko'rgazmalar, stol teatri, videotasma, audiotasmalar

Nazorat

MTT mashg'ulot jarayonlarining natijaviyligini aniqlash va takomillashtirish yo'nalishlarini belgilash

Milliy g'urur hissini shakllantirish yo'nalishida bajariladigan vazifalar bilan foydalaniladigan metodlar va yondashuvlarni munofiqashtirish va samaradorligini aniqlash

Bolalarda milliy g'urur hissini shakllanishi

### **2.1.5-rasm. Buyuk siymolar orqali bolalarda milliy g‘urur hissini shakllantirish tizimini takomillashtirish modeli**

Mazkur modelni tarbiyalanuvchilarda buyuk siymolar orqali milliy g‘urur hissini shakllantirish jarayonlarini tashkil etish tizimi sifatida qarash mumkin. Model ta‘lim-tarbiya jarayonlarining barcha shakllarini o‘zaro bog‘liqligini ta‘minlovchi, belgilangan maqsad va vazifalarning mazmun va mohiyatini ifodalovchi va ko‘zlangan natijalarga erishishni ta‘minlovchi o‘zaro intratsiyalangan va bir-birini o‘zaro to‘ldiruvchi komponentlardan iborat bo‘lgan jarayon sifatida tasvirlanganligi. Ushbu modelda keltirilgan komponentlarning har biri tarbiyalanuvchilarda buyuk siymolar orqali milliy g‘urur hissini shakllantirish va rivojlantirish tizimi komponentlari sifatida butun bir tizimni o‘zgarishiga o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi.

Maqsadli komponent o‘z ichiga MTT katta va tayyorlov guruhlarida milliy g‘urur hissini tarbiyalashning tizimli bir shaklda, tarbiya tizimining yetakchi g‘oyalari buyuk siymolarning ma‘naviy merosidan tuzilishi, bolalar shaxsida milliy g‘urur hissini tarbiyalash maqsadiga yo‘naltirilgan vazifalarni o‘z ichiga oladi: MTT katta va tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida milliy g‘urur hissini tarbiyalashga xizmat qiluvchi buyuk siymolar bilan tanishtirish orqali, tarbiyaga yagona yondashuvni ishlab chiqish; bolalarning milliy g‘urur hissini shakllanishidagi hatti-harakatlariga asoslanish, ularni faollashtirishga bo‘lgan ehtiyojlarini nazarda tutadi. O‘z o‘rnida, milliy g‘urur hissini tarbiyalash metodikasini takomillashtirishda uning asosiy mezonlari: MTT katta va tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarining “Milliy g‘urur, faxr, iftixor”, “Ajdodlarning ma‘naviy merosi”, “Vatanga sadoqat”, “Millatlararo hamjihatlik, umumisoniy qadriyatlar”, “Ona tiliga muhabbat”, “Vatanparvarlik, insonparvarlik”, “Ota-onaga hurmat va ehtirom izhor eta olish”, “Millat mafaatini o‘z manfaatidan yuqori qo‘yish” tushunchalariga ega bo‘lish.

Sanab o‘tilgan har bir mezonlari maqsadli aniq faoliyatga yo‘naltirilgan. Shu o‘rinda MTT katta va tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida milliy g‘urur hissini tarbiyalash quyidagi vazifalarni o‘z ichiga oladi:

- bolalarni vatanparvarlik tamoyillari asosida tarbiyalash;
- milliy g‘urur hissini tarbiyalashda buyuk siymolar ma‘naviy merosidan foydalanish;
- milliy qadriyatlar, oilaviy an‘analardan foydalanish;
- milliy g‘urur hissi va faxr, iftixor tuyg‘ularini namoyish eta olish uchun sharoit yaratish;
- bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olish;

Milliy g‘urur hissini tarbiyalash tarbiyachidan shaxsiy namunani talab etish bilan birga ularda mehribonlik, yuksak ma‘naviy tafakkur, ahloqiy fazilatlar,

bilimlilik, to'g'riso'zlik, insonparvarlik, kommunikativlik, tolerantlik, bolalarga muhabbat, faollik kabi shaxsiy sifatlarni talab etadi.

Milliy g'urur hissini buyuk siymolar bilan tanishtirish orqali tarbiyalash jarayonlarini takomillashtirish maqsadida biz tomonimizdan "Ajdodlarga munosib avlod" nomli dastur ishlab chiqildi. Dastur uch yo'nalishni o'z ichiga oladi.

Dasturning birinchi yo'nalishini "Ajdodlardan meros - Vatan" deb nomladik. Bundan maqsad, yurtimizning tarixiy shaharlari haqida ma'lumot beruvchi video rolik namoyish etish, ikkinchidan, video rolikda shaharlar tasviri navbat bilan berib boriladi. Video rolik izohsiz bo'lib, izoh bolalar tomonidan berib boriladi, o'z navbatida tarbiyachi ekspert vazifasida bolalarni rag'batlantirib, ularni mativlashtirib boradi. Video roliklarni ko'rgan bolalar ularni ko'rib, xotirasiga saqlab hikoya qilishga, mustaqil fikrlashga, shaharlar haqidagi tasavvurlarini rivojlantirishga, boyitishga, shaharlarning tarixini eslab qolishga amaliy yordam beradi.

Dasturning ikkinchi yo'nalishini "Ona yurtim daholari" deb nomladik. Ushbu yo'nalishda buyuk siymolar haqidagi video rolik namoyish etiladi, har bir alloma haqida alohida video rolik tayyorlanadi, va allomaning asosiy xususiyatlari, bolalik davri, namunali ishlari, Vatan va el yurt dovrug'ini olamga taratgan faoliyat turlari haqida hikoya qilinadi. Bunda asosiy e'tibor bolalarni o'z yurtida yetishib chiqqan buyuk siymolar bilan tanishishiga va ularning hayot yo'li, namunali ishlari haqida bilimga ega bo'lishiga qaratiladi.

Dasturning uchinchi yo'nalishda "Ajdodlarga munosib avlod" deb nomlangan variativ dastur o'rin olgan bo'lib, ushbu dasturning maqsadi maktabgacha yoshdagi bolalarni buyuk siymolar, milliy va umuminsoniy qadriyatlar, milliy madaniyat va san'at namoyondalari bilan tanishtirish, ularni intellektual rivojlantirish, bolalarda yuqori ma'naviy va odob axloq asoslarini shakllantirish, ularda Vatanga muhabbat hislarini uyg'otish, milliy urf - odat va an'analarga, bobolar me'rosiga hurmat-e'tiborini yanada oshirish, bolalarning jismoniy va ruhiy sog'lig'ini mustahkamlash, bolalar qalbida o'z yurtida yashab ijod qilgan allomalar hayotidan o'rnak olish, faxrlanish, g'ururlanish tuyg'usini shakllantirish va rivojlantirishdan iborat. Negaki milliy g'oya xalqimizning madaniyati, milliy qadriyatlari, urf-odatlarini, tili, san'ati va madaniyati hamda diniga asoslangan.


Dasturda belgilangan vazifalarni amalga oshirilishi maktabgacha ta'lim tashkilotlarida katta guruh va tayyorlov guruh bolalarini buyuk siymolar bilan tanishtirish, ularda milliy g'urur, iftixor, faxrlanish, milliy qadriyatlar va axloqli fazilatlar asosida ularni ma'naviy qiyofasini oshirish, oqilona tarbiyalash, xalqimizning azaliy an'anasiga, udumlariga sodiq bo'lishga oid ta'lim-tarbiya berish darajasini yuksalishiga zamin bo'lib xizmat qiladi. Dasturning asosiy

mazmuni quyidagi jadvalda yoritib beriladi. Ilovaga olindi.

Mazkur dasturdan buyuk siymolar bilan tanishtirish orqali bolalarda milliy g'urur hissini tarbiyalashga urg'u berishga, mativ bo'lishga ya'ni undashga yo'naltrilgan dastur bo'lib, unda buyuk siymolar haqida, bolalarning yosh xususiyatlaridan kelib chiqib to'plangan hikoya, rivoyat, qissalar va turli tadbir senariylari, she'r, qo'shiqlar, mashg'ulot ishlanmalari o'rin olgan. O'z navbatida asar qahramonlari xarakteridan kelib chiqqan holda sahnalashtirish va drammalashtirishga xizmat qiladigan qo'g'irchoqlar atrebutlar ham tayyorlandi. Dastur bilan ishlaganda ta'lim-tarbiyaning maqsadga qaratilganlik, tizimlilik, izchillik qoidalariga asoslanib bolalarning oldiga yangi vazifalar qo'yildi.

- ✓ Bolalarda milliy g'urur, faxr va iftixor tuyg'ulari haqida tushuncha berish;
- ✓ Bolalarda tolerantlik haqidagi tasavvurlarni shakllantirish;
- ✓ Bolalarni ijodkor, erkin va mustaqil fikrlovchi shaxs sifatida kamol toptirishga yo'naltirish.

Dasturni: hamkorlikdagi baxs-munozaralarda, suhbat, ahloqiy muammolar yechimida, erkin faoliyatda, rivojlantiruvchi markazlarda turli shakllarda amalga oshirish tavsiya etiladi. Dastur asosida ishlash MTT katta va tayyorlov guruhi bolalarida milliy g'urur hissini tarbiyalashning yangi takomillashgan usullarini mazmun mohiyatini yoritib berishga olib keladi. Tadqiqot ishimiz doirasida MTT katta va tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarida milliy g'urur hissini shakllantirish, ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashda madaniy-ma'rifiy tadbirlarni ko'paytirish an'anaviy shakl va metodlar bilan bir qatorda tarbiyaning yangi shakl va metodlaridan foydalanishni tavsiya etiladi. Bularga har xil mavzuga qaratilgan ijodiy kechalar, davra suhbatlari, debatlar, uchrashuvlar, bahs-munozaralar, ekskursiyalarni tashkil etish maqsadga muvoffiq sanaladi. Mazkur metodlardan foydalanish milliy g'urur hissini tarbiyalash tizimida fundamental asos bo'lib xizmat qiladi.(2.2.5-rasm)



**2.1.6-rasm. Buyuk siymolar bilan tanishtirish orqali milliy g'urur hissini shakllantirish jarayoni**

Ushbu tizim bolalarga buyuk siymolar bilan tanishtirish orqali milliy g'urur hissini tarbiyalashga urg'u berilgan ajdodlarning hayot yo'llari haqida, ularning

ijodiy me'rosidan hikoya qiluvchi qiziqarli ma'lumotlar berib borilishi bolalarda milliy g'urur, faxr, iftixor, vatanparvarlik, sadoqat, insoniylik hislarini shakllanishiga zamin bo'lib xizmat qiladi. Milliy g'urur hissini shakllantirishda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida olib boriladigan tadbirlar ham ijobiy samara beradi. Jumladan:

### **Namunaviy bayram ertaligi**

#### **1-mavzu: "Alisher Navoiy – she'riyat sultoni"**

Sahna bayramona bezatilgan. Sahnada Xusayn Boyqaro saroyi tasvirlangan. Taxtda Xusayn Boyqaro o'tiribdi. Mumtoz kuy yangraydi. Alisher Navoiy ta'zim bilan kirib keladi.

**Xusayn Bayqaro:** Do'stim Alisher, bugun nechun saroyni bayramona bezattiribsiz?

**Alisher Navoiy:** Ta'zim bilan "Sultonim bugun saroyda she'riyat bazmini tashkil etdim. Bugun kechaga san'atkoru, nazm kuychilarini, shogirdlarimni chaqirtirganman. Shoyad ko'nglingiz bir oz bo'lsa xam ko'tarilsa, qalblardan g'uborlar ketsa".

**Xusayn Bayqaro:** Do'stim Alisher! She'rxonlikni tashkil qilib juda yaxshi qilibsiz. Siz o'z ijodingizda insoniy mexr-shafqatni, insofni ulug'lab odamlarni do'stlikka undaysiz, go'zal fazilatlarni, ilmni, hunarni e'zozlaysiz. Sizdek do'stim borligidan faxrlanaman.

**Saroybon:** Nazm mulkinging sultonlari, san'atkorlar huzuringizga kirishiga ruxsat so'raydilar.

**Xusayn Bayqaro:** Ularni huzurimga taklif eting.

Mumtoz kuy yangraydi. Saroyga shoirlar, musiqachilar, musavvirlar, shogirdlar kirib keladilar.

A.Navoiy g'azal o'qiydi:

Boshni fido ayla ato qoshiga

Jismni qil sadqa ano boshig'a

Tunu-kunimga aylagali nurposh

Birisin oy angla, birisin quyosh

**Xusayn Bayqaro:** Ofarin Do'stim! Siz ota-onani oy va quyoshga o'xshatibsiz, ularni hurmat qilishga undayapsiz. Ofarin!

Alisher Navoiy g'azal o'qiydi:

San'atkorim, chalgin sozingni

Qalblardan g'uborlar ketsin

Orom olib kuy, qo'shiqlardan

Og'ir charchoq, chigal yozilsin

"Tanovar" kuyi chalinadi. Raqs ijro etiladi.

**K.Behzod** Alisher Navoiyga ta'zim qilib, o'zi chizgan suratlarni tutqazadi

va:

Porloq hayot sizga bo‘lsin dedingiz  
“Ustoz” desak doim labbay dedingiz  
Ijod urug‘ini sochib boshimizga  
Baxtli kunni sizlar ko‘ring dedingiz!

**Alisher Navoiy:** “Barakallo” deb suratni olib Xusayn Bayqaroga beradi.

**Xusayn Bayqaro:** “Ofarin”! deb chizilgan suratlarni o‘tirganlarga ko‘rsatib, joyiga o‘tiradi.

Navbat Alisher Navoiy shogirdlari yoniga keladi. (Bolalar hikmatlarni aytib izohlaydilar).

1- Bola: “Odamiy ersang demagil odami, oni kim yo‘q xalq g‘amidin g‘ami” (izoh aytiladi)

2- Bola: “Yaxshilikni bilmasang borib yaxshilarga qo‘shil deydilar” (izoh aytiladi)

3- Bola: “Xaq yo‘linda kim senga bir xarf o‘rgatmish ranj ila, aylamoq bo‘lmas ado oning xaqqin ming ganj ila” (izoh aytiladi)

4- Bola: “Bilmaganni so‘rab o‘rgangan olim, orlanib so‘ramagan o‘ziga zolim” (izoh aytiladi)

5- Bola: “Rostdir ulkim, nazari to‘g‘ridir, Kim iligu egridur ul o‘g‘ridur” (izoh aytiladi)

6- Bola: “Sabr ila ko‘p bog‘liq ish ochilur, ishda oshiqqan ko‘p toyilur” (izoh aytiladi)

7- Bola: “Xaloyiqqa ko‘rma qilib benavo, o‘ziga ravo ko‘rmaganni ravo” (izoh aytiladi)

8- Bola: G‘urbatda g‘arib shodmon bo‘lmas emish

El anga shafiqu mehribon bo‘lmas emish

Oltin qafas ichra gar qizil gul bitsa

Bulbulg‘a tikondek oshiyon bo‘lmas emish (izoh aytiladi)

**Xusayn Bayqaro:** Ofarin Alisher! Sizni ijodingizni daryoga o‘xshataman. Bu daryodan xalq baxramand bo‘lyapti. Shuning uchun siz xalqqa tanilib, donolarning-donosi bo‘lib qolgansiz. Bu kechada ancha ko‘nglim ko‘tarildi. Ammo ko‘nglim nimanidir qo‘msayapti, o‘zim ham bilolmayapman, deb xomushlanadi.

Alisher Navoiy shogirdlari bilan ta‘zim qilib chiqib ketishadi.

Xusayn Boykaro taxtda xomushlanib o‘tirib 3 marta qarsak chaladi. Vazirlarga “Dunyodagi eng yaxshi xushbo‘y hidni keltiring” – deb qoladi. Saroyga quchoq – quchoq gullar keltirishadi. Sulton: “Yo‘q” deydi. “Topsalaring topding, bo‘lmasa hammangni jazoga tortaman”.

Sahnada Alisher Navoiy ijod xonasi ko‘rinadi. Alisher Navoiy ijod qilib

o'tiribdi. Vazirlar kirib kelishadi. "Sultonimiz aytgan xushbo'y hidni topib bizni halokatdan saqlab qoling" – deyishadi.

Alisher Navoiy dehqon bobo oldiga keladi.

Dexqon bobo: "Yangi yopilgan nonni olib boringlar. Otam yangi yopilgan non hidi yoqimli der edilar" – deydi.

Alisher Navoiy xursand bo'lib bir savat non yoptirib saroyga olib boradi.

Xusayn Boyqaro: Rahmat, do'stim ko'nglim yangi yopilgan non isini qo'msayotgan edi, topib kelibsiz, ofarin.

Alisher Navoiy: Sultonim rahmatni dehqon boboga ayting, ko'nglingiz hohishini shu kishi topdi.

X. Boyqaro: bosh-oyoq sarpo keltiring!

Sho'x ashula kuy-qo'shiqlar yangraydi.

"Munojat" kuyi chalinib bolalar qo'llarini ko'ksiga qo'yib birin – ketin chiqib ketadilar.

Ta'lim-tarbiya ichidagi kup yillik izlanishlarimizga ko'ra maktabgacha ta'lim tizimida to'g'ridan to'g'ri milliy g'ururga oid bilim berishga qaratilgan ilmiy so'zlar o'rniga rivoyat, ertak, afsona, matal, tarixiy buyuk shaxslar hayoti asos bo'lgan xalq afsonalari Bolalarga tez va samarali ta'sir ko'rsatadi. Shu o'rinda buyuk siymolar, mutafakkirlarning bola tarbiyasi, kamolotidagi o'rni beqiyosdir.

Milliy g'urur ona suti, ota namunasi, avlod-ajdodlarning irsiy xususiyatlari, ahloq-odob mezonlari orqali farzandlar ongiga singdiriladi. Ona allasi fakat go'daklarning orom olishi uchun aytilmaydi. Allalar vositasida bolalar ko'ngil dunyosi milliy ma'naviy qadriyatlar bilan to'yintiriladi. Vatanga mehr-muhabbati avlod-ajdodlarga chin vorislik bilan bog'liq nasliy tuyg'ular, baxt-saodati bilan yo'g'rilgan porloq istiqbol orzusi allalarda o'zining yuksak ifodasini topgandir.

Farzandlar onalarning uzun tunlar aytgan allalari, rivoyat-ertaklari bilan birga buva-buvilarining o'gitlari, pand-nasixatlari asosida hayotga nazar tashlaydi. Yosh xususiyatlariga ko'ra, maktabgacha yoshdagi bolalar hikoya, ertak, maqol, rivoyat, doston, she'r, qo'shiq va masallarni yaxshi qabul qiladi. Allalarning mantiqiy davomi bo'lgan badiiy asarlar mutolasi tufayli ularning fikri o'sadi, dunyoqarashi kengayadi, hayotda nima yaxshi-yu nima yomonligi xususida dastlabki xulosalar shakllanadi.

Ertaklarning tarbiyaviy ahamiyati xususida professor N.Ortikov yozadi: "Ota-onalarning tunda uyqu oldidan aytib bergan ertaklaridan farzandlari ruhiy oziq olganlar, hayotdagi va odamlardagi yaxshi fazilat, yomon xususiyatlarni bilib olishgan, hurmat, muruvvat, adolat kabi tushunchalar haqida tasavvurga ega bo'lishgan. Natijada butun hayotlari davomida ertaklar ularning doimiy hamrohi, hayot darsligi bo'lib xizmat qilgan va hozir xam ana shunday"[177.85b]. Ayniqsa, vatanparvarlik qadriyatlariga doir jangovarlik ertaklarida asosiy mavzu elat va yurt

mudofaasi insonning kindik qoni tomgan muqaddas zamin oldidagi fuqarolik burchi, vatanparvarlik, sodiqlik, bilan bog‘liq holda talqin qilinadi. Ularda jangu jadallarga doir voqea-hodisalar tasviri milliy g‘urur va e‘tiqod, burch va mas‘uliyat tarbiyasiga xizmat qiladi. Xalq ertaklarining qahramoni dushmanni quvib yurtidan chiqib borar ekan, ona tuproqdan bir siqim olib: “O‘lsam kafanim bo‘lasan, o‘lmasam choponim bo‘lasan”, - deb cho‘ntagiga solib quyadi. Qalbida Vatan tuyg‘usi jo‘sh urgan bahodir siymosining ana shu shaklda aks etishi jangovarlik tipidagi ertaklarning o‘ziga xos xususiyatlarini belgilaydi.

Maktabgacha ta‘lim tizimida afsona, ertak rivoyatlarni yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda ta‘lim tarbiya jarayonida qo‘llash maqsadga muvofiqdir. O‘z navbatida bolalarga buyuk siymolarning vatanparvarlik, milliy g‘urur, milliy o‘zlik mavzularidagi ertak, rivoyat hikoyalardan foydalanish, tarixiy shaxslar haqida hikoya qiluvchi afsonalar; uchinchi - jangnoma tipidagi afsonalar yoki qahramonlik afsonalaridir. Bu xildagi asarlar maktabgacha yoshdagi bolalarni vatan, el-yurt ravnaqi yo‘lida mardlik va jasorat ko‘rsatishga ruhlantirish bilan muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

Shiroq va To‘maris, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur haqidagi afsonalar shular jumlasidandir. Mazkur afsonalarda Shiroqning Vatan daxlsizligi yo‘lidagi fidoiyligi To‘marisning dushmanga bo‘lgan kuchli nafrati, o‘g‘li Sparangizning ayanchli taqdiri, o‘z yurtiga bo‘lgan muhabbati uni dushmanga omonlik, shafqat qilmasligi, yoki Jaloliddin Manguberding dushmanga Vatanining bir qarich yerini bermaslik tuyg‘usi bolalarda kuchli tasurot qoldiradi. Hayotiy voqealar badiiy uydirmalar vositasida hikoya qilingan realistik xarakterdagi og‘zaki ijod turlaridan biri rivoyatlardir. Rivoyatlarda tarixiy voqealar va tarixiy buyuk shaxslar bilan bog‘liq bo‘lgan hodisalar, ularning ijtimoiy hayoti, maishiy turmush tarzi, geografik joylar - sahro, ko‘l, cho‘l, dengiz, shahar, qishloq, qal‘a, saroy va boshqalarning barpo bo‘lishi hamda vayron qilinishiga oid voqealar talqini turadi, o‘z navbatida bolalarni ruhlantiradigan, ularni vatanparvarlik, milliy g‘urur hissini shakllanishiga xizmat qiladigan jarayondir. Rivoyatlarda xalqimizning aql va tadbirkorligi, vafo, yaxshilik va odamiylik kabi ilg‘or g‘oyalarida jamiyatda uchragan adolatsizlik, zo‘rluk, xaqsizlik va adovat, baxillik va jabr-sitamlar chiroyli badiiy tildan hikoya qilinadi, o‘z navbatida bolalar shuurida to‘g‘ri talqinni shakllantirib beradi. Farzandlar onalarining uzun tunlar aytgan allalari, rivoyat-ertaklari bilan birga buva-buvilarining pand-nasihatlari asosida hayotga qadam tashlaydi. Yosh xususiyatlariga ko‘ra, maktabgacha yoshdagi bolalar hikoya, ertak, maqol, rivoyat, doston, she‘r, qo‘shiq va masallarni yaxshi qabul qiladi. Allalarning mantiqiy davomi bo‘lgan badiiy asarlar mutolaasi tufayli ularning fikri o‘sadi, dunyoqarashi kengayadi, hayotda nima yaxshi-yu nima yomonligi xususida dastlabki xulosalari shakllanadi. Asarlardagi badiiy qahramonlarga o‘xshash tadbir

olishga, aqlan, ahloqan ajdodlarga munosib farzand bo‘lish fikri shakllanib boradi. Ertaklar, rivoyatlardagi ijobiy obrazlardan bolalar ruhlanadi, ma’naviy ozuqa oladi. Salbiy obrazlardagi xususiyatlardan nafratlanadi, shu tariqa badiiy asarlar bolalarda milliy g‘urur hissini shakllantirishga xizmat qiladi.

## **2.2. Buyuk siymolar bilan tanishtirish orqali bolalarda milliy g‘urur hissini shakllantirish metodikasi.**

Maktabgacha yoshdagi bolalarni ilk yoshlikdan boshlab xalqimizning buyuk mutaffakirlari, ulardan qolgan moddiy, ma’naviy, ijodiy merosi bilan tanishtirish, ularning ijodiy merosidan o‘rinli foydalanish, bolalar ma’naviyatini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi, yosh avlodga Vatanga muhabbat, milliy g‘urur, iftixor hislarini singdirishda buyuk siymolar merosining xizmati beqiyos ekanligi sir emas. Bolalar bilan muzeylarga, ajdodlardan meros masjid, madrassalar, rasadxona, arklarga sayohatlar uyushtirish davomida ularning tarixi haqidagi voqea va hodisalar, tarixiy hikoyalar bilan tanishtirish bolalar shuurida faxr, iftixor, g‘urur hislarini shakllanishiga sabab bo‘lib xizmat qiladi.

Bolalarga buyuk siymolar ijodi misolida ertak, rivoyat, o‘g‘itlarni milliy g‘urur hissini tarbiyalashdagi matn mazmunini yetkazib berishdagi pedagogik mahoratiga ham bog‘liq, har bir tanlangan adabiyotni obrazli, qahramonlar tilidan his tuyg‘ular bilan o‘qib, hikoya qilib berish bolalalar xotirasida o‘chmas iz qoldiradi.


Jumladan, Alisher Navoiyning zukkoligi haqidagi, Mirzo Boburning jasurligi, Abu Rayhon Beruniyning ilmda tengsizligi, Ibn Sinoning mashhur tabibliigi, Mirzo Ulug‘bekning yulduzlar ilmidagi erishgan zafarlari, Kamoliddin Behzodning mohir musavvirliigi, Amir Temurning jasur sarkardaligi, mardliklari haqidagi rivoyatlardan bir to‘plam qilish va ulardan bolalarni tarbiyalashda ularda milliy, umuminsoniy, ma’naviy qadriyatlarni, faxr, iftixor, milliy g‘urur hislarini shakllantirishda o‘rinli foydalanishni joiz deb bilamiz Shu bilan birga Ibn Sino haqidagi rivoyatlar ham bolalardagi fazilatlarning shakllanishi uchun muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

Bizning fikrimizcha, maktabgacha ta’lim tashkilotlarida olib boriladigan mashg‘ulotlarda tarbiyalanuvchilarda buyuk siymolar orqali milliy g‘urur hissini shakllantirishda ilg‘or ta’lim metodlari, turli yondashuv va vositalar, samarali shakllar muhim ahamiyat kasb etadi. U tarbiyalanuvchilarni ta’lim-tarbiya jarayonida ijtimoiy faolligini oshirishda, milliy g‘urur hissini tarkib toptirishda va mazkur jarayonlarni takomillashtirishda qo‘llaniladigan ta’sir etish yo‘llari va usullarining yig‘indisi hisoblanadi. Ta’lim-tarbiya metodlari asosini mazkur ta’sir ko‘rsatish usullari majmui, ta’sir ko‘rsatish mexanizmi tashkil etadi.

Ta’lim-tarbiya metodlari tarbiyalanuvchilarda buyuk siymolar bilan tanishtirish orqali milliy g‘urur hissini shakllantirish jarayonini ro‘yobga chiqarish

usullari va yo‘llari majmuidan, ishtirokchilarga samarali, maqsadga muvofiq ta’sir ko‘rsatishidan, ta’lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish mexanizmidan iboratdir. Ta’lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etiladigan metodlar ilmiy xulosalar, tajribalar va ilmiy tadqiqotlar natijalariga asoslanib tanlanadi, hamda o‘ziga xos xususiyatlari inobatga olinadi. Ta’lim-tarbiya jarayoniga, eng avvalo, ta’lim oluvchiga samarali ta’sir ko‘rsatuvchi, o‘quv motivlarini shakllantiruvchi, ma’lum bir tushunchalarni o‘zlashtirishda samarali deb topilgan metodlar va yondashuvlarning qo‘llanishi ta’lim-tarbiya jarayonida o‘ziga xos ahamiyat kasb etadi.

MTTdagi uzluksiz ta’lim-tarbiya tizimida tarbiyalanuvchilarda buyuk siymolar bilan tanishtirish orqali milliy g‘urur hissini shakllantirishning turli vositalari mavjud. Bu shakl va vositalardan oqilona foydalanish yuqori maqsadlarga erishishimizga asos bo‘ladi. Ammo bu jarayonlar o‘zining ma’naviy-ma’rifiy, tashkiliy-uslubiy, ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari bilan murakkab va mas’uliyatli dinamik jarayondir. Bunday yo‘l va vositalarni quyidagi ko‘rinishda ifodalash mumkin, tarbiyalanuvchilarda milliy g‘urur hissini shakllantirish va rivojlantirishning samarali yo‘llari deb nomlangan 2.1.6-rasmda o‘z ifodasini topgan.



**2.2.7-rasm. Tarbiyalanuvchilarda milliy g‘urur hissini shakllantirish va rivojlantirishning samarali yo‘llari.**

MTT pedagogik jarayonlarni tashkil etish orqali tarbiyalanuvchilarda buyuk

siymolar orqali milliy gʻurur hissini shakllantirish, ularda milliy gʻurur, iftixor, faxr tuygʻusi boʻyicha tushuncha va tasavvur shakllantiriladi, tarbiyaviy tadbirlar vositasida ijtimoiy faol boʻlishga yoʻnaltiriladi. Shuni taʼkidlash lozimki, mashgʻulot shakllari bilan bir qatorda taʼlim metodlari va tarbiyachilarning faoliyati, faolligi, xatti - harakatlari ham tarbiyalanuvchilarda oʻzligini anglashda, milliy gʻurur, iftixor, faxr hissini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Tarbiyalanuvchilarda buyuk siymolar orqali milliy gʻurur hissini shakllantirishning quyidagi usullarini tavsiya qilish mumkin:

- bolalarda milliy gʻurur hissini shakllantirishda (oila MTT hamkorligi) ular bilan oilada koʻproq suhbat qilish, oila – ota-ona, ajdodlar, ona Vatan tuygʻusining muqaddasligi haqida tushuncha berish;
- tarbiyalanuvchilarda milliy gʻurur hissini shakllantirishda tarbiyachilarning ilgʻor tajribalar va buyuk siymolar, mutafakkirlar va millat, Vatan tarixi haqida bilimga ega boʻlishlari;
- mujassamlashgan faoliyatlarni oʻyin orqali tashkil qilish va tarbiyalanuvchilarning ishtirokini taʼminlash, qiziqish orttirish;
- tarbiyalanuvchilarda buyuk siymolar bilan tanishtirish orqali milliy gʻurur hissini shakllantirishga yoʻnaltirilgan ijodiy tadbirlar, kechalar, suhbatlar tashkil etish;
- badiiy ijodkorlikka yoʻnaltirish (teatr uchun milliy qahramonlar atrebutlarini tashkil qilish);
- tarbiyalanuvchilarni taʼlimiy-tarbiyaviy faoliyatda tashkil qilingan markazlarda ishlashga keng jalb etish;

Tarbiyalanuvchilarda buyuk siymolar bilan tanishtirish orqali milliy gʻurur hissini shakllantirishda quyidagi metodlardan foydalanish samaradorlikni oshiradi.

1. **Baxs-munozara metodi:** Bu metodning samaradorligi shunda koʻrinadiki, tarbiyalanuvchilarda milliy gʻurur hissini shakllantirishga urgʻu beradigan buyuk siymolar haqidagi hikoya, rivoyat, afsonalardan soʻng bolalarning bahs munozaraga kirishishlari orqali, ularda Vatanparvarlik, milliy gʻurur hissini shakllantirishda tengdoshlarining olqishini olishga intilishi, kattalar olqishini olishga intilishdan ustun turadi. Bu oʻz navbatida bolalarni mustaqil fikrlashga, oʻz qaror va pozitsiyasini munosib himoya qilishga oʻrgatadi. Yana bahs va munozarada haqiqatni mushohada bilan tushinishga erishiladi.

2. **Oʻz-oʻzini tahlil qilish metodi:** bu metodda bola aynan milliy gʻurur hissini shakllantirishga urgʻu beradigan videolavha yoki hikoyadan soʻng oʻz-oʻzini tahlil qilishga oʻrin beriladi. Mazkur metodning mohiyati tarbiyalanuvchilarda individuallikka, sotsiumda uning shaxsiga nisbatan sodir boʻlayotgan voqealarni aniq baholashga, ehtiyojga intilishning shakllanishida namoyon boʻladi. Oʻz-oʻzini tahlil qilish usullari ichida oʻz ishini baholash, oʻz

xulqi, o'rtoblari, ota-onalari va tarbiyachilari bilan munosabatlari haqida o'z fikrini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

3. **Mashq** (ong va xulq birligini shakllantirishga yordam beradigan ko'p marta qaytarish asosan she'rlar va qahramonlar monologlari) metodidir. Mashqlar yo'li bilan milliy g'urur hissini shakllantirishga qaratilgan kichik she'rlar, yoki qahramonlar tilidan aytilgan monologlar tarbiyalanuvchilar bilan birga baravar aytiladi va tahlil qilinadi. Unda muayyan sharoitlarda sotsiumda qabul qilingan me'yorlar va xulq-atvor qoidalariga muvofiq harakat mimika va pontomimika qilishga ehtiyoj shakllanadi

4. **Namuna metodi.** Bu metod munosabatlarni o'zgartirishda, axloqiy-estetik ideal va namunani o'zlashtirish natijasida o'z-o'ziga ta'sirga aylanadigan o'zaro munosabat usuli sanaladi. Tarbiyalanuvchilar uchun buyuk siymolar namuna sifatida ko'rsatiladi. Buyuk siymolar bilan o'zlarini tenglashtirishga, uning ishlari, xulqi va hayot tarziga taqlid qilishga intiladi. Namuna metodini amalga oshirishning eng samarali shakllari turli xildagi mavsumiy tadbirlar, musobaqalar, bolalar va ota-onalar ishtirokidagi ijodiy kechalarni tashkil qilishdir.

5. **Xohish-istak metodi.** Bu bolalarning qiziqishlariga, ehtiyoj va moyilliklariga, xohish-istaklariga tayanish yo'li bilan ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatda, o'yin faoliyatida, mehnatda faollikni rag'batlantirishdan iborat, bunda bolalarning bir-birini qo'llab quvatlashi, o'yinlarni tashkil qilishdagi tashabbusi, birga mehnat qilishi, masuliyatni o'z zimmasiga o'z xoxishi bilan olishidir.

6. **Rag'batlantirish metodi:** bolalarning Vatan tarixi, buyuk siymolar haqidagi bilimlari, xalq o'yinlarini tashkil qilishdagi tashabbuslarini o'z vaqtida rag'batlantirish, ularni qo'llab quvvatlash, dalda bo'lish, ma'qullab turish kabilar pozitiv emotsiyalarni vujudga keltiradi: mehribonlik, hozirjavoblik, o'z qadrini bilish, insoniylik, o'zaro hurmat, ma'naviy qo'llab quvvatlash, intizomlilik kabi fazilatlarni shakllantirishga yordam beradi. Shu bilan birga tarbiyalanuvchilarda buyuk siymolar bilan tanishtirish orqali milliy g'urur hissini shakllantirish jarayonlarini takomillashtirishda, tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda «davra suhbatlari», «dialog» kabi metodlardan foydalanish ham maqsadga muvofiqdir.

Yuqorida ko'rib o'tgan metodlar tizimini tarbiyalanuvchilarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda qo'llash tarbiyalanuvchilarda buyuk siymolar bilan tanishtirish orqali bolalarda milliy g'urur hissini shakllantirishda, ularni maktab hayotiga sifatli tayyorlashda ularda mas'uliyat, mustaqil fikrlash, ijodkorlik, kommunikativlik, kompetensiyaviylik, tashabbuskorlik, vatanparvarlik, g'urur, iftixor faxr hissini shakllantirishga yordam berish bilan bir qatorda, ma'naviy tarbiyalanganlik darajasini, axloqiy, siyosiy, ma'naviy sohalardagi ma'lumoti, bilim darajasi oshganligini ham ko'rsatib beradi.

Shunday ekan, tarbiyalanuvchilarda buyuk siymolar orqali milliy g'urur hissini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan asosiy tushunchalarning faol o'zlashtirilishiga qiziqishni shakllantirish, ta'lim-tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilarni faol ishtirok etishga motivlashtirish yo'nalishida shaxs-faoliyat yondashuvini tatbiq etish ta'lim samaradorligiga xizmat qiladi.

Rivojlantiruvchi ta'lim texnologiyalari tarkibida taqdim etiluvchi "Qor to'pi", "Muloqot treningi", BBB ("Bilaman", "Bilishni xohlayman", "Bilib oldim"), "Zanjir", "Munozara", "Guruhlarda ishlash", "Rasmlar taqdimoti", "Rolli o'yin", "Aqliy hujum", "Hamma, hammaga o'rgatadi", "O'yin mashqlar" kabi qator interfaol usullar va texnologiyalarni bolalarni yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etish va qo'llash MTTlardagi rivojlantiruvchi faoliyatlar sifatini oshirishda o'ziga xos katta ahamiyatga ega. tarbiyalanuvchilarni bilimlarini puxta egallashi, vaqtdan unumli foydalanishi, ijodiy fikrlashi, o'zgaralar fikrini tinglay bilish, bildirilgan fikrlardan to'g'ri xulosa chiqarishga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Ta'lim jarayonining muvaffaqiyati tarbiyachining ilmiy-metodik saviyasi va pedagogik mahorati, zamon bilan hamnafasligi, tarbiyalanuvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish va boshqarish ko'nikmalariga bog'liqdir. Bolalarni yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda rivojlantiruvchi faoliyatlarda «Zakovat», «Zinama-zina» kabi didaktik o'yinlarning vaqti-vaqtida o'tkazib turilishi tarbiyalanuvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini orttirish va bilish faoliyatini yuksaltirishga zamin tayyorlaydi.

Shuningdek, sahnalashtirilgan o'yinlarning ahamiyati alohida sanalib, uning o'ziga xosligi shundaki, bolalar biror bir ertak yoki hikoya syujeti asosida ma'lum bir rolni bajaradilar. Yoki "Sarkardaman", "Men askarman", "Men Navoiyman", "Men elchiman singari tadqiqotimiz doirasidagi hikoyalar asosida o'zlari o'ylab topgan rolli o'yinlarda ham o'zlari belgilab olgan rollarni sidqidildan bajaradilar. Sahnalashtirilgan o'yinlar bolalarga eshitgan asarlari yoki ertaklardan olgan tasavvurlarini mustaqil ifodalash hamda ular ustida mashq qilish imkonini beradi. Bu o'yinlar bolalarda faxr, iftixor, intizom, iroda, o'z harakatlarini boshqalarning harakatlariga muvofiq amalga oshirish kabi sifatlarni tarbiyalashda samarali vosita hisoblanadi. Sahnalashtirish bolalarni qayta so'zlashga, fikrlashga va tafakkur qilishga o'rgatish usullaridan biridir. Ba'zi bolalarda qayta so'zlab berishga xohish ham qiziqish ham sust bo'ladi, lekin o'yin usulining kiritilishi bilan bola asardagi rolga kirishib, o'sha asar mazmunini juda yaxshi yoritib berishga harakat qilishi mumkin. Bunday o'yinlarda bolalar o'zlarini o'sha asardagi qahramon o'rnida his etib, uning sezgi kechinmalari dunyosiga chuqurroq kirib boradilar. Badiiy asarlarni qahramonlar tilidan so'zlab berish bolalardagi xayol va tasavvurni rivojlantirishga yordam beradi hamda asar qahramonida mavjud bo'lgan jasurlik, o'ziga ishonch, mustaqillik kabi xarakter-xususiyatlarni o'zlashtirishga intiladi.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi sahnalashtirilgan o'yinlarga tarbiyachi rahbarlik qiladi. Ertak yoki hikoyadagi mazmun bolalarga yaqin, ularning yoshi va qiziqishiga mos, tushunarli bo'lib bola unga kirishib keta olsagina, asardagi obraz va harakatlar o'yinda to'g'ri aks ettiriladi. Sahnalashtirilgan o'yinga tayyorlanish uchun ma'lum vaqt ajratiladi va har bir mashg'ulotda aniq bir masala hal etib boriladi.

Respublikamizning bir qator olimlari tomonidan pedagogik jarayonni modellashtirishga qaratilgan qator tadqiqot ishlari ham amalga oshirilgan. Jumladan, prof. N.Muslimov[176]ning tadqiqot ishida pedagog faoliyati modeli tuzilmasi nafaqat matn tarzida, balki umumiy texnologik ko'rinishdagi sxema tarzida ham keltiriladiki, bu ixtiyoriy pedagogik faoliyatni modellashtirish uchun imkon beradi.

Tarbiyalanuvchilarda buyuk siymolar bilan tanishtirish orqali bolalarda milliy g'urur hissini shakllantirish jarayonlarini samarali tashkil etishda xalq qo'shiqlari, bag'ishlov, qasidalar xalqchil til, oddiy shevaga xoslik, ko'tarinki ruhda bo'lishi, ma'lum bir marosim, biror bir insonni ulug'lashga, ona diyorni - Vatanni sevishtirishga bag'ishlanganligi, yoki tabiatning ma'lum bir mavsumiga bag'ishlanishi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, aksariyatida moddiy dunyo noz-ne'matlaridan lazzatlanish, tinch-totuv yashash, hayotning qadriga yetish, shukronalik, minnatdorlik hislari tarannum etiladi. Mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng qadimiy an'analarimiz, milliy bayramlarimiz Navro'z, Hosil bayrami, Ramazon, Qurbon hayiti kabi umumxalq bayramlari, "Uloq", "Ko'pkari" kabi xalq o'yinlari hamda hashar kabi milliy urf odatlarimiz qayta tiklandi, millatimizning tantiligini bag'ri kengligini isbotlovchi "Milliy kurash" dunyo tan olgan sport turiga aylandi, bir so'z bilan aytganda ko'hna bir buloq qayta ko'z ochdi. Qadim-qadimdan xalqimiz milliy g'ururi, tantiligi, mehmon do'stligi, iymonu-insofi, sadoqati, hallolliqi, bag'rikengligi, vatanparvarligi bilan ajralib turgan. Milliy g'urur mazmunida ulug'vorlik, mag'rurlik sifatleri o'z aksini topgan. G'ururli bo'lish bobida ulug' bobolarimiz haqiqat va adolat yulida hech kimga bo'yin egmagan, bu millatimizning qon qoniga singib ketgan, o'z navbatida bu xususiyatlar "To'maris", "Shiroq" kabi qissalar, "Alpomish", "Qirqqiz", "Go'ro'g'li" singari dostonlarda o'z aksini topgan. Allomalarning donishmandligi, hayot tajribasi asosida yaratilgan o'gitlari, turmush hodisalari bilan bog'liq bo'lgan vatanparvarlik, mardlik, qahramonlik, mehnatsevarlik, do'stlik, ilm-hunar, vafodorlik, bag'rikenglik kabi yuksak ahloq normalari ma'qullanib, nodonlik, egrilik, qo'rqqoqlik, yomonlik, umidsizlik, yolg'onchilik, yalqovlik, ochko'zlik, kabi yaramas illatlar qoralanadi. Bu esa allomalarning o'gitlarida g'oyaviy-tematik jihatdan boy va rang-barangligini hamda chin insoniy fazilatlarini targ'ib qilishga qaratilganligini ko'rsatadi. Allomalarning o'gitlari mazmuni va tuzilishi tahlil

etilar ekan, mazmun jihatidan keng, tuzilish jihatidan qisqa, umuman hikmatli gap ko‘rinishida ekanligi suhbat, dialog, munozarada bayon etiladi. Bu bilan bolalar kerakli bilimlar bilan qurollantirilibgina qolmasdan, balki ular o‘zlashtirgan o‘g‘itning mazmuni haqida tushunchaga ega bo‘ladilar, salbiy, ijobiy qahramonlarni farqlaydilar, rasmlar asosida so‘zlab berish ko‘nikmasi, ilmiy dunyoqarash va ma‘naviy sifatlar tarkib topadi. Bu esa, bolalarning aqliy kamoloti va qobiliyatini yanada rivojlantirishga yordam beradi.

Buyuk siymolarning o‘g‘itlari haqidagi nazariy tushunchalar bolalar ongiga oddiy, sodda, bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan misollar yordamida ta‘lim va tarbiya birligi tamoyili asosida singdiriladi. Bunda quyidagilarga e‘tibor karatiladi:

Allomalar hayotiy tajribalarda sinalgan fikrni tasdiqlaydi. Bu asosan tayyorlov guruhlar uchun yaxshi samara beradi. Masalan: “Oz-oz o‘rganib dono bo‘lur, qatra-qatra yig‘ilib daryo bo‘lur”. “Aytar so‘zni ayt, aytmas so‘zdan qayt” Navoiy hazratlarining o‘g‘itlari.

“Yaxshi odam yurt tuzar, yomon odam yurt buzar”, “Bilagi zo‘r – birni urar, bilimi zo‘r mingni” Sohibqiron Amir Temur o‘g‘itlari.

“Yaxshi xulq, yaxshilik alomatidir”, “Yaxshilik jamiyki kishilarga yaxshilik qilmoqdan iborat” Abu Rayhon Beruniy hikmatlari.

“Oz yeyish va oz gapirishni odat qil”, “Ustozni otangday aziz tut”

Ibn Sino hikmatlari.

Taqdir yuki boshimga balolig‘ bo‘ldi,

Har neniki ayladim hatolig‘ bo‘ldi,

O‘z yurtni qo‘yib Hind sori yuzlandim,

Yo Rab netayin, bu ne yuz qarolig‘ bo‘ldi.

Zahiriddin Bobur.

Quyida buyuk siymolar tomonidan yozib qoldirilgan o‘g‘itlar katta hayotiy tajribaga asoslanilgan. Tarbiyalanuvchilar uchun o‘g‘itni o‘rganishda qo‘llanilishi mumkin bo‘lgan metod va usullarga to‘xtalamiz, bunda albatta bolalarning yosh xususiyatlarni hisobga olamiz: “Yaxshi odam yurt tuzar, yomon odam yurt buzar” Amir Temur, o‘g‘itidagi so‘zlarni takrorlash, so‘zlar mazmunini anglashi; tarbiyachi o‘g‘itning to‘laligicha lug‘aviy ma‘nosini tushuntiradi, o‘g‘it mazmunini soddalashtirib hayotga bog‘laydi. O‘z vaqtida mo‘g‘ullar Samarqandni bosib olar ekan, biror bir sog‘lom bino qoldirmay shaharga o‘t qo‘yadi, butun bir shahar kulga aylanadi, aholi mo‘g‘ullar zulmidan yillarcha aziyat chekadi, moddiy boyliklari talon taroj qilinadi. Shahar yer bilan yakson qilinadi. Amir Temur Samarqandni mo‘g‘ullar zulmidan ozod qilar ekan, shaharga qayta hayot bag‘ishlaydi. Sohibqiron Amir Temurning hukumronligi bilan shaharga yangi qurilgan binolar ko‘rk bag‘ishlagan bo‘lsa, ilm ahillari Samarqandni madaniyat o‘chog‘iga

aylantirdi. O‘z navbatida urushlardan bezigan xalq tinch totuv yashashga boshlaydi. Tarbiyachi “*tuzish, buzish*” so‘zlarini tahlil qilib, misollar bilan tushuntirib beradi. Mo‘g‘ullar yurtni “buzgani” ya’ni xalqni xonavayron qilib, xalqni talon taroj qilib, shaharni kulini ko‘kka sovurgani, Amir Temur esa shu shaharni dushmandan ozod qilgach shaharga ikkinchi hayot bag‘ishlagani tarixdan ma’lum. Yurtda tinchlik hukmron bo‘lsa, yurtning farzandlari o‘z vatanlarida yayrab yurishlari, yurtning koriga yarashlari haqidagi fikrlar suhbat, debat, munozara metodi orqali tushuntiriladi, mazmuni tahlil etiladi, ularga shu o‘gitni qayta-qayta takrorlab, yod olish zarurligi uqtiriladi. Bu usul o‘gitni ongli o‘zlashtirishga yordam beradi. O‘z navbatida bu ishlar rivojlantiruvchi markazlarda davom ettiriladi, “Qurish yasash, matematika”, o‘z navbatida hikoya, bobokalonimiz Amir Temurning shijoati va mardligidan bolalarni g‘ururlanishiga, namuna olishiga sabab bo‘ladi. O‘z o‘rnida, shuni ham aytish kerakki, quyida keltirilgan xalq maqollari bolalarda vatanga muhabbat, sadoqat, bag‘rikenglik, faxr, iftixor, milliy g‘urur hislarini tarbiyalashga xizmat qiladi. “Ona yurtning omon bo‘lsa, rangi ro‘ying somon bo‘lmas”, “Ona yurtning - oltin beshiging”, “Bulbul chamanni sevar, odam Vatanni”, bu maqollar xalqning sodda xalqchil tilidan chiqib, bolalarni vatanparvarlikka, insoniylikka, ezgu ishlarga yetaklaydi.

Allomalarning donoligi mahsuli bo‘lgan o‘git, hikmatli so‘zlar, matallarda kishilar faoliyati bilan bog‘liq ma’naviy-ahloqiy masalalarga alohida e’tibor berilgan. Inson o‘z faoliyatining, hatti harakatlarining oqibatlarini oldindan uylashi lozim, noma’qul harakat ko‘ngilsiz oqibatlarga olib kelishi mumkin ekanligini bolalarga sodda tilda tushuntirib, misollar bilan yetkazib berishimiz lozim. O‘git, hikmat, matallari kishilar amaliy faoliyatining natijasi undan kundalik hayotda amal qilish lozim bo‘lgan tarbiyaviy qo‘llanma vazifasini bajaradi.

Bolalar bilan mutafakkir, tarixiy buyuk shaxslar haqidagi hikoyalarni tahlil qilishda quyidagilar ko‘zda tutiladi:

- yuksak ma’naviy-ahloqiy ruhda tarbiyalash;
- vatanga muhabbat hissini tarbiyalash;
- milliy g‘urur hissini tarbiyalash;
- buyuk siymolarning hayoti va faoliyatiga qiziqish uygotish;
- og‘zaki nutq, erkin fikrlashga o‘rgatish;
- buyuk siymolarning moddiy va madaniy, ijodiy merosidan unumli foydalanishga qiziqish uyg‘otish;

Buyuk siymolar haqidagi hikoya va rivoyatlarni tahlil qilish, bolalarda hikoya qilib berish, debat, video tasmalarni ko‘rish, audio eshitirish, suhbat, munozara kabi xilma-xil metodlarni qo‘llashni talab etadi. Bolalarga buyuk siymolar haqidagi hikoya va rivoyatlarga qiziqish hissini uyg‘otish uchun ularga og‘zaki hikoya qilib beriladi va bolalardan ham shunday hikoya qilib so‘zlash talab

etiladi. Chunki hikoya va rivoyat mazmuni bolalarga to‘la yetib borishi uchun tarbiyachi uni mustaqil badiiy, obrazli qilib, voqea va hodisalarga his tuyg‘ulari bilan hikoya qilib berishi maqsadga muvofiq. Buyuk siymolar haqidagi hikoya va rivoyatlarda o‘z navbatida eski muomaladan chiqqan so‘zlar ham uchraydi, hikoya qilib berish jarayonida bunday so‘zlarga izoh berilib tushuntirib o‘tish lozim. Hikoya va rivoyatlarning g‘oyasi savol-javob bilan ochiq lanadi. Hikoya va rivoyatlar qahramonlari asosida erkin faoliyatda rasmlar chiziladi, aplekatsiyalar yasaladi, sahna ko‘rinishlari drammalashtiriladi. O‘z navbatida ijobiy, salbiy qahramonlarining sifatlarini taqqoslab bolalarning shaxsiy xulosalarini mustaqil aytib berishlari so‘raladi. Bu o‘z navbatida bolalarni mustaqil fikrlash, fikrlarni bayon etishga, solishtirish, qiyoslash, xulosa chiqarishga o‘rgatadi.

Buyuk siymolar haqidagi milliy g‘urur hissini shakllantirishga urg‘u beradigan hikoya va rivoyat matnlari bilan tanishtirishda bolalardan quyidagilar talab qilinadi:

- ✓ hikoya va rivoyatning mazmunini bilish;
- ✓ hikoya va rivoyat mazmuniga xulosa bera olishi;
- ✓ hikoya va rivoyatdagi asosiy qahramonning maqsadini to‘g‘ri baholashi;

Quyidagi talablar natijasida bolalarda milliy g‘urur, faxr, iftixor hislari bilan bir qatorda nutqining boyishi, ravon so‘zlash malakalarining rivojlanishiga, to‘g‘ri xulosa chiqarishlariga ijobiy ta‘sir etadi. Matn erkin faoliyatdagi “nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari”, rivojlanish markazida o‘z ustida ishlash orqali bolalarning lug‘at boyligini o‘stirish notanish so‘zlarni tushuntirish, xalq iboralari, maqollarni nutqda qo‘llashga yordam beradi. Matn tuzish, rasmga qarab hikoya qilib berishdan iboratdir.

Buyuk siymolar haqidagi hikoya va rivoyatlarni o‘rganishda bolalarning e‘tibori quyidagi masalalarga qaratiladi:

- ✓ buyuk siymolarning o‘gitlariga rioya qilish;
- ✓ mard, jasur bo‘lish;
- ✓ ajdodlariga munosib farzand bo‘lish;
- ✓ kattalarni hurmat qilish, kichiklarga izatda bo‘lish;
- ✓ o‘z Vatanini, xalqini sevish va hurmat qilish;
- ✓ ustozini ulug‘lash;
- ✓ o‘zidan yaxshi nom qoldirish, el-yurt koriga yarash tuyg‘usi bilan yashash;

Tadqiqot doirasida o‘tkazilgan tajriba-sinov ishlari davomida “Buyuk siymolar bilan tanishish”, “Buyuk siymolar bilan tanishtirish orqali milliy g‘urur hissini shakllantirish yo‘llarini yangi sharoitda qo‘llash” kabi mavzularda uyushtirilgan bahs-munozaralar milliy g‘urur hissini shakllantirishni ijobiy natijalar berishini ko‘rsatdi. “Vatanimga sodiq farzand bo‘laman”, “Ajdodlarim – mening faxrim, g‘ururim” mavzularida bolalar bilan tadbirlar tashkil qilganmizda

olib borilgan suhbat, bahslar tarbiyalanuvchilarni an'analарimizga, qadriyatlarimizga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashga, ularda milliy g'urur, milliy iftixor hissini tarkib topishiga amin bo'ldik.

### **2.3. Milliy g'urur hissini tarbiyalashda tarbiyachi, ota-ona hamkorligi faoliyati tizimi.**

Tarbiya xalqni qanday xalq ekanligini, millatning qanday millat ekanligini ko'rsatadi. Qadim qadimdan ajdodlarimiz uchun tarbiya muhim ahamiyat kasb etgan va asosan Islom dini tasirida sayqallanib kelgan. Tarbiya jarayonida barcha omillar ichida eng asosiy va muhim rolni oila o'ynaydi. Oilada hukm surgan vaziyat, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi bir-biriga bo'lgan muhabbat, hurmat, e'tibor, bir-biriga samimiy qiziqish oilaviy tarbiyaning asosini tashkil etadi. Tarbiyashunos Safo Ochil shunday yozadi: "Tarbiya berish deganda, kimnidir maxsus bir xonaga o'tqizib, faqat pand-nasifat berishni emas, balki o'yin davomida, uy yumushlarini bajarish jarayonida, ta'lim va ilm o'rgatish vaqtida hayot va turmush saboqlarini qiyosiy yo'sinda tushintirish, qolaversa, shaxsiy o'rnak ko'rsatish odatini tushunmoq va bilmoq lozim..., eng qudratlisi – tafakkur vositasida tarbiyalanishi mumkin." - deydi" [88.152] Oila a'zolarining o'z ajdodlarini yod etishi yosh avlod tarbiyasi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. O'z ajdodlarini bilishi bolada uchun, tasodifiy, emasligini, aksincha o'z oilaviy an'analarga, uzluksiz tarixga ega bo'lgan qadriyatlarning davomchisi ekanligi to'g'risida tasavvurni tug'diradi. Ertangi kunga ishonch tuyg'usi oshadi, kelgusi avlodning baxtli, farog'ati uchun ma'suliyat sezadi. Ajdodlarni xotirlash, ular qoldirgan merosni o'rganish bolalarda yuksak milliy g'urur, faxr, iftixor hissini tarbiyalaydi. Shu o'rinda mamlakatimiz rahbari Sh.Mirziyoevning "Aziz do'stlar, mo'tabar otalarimiz, mexribon onalarimiz boshimizdagi toji davlatimiz ekanini xech qachon unutmaylik. Bu g'animat, ko'z ochib yumguncha o'tib ketadigan hayotda ularni qancha qadrlab, imkon qadar umrlarini uzaytirishga qancha harakat qilsak, ikki dunyoda aslo kam bo'lmaymiz.

Agarki mendan, dunyodagi qaysi oila eng baxtli, deb so'rashsa, hech ikkilanmasdan, keksalari bosh bo'lib, izzat-hurmatda hayotda kechirayotgan oila deb javob bergan bo'lardim"[12.398] degan fikrlari bilan yana bir bor oila muqaddas tarbiya o'chog'i ekanligini va u albatta davlat rahbarining diqqat e'tiborida ekanligi katta ahamiyatga ega. Buyuk siymolar hayoti aks etgan milliy g'urur hissini shakllantirishga urg'u berilgan asarlar bilan tanishtirish orqali bolalarda milliy g'oya, milliy mafkura, milliy g'urur, iftixor va faxr, vatanparvarlik, sadoqat, insonparvarlik, bag'rikenglik kabi tushunchalarini tarbiyalash va milliy ruhda tarbiyalashga bag'ishlangan ilmiy kuzatishlar uchun aslida oila asos bo'lib xizmat qiladi. Bolalarning milliy g'urur, faxr, iftixor, sadoqat, vatanparvarlik sifatlarini tarbiyalash uzluksiz bir tizimda davom etishi,

ya'ni oilada boshlanib maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, undan so'ng esa maktabda uzluksiz tarzda davom etishi zarur. Bolalarning milliy g'urur hissi va vatanparvarlik sifatleri qay darajada ekanligi yuzasidan badiiy asarlar tahlili, kuzatish va suhbatlar jarayonida olib borilgan savol-javoblar natijasidan shu ma'lum bo'ldiki, tarbiyalanuvchilarning Vatan, milliy g'urur hissi haqidagi fikrlari g'oyatda cheklangan. Ular Vatan va Vatanni ulug'lovchi she'r, qo'shiq, maqol, hikoya va boshqa janrlardagi badiiy asarlarni oilada, MTTlarda yod oldirishgan, ammo milliylikning tub mohiyatini yaxshi anglab yetishmaydi. Oila va MTT hamkorligidagi, MTT katta va tayyorlov guruhi bolalarida milliy g'urur hissini shakllantirishda har bir ta'limiy-tarbiyaviy faoliyatda, tarbiyaviy tadbirlar, buyuk siymolarning tavvalud kunlariga bag'ishlangan kechalar, davra suhbatlari, bundan tashqari davlat ramzlarini qabul qilingan kunlariga bag'ishlangan bayram tadbirlari, to'garaklarni tashkil qilish va olib borish jarayonida uzluksiz tarzda, tabiat, inson va u yashaydigan muhit haqida ilmiy tasavvurlarni shakllantirishning ayni zamoni ekanligini ko'rsatib turibdi. Bolalarda milliy g'urur hissini tarbiyalash bilan bog'liq maqsad va vazifalarni ijobiy hal etishda ota-ona va MTT, mahalla hamkorligi muhim ahamiyatga ega. Chunki tarbiyachi, bola va ota-ona, mahalla hamkorligidagi faoliyatning samaradorligi amaliyotda ancha yuqori ekanligini ko'rsatdi.

“Ilk qadam” Davlat o'quv dasturi, mazmunida milliylikning bo'lishi davr taqozosidir. Bu mazmun zamirida bolalarda milliy g'urur hissini tarbiyalash muammosi yotadi milliy, umuminsoniy qadriyatlar, urf-odat va an'analar, adabiyot namunalari, xalq donishmandligi durdonalari negizini tashkil etgan sharqona tarbiyaning asosiy sifatleri bag'rikenglik, insonparvarlik, tantilik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, mehr-oqibat, ota-onaga, ajdodlarga hurmat, kichiklarga izzat, saxovat, imon-e'tiqod tarbiyasi shular jumlasidandir.

Mustaqil jamiyatimizning ertangi kuni, kelajagi yaratuvchisi - o'sib kelayotgan yosh avlod tarbiyasi haqida g'amxo'rlik qilish har bir millatimiz, mamlakatimiz vakilining burchi bo'lib hisoblanadi. Ayniqsa, tarbiyalanuvchilarda jafokash vatanimizning suronli o'tmishi, bugunning shukronasi, ertasiga umid bilan qarash, shu vatanga munosib, sodiq farzand bo'lish hissini tarbiyalash bugungi kunda oilalar uchun ham dolzarb masalalardan biridir. Bolalarda mamlakatimizning yutuqlaridan faxrlanish, g'ururlanish hissini tarbiyalash uchun, eng avvalo, mamlakatimizning bosib o'tgan shonli yo'li - tarixi haqida tasavvurni shakllantirish, vatanimizning sodiq farzandlari va ulardan o'rnak olish, sotqin unsurlari va ularning xalq nafratiga uchragan taqdirlari haqida misollar keltirish, tarixiy obidalarni ziyorat qilish, ularni moddiy ma'naviy boyliklarimiz bilan tanishtirish, bolalar qalbida Vatanga, ona yurtga, uning tarixiga bo'lgan muhabbatni orttiradi, milliy g'urur hissini vatanparvarlik, insoniylik, bag'rikenglik

hissini shakllanishiga sabab bo'ladi. Bugungi kunda Sharq mutafakkirlarining hayoti va ijodiy faoliyati, ularning ilmiy, ma'naviy merosini o'rganish orqali milliy g'urur hissini tarbiyalashni tarkib toptirish dolzarb muammolardan biridir. Vatanimizda yetishib chiqqan buyuk mutafakkir, allomalar sharqning dovrug'ini butun dunyoga tarqatgan, madaniyat o'chog'i bo'lgan Markaziy Osiyo dunyo xalqlarini o'ziga asrlar davomida jalb qilib kelgan. Yurtimizni bir necha marta qirg'in, taloto'plariga sabab bo'lgan shunday bo'lishiga qaramasdan matonatli xalqimiz qayta-qayta o'zining vatanparvar, mard, jasur, sodiq farzandlari bilan ko'p talofot, qirg'inlarga duch kelsada, ozodlik uchun kurashlarni to'xtatmagan, qayta-qayta millatning mard, jasur o'g'lonlari Vatan uchun jonlaridan kechib, yov bilan ayovsiz janglar olib borganlar. Shunday xalq qahramonlaridan Muqanna, Jaloliddin Manguberdi, Temur Malik, Shiroq, To'maris, Amir Temurlar tarixidir. Bu shonli tarixni bolalarga yetkazish, ularni Vatanga sodiq-vatanparvar, qilib tarbiyalash ma'suliyati har doimgidan ham muhimdir. Mutafakkirlarimiz Farbiy, Buxoriy, Termiziy, Beruniy, Navoiy, Bobur, Ibn Sino, Ulug'beklar qomusiy olim sifatida ko'plab asarlar yozib qoldirganlar, jumladan, komil inson tarbiyasi, farzand tarbiyasi, inson kamoloti haqidagi fikrlarining ahamiyati juda kattadir. Milliy istiqlol g'oyasi milliy va umuminsoniy, demokratik tamoyillarga asoslanadi; xalqning asrlar davomida shakllanib kelgan yuksak ma'naviyatini, an'analari va urf-odatlarini, buyuk ajdodlarimizning boy ma'naviy merosini o'z ichiga oladi hamda millati, tili va diniy e'tiqodidan qat'i nazar, har bir fuqaroda milliy g'urur, qadr-qimmat, Vatanga muhabbat, o'zaro hurmat, istiqlol va demokratik g'oyalariga sadoqat tuyg'usini tarbiyalashga xizmat qiladi. Mamlakatimizning milliy istiqlolga erishishi yosh avlodda milliy g'urur hissini tarbiyalash hozirgi kunda har qachongidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. "Biz orzu etgan buyuk davlatni bunyod qilish, - deb yozadi davlatimizning birinchi rahbari I.A.Karimov, - barchamizdan mustahkam iroda, imon-e'tiqod, milliy g'urur tuyg'usi, buyuk ajdodlarimizdan meros qolgan ma'naviy bisotga ega bo'lishni talab qiladi. Bilaklarimizda kuch, qalblarimizda kelajakka ishonch bo'lmog'i shartdir"[15.362]. Haqiqatda ham buyuk davlatni saqlab qolish va uning buyukligini ta'minlash uchun shu yurt farzandlarini ma'nun mukammal, ajdodlar merosiga munosib tarzda yetishtirish hozirgi kundagi davr talabidir. Tarbiyalanuvchilar bilan milliy g'urur hissini tarbiyalashga doir targ'ibot ishlarini olib borishda oilaning ijobiy, salmoqli o'rni bor. "Oila har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlaydigan, milliy qadriyatlarning rivojini ta'minlaydigan, yangi avlodni dunyoga keltirib, uni ma'naviy va jismoniy barkamol qilib tarbiyalaydigan, jamiyatning asosiy negizi hisoblanuvchi muqaddas maskandir"[88.8] – deb yozadi O.Musurmonova darhaqiqat oila ta'lim va tarbiyaning debochasidir. Haqiqatda ham oila oilaviy an'analarni hamda ma'naviy merosni saqlab qoluvchi, davom ettiruvchidir:

Jamiyatning eng kichik bir bo‘g‘imi bo‘lib, bolaning moddiy, ma‘naviy, madaniy, estetik ehtiyojlarini o‘shini va sog‘lom turmush tarzini ta‘minlovchi, bolaning fe‘l-atvori asoslarini dastlab shakllantiruvchi birinchi maktab vazifasini bajaradi. Zotan oila farzand tarbiyasi va kelajagi uchun birinchi ma‘sul – jamiyatning birinchi va asosiy bo‘g‘inidir. Bolaning axloqiy fazilatlarini, odob-axloq, tarbiya masalalarida oiladagi axloqiy qoidalar, ota-ona va bola munosabatidagi namuna ibrat asosida shakllanadi.

Mutafakkir Ibn Sinoning fikricha “Avvalambor axloqiy va aqliy tarbiya usullarini yaxshi egallagan, irodali, dono, g‘amxo‘r va dinga ishongan o‘rgatuvchi va tarbiyachi tanlash kerak bo‘ladi. U sog‘lom, tozalikni sevuvchi, sofdil va odamlarga yaxshi munosabatda bo‘la oladigan tarbiyachi bo‘lishi kerak”[144.139]. ***Ibn Sino bola tug‘ilishi bilan undagi iste‘dodlarini tarbiyalashga ishorat qiladi. Iste‘dodi tarbiyalangan boladan kelgusida yetuk komil inson yetishib chiqadi.*** “Oilaviy munosabat masalalarida ham Ibn Sino insonparvarlik mavqeida turadi. Erkak oila boshlg‘i oilaning barcha talablarini qondirishi lozim, bu uning birinchi burchidir. Ayol esa erkakning eng yaqin yo‘ldosh va tarbiyasida yordamchisi va merosxo‘ridir” [144.146]. Bolalar uchun tarbiya va ta‘limning ilk namunasi oiladir, “Qush uyasida ko‘rganini qiladi” digan maqol azaldan qolgan va ta‘lim tarbiyaning asosi oila bo‘lib kelganini tasdiqlaydi. MTTdan tashqari, uyda ota-onalar va oila a‘zolari bilan bo‘ladigan vaqt jarayonida ham milliy g‘urur va iftixor hissiini tarbiyalash lozim. Bunda xalq qaxramonlari, qadimiy turkiy xalqlarining jasoratlarini tarannum etuvchi afsona, ertak, rivoyatlarlarning ham o‘z o‘rni bor. “O‘zbek xalqi milliy g‘ururi baland xalq. milliy g‘urur o‘z ongini, ruhiyatini boshqa millatlarga qarshi qo‘yish emas, balki boshqa millat xalqlariga o‘z milliy-ma‘naviy va moddiy boyliklarini, jahon madaniyati xazinasiga qo‘shgan ulkan ulushini, milliy qadriyatlarini (axloqiy, aqliy, ekologik, iqtisodiy, diniy, adabiy-badiiy hunarmandchilik, axloqiy-ma‘naviy va h.k) namoyon etishdan iborat”[88.41b] - deb yozadi O.Musurmonova, oila bolaning milliy-ma‘naviy tarbiyasi va ma‘naviyati uchun poydevor maskandir. O‘z navbatida oila MTT hamkorligi davomiy va tizimli bo‘lishi tarbiyalanuvchilarni yetuk, komil, barkamol inson bo‘lib yetishlarining poydevoridir. Tadqiqotimiz doirasida ota-onalar bilan bolalarda milliy g‘urur hissini tarbiyalashga xizmat qiladigan hamkorlik faoliyatining quyidagi algoritmini ishlab chiqdik:

Bolalarda oilada milliy g‘urur hissini tarbiyalashda aniq va tizimli yechimni toshish uchun dastavval quyidagilarni aniqlash lozim:

- maktabgacha ta‘lim tashkilotining ota-onalar bilan hamkorlikda milliy g‘urur hissini shakllantirish borasida qaysi tamoyillarga suyanishi kerakligi aniqlash;
- bolalarda milliy g‘urur hissini tarbiyalashga nimalar xalal berishini aniqlash;
- bolalarda milliy g‘urur hissini tarbiyalash uchun pedagog va ota-onalar

tomonidan qanday chora-tadbirlar tashkil etishni belgilash;

Ota-onalarga milliy gʻurur hissini shakllantirishga doir suhbat, bolalarning uyqudan oldin aytib berilayotgan ertaklar, rivoyatlar, afsonalar qatoriga milliy gʻurur hissini shakllantirishga alohida urgʻu beradigan badiiy asarlardan foydalanish samarali natija beradi. Ota-onalar bilan milliy gʻurur hissini shakllantirishga oid suhbat dasturini tuzishda. yurtimizda yetishib chiqqan buyuk siymolarning hayoti, ijodi ularning oiladagi, jamiyatdagi oʻrni, mazkur davrning oʻziga xos xususiyatlarini qamrab olish, bolalarni yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda milliy gʻurur hissiga urgʻu beradigan badiiy adabiyot namunalari tanlash talab etiladi. Masalan, bolalar uchun quyidagi mavzularda suhbatlar tashkil etish mumkin: “Allomalar yurti!” “Ajdodlarimga munosib voris boʻlaman!”, “Ajdodlarimdan meros bu – Vatan!”, “Fidoying boʻlgaymiz - Vatan”, “Onam-jannatim, otam-davlatim”, “Poyingizda tuproqman-onam”, “Ota-ona haqidagi buyuk siymolarning fikrlari”, “Vatanimga sodiq farzandi boʻlaman”, “Xalq qahramonlarining jasorati”, “Vatanim – faxrim, iftixorim, gʻururim!”, “Mendirman oʻshal”. Ota-onalar, tarbiyachi va bolalar bilan mavzuli suhbat va munozarani tashkil qilishda, munozara mavzusini tanlash va uni qay tarzda (sahna koʻrinishlari, sheʼrlar, teatrlashtirilgan pontomimikalar, intermediyalar, monologlar) olib borishni rejalashtirish maqsadga muvofiq. Tanlangan mavzu boʻyicha munozaraga tayyorlanish quyidagilarni oʻz ichiga oladi:

- ✓ munozara mavzusi yuzasidan tavsiya etiladigan adabiyotlar bilan tanishish;
- ✓ munozara mavzusi yuzasidan rivoyat, ertak, kichik hikoya, afsonalar mavzular tanlaganda aynan milliy gʻurur, faxr, iftixor hissini shakllantirishga qaratilgan badiiy asarlarni tanlash;
- ✓ munozaradan keyin tarbiyalanuvchilarning, ota-onalarning fikrlarini eshitish ularning toʻgʻri xulosa chiqarishlari uchun yoʻnalishlar berish;
- ✓ munozara oʻtkazish tartibini belgilash;

Tarbiyalanuvchilar bilan ijodiy hisobot: MTT tarbiyalanuvchilarida milliy gʻurur hissini shakllantirish yuzasidan ota-onalarga pedagogik bilimlar berishda zarur deb hisoblangan ishlardan biri qilingan ishlarning ijodiy xarakterdagi hisobotlarni tayyorlashdir. Ijodiy hisobotning oʻziga xosligi shundaki, tarbiyalanuvchilar milliy gʻurur hissini tarbiyalash ishida ota-ona-bola-tarbiyachi hamkorligidagi faoliyat koʻrinishida tayyorlanishidir. Ijodiy hisobotni bolalarga xos milliy musiqiy oxanglar, teatr tomoshalariga sayohat, tabiat qoʻynidagi sayohatlar, oilaviy bayram, sport musobaqalari, maʼrifiy suhbatlar, kichik viktorinalar tarzida tayyorlash va ularni jamlanmasidan kichik roliklar, foto suratlar ketma-ketlik jamlanmasini ham tayyorlash mumkin. Bu oʻz navbatida tarbiyalanuvchilarni bilimni mustahkamlashga xizmat qilish bilan birga, ularda milliy gʻurur, faxr, iftixor hissini faollashishiga olib keladi. Maktabgacha taʼlim

tashkiloti, oila va mahalla hamkorligi asosida bolaga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning o'ziga xos xususiyatlari pedagogik jihatdan malakali, maksadga muvofiq omillariga hamda keng imkoniyatlariga ega. MTT, oila va mahalla hamkorligi asosida avlodlar vorisligini ta'minlash yotadi. Vorislikni ta'minlashning muhim omili oila qadriyatlariga asoslanishdan iborat. Eng muhimi yoshlar ongiga, shuuriga kattalarga hurmat, ishda, odamlar bilan munosabatda, ota-onadan o'rnak olish, tarbiya, mehnat, insonparvarlik, vatanparvarlik qadriyatlarini chuqur o'rganish va ularga amal qilish, umr boqiyiligini ta'minlashdek muhim ishni amalga oshirish bugungi ijtimoiy ehtiyojga aylanib qolishiga erishish zarur. Bolaning yosh xususiyatlarini hisobga olish muhim pedagogik tamoyil sifatida alohida ta'kidlab o'tiladi. Mazkur tamoyilga tayangan holda tarbiyachilar bolaga taqdim etiladigan materiallarni tartibga soladilar va topshiriqlarni me'yorlashtiradilar. Shu asosda bolani intellektual rivojlantirishga xizmat qiladigan kun tartibi belgilanadi. Bolaning yosh xususiyatlari ta'limiy materiallarni to'g'ri tanlash va to'g'ri taqsimlash imkonini beradi. Shuningdek, ta'limiy tarbiyaviy faoliyatining shakllari va metodlarini tanlash uchun ham qulaylik tug'diradi.

Maktabgacha ta'lim sohasiga alohida e'tibor qaratish, nazoratni kuchaytirish, bu borada hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qonun va hujjatlar hamda normativ ko'rsatmalarni samarali bajarish uchun oila, MTT, mahalla hamkorligi faoliyati o'ziga xos pedagogik tizim uslub va shakllarga egadir. Hamkorlikda o'tkaziladigan tadbirlar har tomonlama puxta ishlangan, shuning bilan qatnashchilarning yoshlariga mos pedagogik-psixologik mujassamlashgan mantiqan teran, qiziqarli va ko'rgazmali, ta'sirchan, ommabop amaliy jihatdan qisqa va lo'nda, estetik jihatdan keng ko'lamli bo'lishi kerak. Hamkorlik tadbirlari quyidagi mavzularda bo'lishi mumkin.

1. MTT, oila va mahalla hamkorligidagi shaxs tarbiyasining mazmuni va mohiyatini anglash;

2. "Oila", MTT, "mahalla"-jamiyatning negizi, ajralmas qismi sifatida ko'rish;

3. Mahallaning yosh avlod tarbiyasidagi o'rni, vazifasi;

4. Bolalar tarbiyasida oila, mahalla va MTTning o'rni va roli;

5. MTT oila va mahalla hamkorligida olib boriladigan ishlar mazmuni;

Maktabgacha ta'lim tashkilotining "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturida bolaning rivojlanishining kompetensiyalari quyidagi sohalarga bo'lingan:

Jismoniy rivojlanish va sog'lom turmush tarzining shakllanishi;

Ijtimoiy - hissiy rivojlanishi;

Nutq, muloqot, o'qish va yozish malakalari;

Bilish jarayonining rivojlanishi;

Ijodiy rivojlanish.[10]

Maktabgacha ta'lim tashkilotida tashkil qilinadigan ta'lim-tarbiya jarayonlari ayni shu beshta sohani takomillashtirishga yo'naltiriladi. Bunda turli didaktik manbalar: yosh xususiyatlari hisobga olgan holda ta'limiy-tarbiyaviy dasturlar, metodik qo'llanmalar, milliy ma'naviy-madaniy meros namunalari, badiiy parchalar, rolli senariylar, o'yinlar muhim o'rin tutadi.

“Maktabgacha ta'lim tashkiloti”, “Oila” va “mahalla” tushunchalari bir-biri bilan chambarchas bog'liq. Bu bog'liqlik jamiyatning oilalar va ta'lim tashkilotlarisiz mavjud bo'lmasligi, o'z navbatida ularning ma'lum bir jamiyat tarkibida vujudga kelishi va yashovchanligida ko'rinadi. Har bir oilada o'zaro hurmat, insoniy munosabatlar muhiti yaratilishini qo'llab - quvvatlaydi. Oila, MTT va mahalla o'rtasidagi ijtimoiy munosabat uch tomonlama aloqadorlik xususiyatiga ega. Har bir oila umumjamiyat talablari asosida faoliyat yuritadi. Jamiyat taraqqiyotining rivoji esa uning bag'rida mavjud bo'lgan oilalarning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy qiyofasining shakllanganlik darajasiga bevosita bog'liqdir.

Oila, bolalar uchun asosiy tarbiya muhiti bo'lib, bu muhitda shaxs kamoloti uchun muhim hisoblangan odob-axloq, xarakter va dunyoqarash shakllanadi. Tarbiyachilar oila timsolida jamiyatning ijtimoiy-ma'naviy qiyofasini ko'radi, jamiyat talablari mohiyatini ilk bora shu kichik jamoa orasida, oilaviy munosabatlarni tashkil etish jarayonida anglaydi.

Oila tarbiyasi - ota-onalar farzand kamoloti, ularning har tomonlama yetuk, sog'lom va fidoiy etib tarbiyalashga yo'naltirilgan pedagogik jarayondir. Oilaviy munosabatlar farzandlarning aqliy, ruhiy kamolotini ta'minlab, ota-onalarda o'ziga xos faollikni yuzaga keltiradi. Farzandlarning bevosita ta'siri tufayli oilaning faoliyat doirasi kengayadi, o'zaro aloqalari mazmunan boyib boradi, real hayot mohiyatini chuqurroq anglash, farzandlar kamoloti, kelajagi timsolida o'z umri davomiyligini ko'rish holati ro'y beradi.

Shaxsning ma'naviy, axloqiy sifatlarga ega bo'lishi, unda milliy g'urur hissi, ma'naviy bilimlarni egallashga nisbatan ehtiyoj va qiziqishning paydo bo'lishida oila tarbiyasi asosiy rol ni bajaradi. Oilada qaror topgan sog'lom ma'naviy-ruhiy muhit bolalarning yetuk, barkamol bo'lib voyaga yetishlarida katta ahamiyatga ega.


Sharqda qadimdan oila tarbiyasiga yuqori baho berib kelingan. Oilalar Islom dini asosida qurilgan, aynan bola tarbiyasida ham Islom dinining muqaddas manbalari – “Qur'oni karim” va “Hadisi Sharif”lar asosida tarbiyalangan. Oila qurishdan ko'zlangan asosiy maqsad – farzand ko'rish, ularning komil insonlar bo'lib voyaga yetishlarini ta'minlash ekanligidir. Sobiq itifoq davrida esa oilaning shaxs tarbiyasida tutgan o'rni inkor etilib, uni ijtimoiy borliq vositasida tarbiyalashga harakat qilindi, bu o'z navbatida oilani jamiyatda tutgan o'rnini

birmuncha pasayishiga olib keldi. Respublikamiz mustaqillikka erishgan yillaridan boshlab yana oila va unda farzand tarbiyasi, milliy o'zlikni anglash tuyg'usining qaror topganligi, o'tmish qadriyatlarini o'rganishga bo'lgan qiziqishning ortganligi oilaning shaxs kamolotida tutgan o'rni va rolini xolisona baholash imkonini berdi. Davlatning oilaga nisbatan g'amxo'rliqi qabul qilinayotgan qonun va qarorlarda o'z ifodasini topmoqda. Respublikada 1997 yilda "Oila" ilmiy-amaliy Markazi tashkil etilganligi, o'z o'rnida 2020 yil 18 fevraldagi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga muvofiq "Mahalla va oilani qo'llab quvatlash" vazirligining tashkil qilinishi buning yorqin dalilidir. Oila tarbiyasi bolalar uchun ibrat maktabi vazifasini o'taydi. Bola uchun oilada kun tartibini to'g'ri tashkil qilish muhim ahamiyat qasb etadi. Oila muhitida, oila a'zolari bilan birgalikdagi jismoniy tarbiya bolalarni jismoniy jihatdan chiniqtirish, ularni tozalik va ozodalikka o'rgatish, o'z sog'ligi uchun g'amxo'rlik qilish har bir topshiriqqa mas'uliyatli bo'lishni ta'minlashga qaratilgan harakatlarning mazmunini ifoda etadi. Oilada bolalar ota-onalar yoki oilaning katta a'zolarining mehnatini qadrlashni, ota-ona uchun ko'mak berish, oilaning yoshi ulug' insonlariga nisbatan hurmat hissi aynan oiladan boshlanadi.

Pedagog olimlarimizdan O.Musurmonova, J.Hasanboev, O.To'raeva, K.Xoshimov, M.Inomova, O.Hasanboeva, U.Mahkamov, Sh.Shodmonova, Sh.Atajonova[88, 150, 115, 139, 73, 151, 86, 130, 156]lar o'z ilmiy tadqiqotlarida bolalarni barkamol inson qilib tarbiyalashda ko'zlangan maqsadlarga erishishda oila, mahalla, maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab hamkorligining pedagogik xususiyatlari, shakl va metodlari haqidagi o'z qarashlarini imkoniyat doirasida yoritib berganlar. Jumladan, pedagog olim M.Inomova oila, mahalla faoliyatining ahamiyati va jamiyatda tutgan o'rni haqida quyidagilarni bildiradi. "Hozirgi kunda yoshlarni ma'naviy-ahloqiy shakllantirishda oila, mahalla hamkorligidagi tarbiyaviy ish nihoyatda dolzarbdir" [151] deya ta'kidlaydi. Oilani mustahkamlash uning turmush darajasini oshirish, oila a'zolari jumladan bolalarni sog'lig'ini yaxshilash hozirgi kunning eng dolzarb muammolaridan biridir. Oilani mustahkamlashda yosh avlodni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashga, ularning barcha imtiyozlaridan to'la foydalanishga, qulay sharoit yaratish lozimligini bugungi kundagi tub o'zgarishlarni ko'rsatib turibdi. Farzandlar kelajagimiz, ertangi kunimiz vorislarimizdir. Biz oiladan boshlab shu kelajakni yaratish poydevorini mustahkamlab borishimiz talab etiladi.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida inson va uning ma'naviyati, huquqi, turmush tarzi qonun asosida kafolatlanib qo'yildi. Demak, har bir inson uchun muhim bo'lgan insonparvarlik g'oyalari, ma'naviy-axloqiy qarashlar, umuminsoniy va milliy qadriyatlar asosida shakllantirish davlat ahamiyatidagi masalalarning biriga aylandi. Mana shunday masalalarni hayotga

tatbiq etish va uni amaliyotda qo‘llash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida” gi qonuni qabul qilindi. qonunda maktabgacha yoshdagi bolalarni ta’lim-tarbiyasining sifatiga, qamroviga katta ahamiyat berildi. Mazkur qonunda ota-onalar va oilani boshqa a’zolari shaxsning jismoniy, ma’naviy kamoloti aql-zakovat jihatidan rivojlanishga asos solishlari lozim. Ota-onalar yoki oilani boshqa a’zolari ularning o‘rnini bosuvchi shaxslar bolaning tarbiyasi va ma’lumotini oilada oshish uchun imkoniyat yaratib berishga kirishi muhimligi va zaruriyati aytib o‘tilgan. Bugungi kunda Vatan taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shish uchun, halol mehnat qilish, milliy ma’naviy qadriyatlarimiz, urf-odatlarimizni asrab avaylash mamlaktimizning har bir fuqarosining burchidir. Oila mahalla, keng jamoatchilik va ustoz, tarbiyachilarning asosiy burchi bugungi kun va jahon standartlariga javob beradigan ma’naviy yetuk, jismonan sog‘lom, milliy ong va tafakkuri shakllangan barkamol shaxsni tarbiyalashni taqozo etadi. Bularning barchasi hamkorlik faoliyati tarbiya vositasi sifatida tarbiyalanuvchilarni maktabga sifatli tayyorlashni zaruriyat qilib qo‘ydi. Bu holatga MTT, oila va mahalla hamkorligi asosida juda sinchkovlik bilan yondashishlari taqozo qilinadi. 2.3.7-rasmda milliy g‘urur hissini shakllantirishning asosiy zaruriyatlari yaqqol ko‘rsatib berilgan.



### 2.3.7-rasm. MTT, oila va mahallaning hamkorlik faoliyati.

O‘zbekistonning buyuk kelajagi oiladan boshlanadi. Kelajakning buyukligini ta’minlash mezonlaridan biri o‘zlikni anglashni shakllantirish, milliy ong va milliy g‘urur hissini tarkib toptirish, jahon sivilizatsiyasining eng yorqin sahifalaridan o‘rin olgan milliy madaniyatimizni tiklashda faollik, tashabbuskorlik,

ijodkorlik va mehnatsevarlikni qaror toptirish oilaning kundalik ehtiyojlaridan biriga aylanishni taqozo etadi. Madomiki, shunday ekan, oila MTT, va mahalla hamkorligida endigina hayotga qadam qo'yib kelayotgan bolalarning ongiga shunday tushunchani singdirish kerakki, mamlakatimiz kelajagi avvalo ularning kuch-qudratlariga, bilim va sabotlariga g'ayrat shijoatiga, fidokorliklariga mehnatsevarliklariga bog'liq ekanligini tushunib yetsinlar.

Zero bugungi O'zbekiston mustaqilligining mustahkamligi uning kelajagi ravnaqi avvalo uning fuqarolariga, ularni amaliy faoliyatiga, ma'naviy-ahloqiy barkamolligiga, g'oyaviy-siyosiy yetukligiga milliy o'zligini qanchalik anglay olishiga ko'p jihatdan bog'lik. Bunda esa o'z-o'zidan ma'lumki oila MTT, mahalla hamkorligida singdirilgan tarbiya muhim ahamiyat kasb etadi. Bu tarbiyada yurtimizda yetishib chiqqan allomalarning, buyuk siymolarning ta'lim tarbiyaga oid ma'naviy merosi asos bo'lib xizmat qilsa foydadan xoli bo'lmas edi. Shuning uchun har bir oila va maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yosh avlodni barkamol inson qilib tarbiyalashda milliy tarbiya usullariga yondashish va ularni yuksak darajaga ko'tarish, imkonini beradi. Zero milliy tarbiyaning asosini Islom dini va mutafakkirlarimizning boy merosi ta'minlab beradi. O'zbek oilalarining mustahkamligi va baxt-saodati ham aslida milliy ma'naviy an'analar, va asrlar davomida shakllangan qadriyatlarga bog'liqdir. Tadqiqot ishimizdan maqsadimiz maktabgacha ta'lim tashkilotlarida yosh avlodga ta'limiy tarbiyaviy faoliyatda milliy ma'naviy merosimiz asosida mustaqil hayotga yo'llanma berishdan, ularni maktab ta'limiga sifatli tayyorlash, ularda o'z yurti, muqaddas Vatani va shu yurtda yetishib chiqqan buyuk ajdodlarga munosib avlod bo'lish, milliy g'urur, faxr, iftixor hissini shakllantirishdan iborat.

## **II bob yuzasidan xulosa.**

Respublikamiz o'z mustaqilligiga erishgandan so'ng, unutilgan milliy qadriyatlarimiz, urf-odat, an'analarimiz, jumladan, o'zbek millatiga xos ajdodlar merosiga bo'lgan hurmat ehtirom qayta tiklana boshladi. Ajdodlar qoldirgan moddiy-madaniy, ma'naviy boyliklarga hurmat, avvalam bor, oiladan boshlanadi. "“Bola otana qo'lida bir omonatdir”, deydi buyuk allomalarimiz. Bolalarimiz, ularning taqdiri, kelajagi haqiqatdan ham juda omonat ekanini bugungi hayot har tomonlama isbotlamoqda. Agar farzandimizga to'g'ri tarbiya bermasak, har kuni, har daqiqada uning yurish-turishi, kayfiyatidan ogoh bo'lib turmasak, ularning ilmu hunarga o'rgatmasak, munosib ish topib bermasak, bu omonatni boy berib qo'yishimiz hech gap emas” [12.480] degan yurtboshimiz Sh.Mirziyoevning ta'kidlari oila bola tarbiyasi uchun muhimligini yana bir bor ko'rsatmoqda. *Oilada bola namuna tarbiyasini oladi, oilada kattalarga hurmat, ajdodlar qoldirgan moddiy, ma'naviy madaniy meros haqida tushuncha berib borish shakllangan bo'lsa, buning*

*natijasida bola o'zligini anglay boshlaydi. Milliy qadriyat va an'ana, urf-odatlariga sodiqlik fazilatlari shakllanib boradi. Natijada ularda milliy g'urur, faxr, iftixor hissining shakllanishiga olib keladi.* Bu jarayonda yetakchi sub'ektlar ota-onalar, bobo-buvi va qarindoshlarning faoliyati ko'zga tashlanmasa-da, biroq bolalarning buyuk siymolar haqida bilishida oila yetakchi o'rin egallaydi. Oilada ota-onalarning tarix o'tmish haqidagi bilimga ega bo'lishi, alloma, buyuk siymolar haqida bolalarga ma'lumot berishlari, ona Vatanni sevish va ajdodlaridan faxrlanish, milliy g'urur hissini shakllantirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

MTT katta va tayyorlov guruhda buyuk siymolar bilan tanishtirish orqali milliy g'urur hissini shakllantirish maqsadida "Ajdodlarga munosib avlod"[134] variativ dasturini ishlab chiqishdan maqsad maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarni buyuk siymolar bilan tanishtirish orqali, ularda milliy, umuminsoniy va ma'naviy qadriyatlar bilan tanishtirish, ularni intellektual rivojlantirish, bolalarda yuqori ma'naviy, odob-ahloq asoslarini shakllantirish, ularda Vatanga muhabbat hislarini uyg'otish, milliy an'analarga, ajdodlar merosiga hurmat e'tiborini yanada oshirish, tarbiyalanuvchilarning jismoniy va ruhiy sog'lig'ini mustahkamlash, bolalar qalbida o'z yurtida yashab ijod qilgan allomalar hayotidan o'rnak olish, ularning ma'naviy merosiga voris ekanligidan faxr, iftixor, g'urur hissini shakllantirish, tarbiyalashdan iborat. Mamlakatimizdagi milliy g'oya, xalqimizning madaniyati, milliy qadriyatlari, urf-odatlari, Islom diniga asoslangan.

Tadqiqotimiz doirasida ishlab chiqib, amaliyotga joriy etgan "Ajdodlarga munosib avlod" dasturimizda belgilangan maqsad va vazifalar tizimli ravishda amalga oshirilsa, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida maktabga tayyorlov va katta guruh bolalarni buyuk siymolar bilan tanishtirish orqali ularda milliy g'urur, faxr, iftixor, milliy qadriyatlar va ahloqiy fazilatlar asosida tarbiyalash, xalqimizning azaliy an'alariga, udumlariga sodiq bo'lishga oid ta'lim-tarbiya berish darajasini yuksalishiga zamin bo'lib xizmat qiladi.

### **Boblar bo'yicha xulosa.**

1. Buyuk siymolar bilan tanishtirish orqali bolalarda milliy g'urur hissini shakllantirishga imkon beruvchi shart-sharoitni aniqlash muhim pedagogik ahamiyat kasb etishi nazariy va amaliy jihatdan aniqlandi.

2. Buyuk siymolar bilan tanishtirishga bag'ishlangan tadbirlar vositasida bolalarda milliy g'urur hissi, ajdodlar merosi, ajdodlar kasb-kori, ularning yuksak ma'naviy-ahloqiy sifatlariga munosib avlod bo'lish fazilatlari pedagogik jihatdan asoslandi.

3. Buyuk siymolar bilan tanishtirish orqali bolalarda milliy g'urur hissini shakllantirishga yo'naltirilgan tajriba ishlarining aniq maqsad va mazmuni puxta ishlangan metodika asosida tashkil qilinishi tadqiqot farazi to'g'riligini asoslab berdi.

4. Buyuk siymolar bilan tanishtirishda hamkorlik ishlarini, tajribalari o'rganilib, hamkorlikda ushbu tajribalarni ommalashtirish yetakchi omil ekanligi aniqlandi.

5. Tajriba-sinov ishlari natijalarining tahliliga ko'ra, buyuk siymolar bilan tanishtirish orqali bolalarda milliy g'urur hissini shakllantirishda bolalarning maktabgacha ta'limda olgan bilimlari va ma'naviy-ahloqiy ko'nikmalari muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

### **Umumiy xulosa.**

Tadqiqotimiz doirasida, maqsadli tarbiyaviy ta'lim tizimi har qanday jamiyatning harakatlantiruvchi kuchi, ijtimoiy-siyosiy turmushning ma'naviy-g'oyaviy poydevori ekanligiga yana biri bor amin bo'ldik. Tarbiya jarayoni dastlab oila, mahalla, maktabgacha ta'lim, bilan chambarchas bog'liq. Tarbiya jarayonining tizimi va aniq maqsadga yo'naltirilgan mexanizmi millat va alohida-alohida shaxs barkamol qiyofasini shakllantirishning birdan bir omilidir. Albatta bunda oila, maktabgacha ta'lim tizimi alohida ahamiyatga ega. Chunki, har qanday inson dunyoga kelgan ondan boshlab bir jihatdan genetik imkoniyatlar, biologik, fiziologik va jismoniy omillar ikkinchi jihatdan esa aniq muhit, uning axloqiy-ma'naviy darajasi ta'sirida o'sadi, rivojlanadi, shakllanadi, ma'lum darajadagi fe'l-atvor, xarakter xususiyatiga ega bo'ladi. Tadqiqotimiz doirasidagi ishlar tarbiyalanuvchilarda milliy g'urur hissini shakllantirishga qaratilgan edi, buyuk siymolar bilan tanishtirish bolalarda milliy g'urur, faxr, iftixor, ajdodlar bilan faxrlanish hissi kompleks tarbiyaning muhim qismi ekanligiga yana bir bor amin bo'ldik. Buyuk siymolar bilan tanishtirish orqali bolalarda milliy g'urur hissini shakllantirish. amaliy ehtiyoj doirasida vujudga kelgan o'zbek millati vaqt o'tgani sayin o'z nazariy-ilmiy asoslariga ega bo'ldi. O'rta Osiyo xalqlari qadimdan turli shakl va mazmundagi milliy g'urur hissini yaqqol ko'rsatadigan ajdodlar namunasini yaratishga muvaffaq bo'lganlar. Milliy g'urur hissiga oid asarlarni o'rganib tahlil etish maqsadida tarixshunoslik, tilshunoslik, ijtimoiy falsafa, demografiya va etnografiya fanlarida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlar va fundamental asarlar o'rganildi. Tadqiqot davomida shunga guvoh bo'ldikki, Sharqda, xususan O'zbekistonda buyuk siymolar bilan tanishtirishning o'ziga xos tajribasi va maktabi mavjud. Ushbu tajriba ijtimoiy-gumanitar fanlarning ayrim sohalarida birmuncha o'rganilgan. Lekin buyuk siymolar bilan tanishtirish orqali bolalarda milliy g'urur hissini shakllantirish metodikasini takomillashtirish pedagogik muammo sifatida o'rganilmagan. Pedagog olimlar o'tmishdagi xalq merosini o'rganishda turli yo'nalishlarda tadqiqot olib borgan bo'lsalarda, buyuk siymolar bilan tanishtirish orqali bolalarda milliy g'urur hissini shakllantirish tarbiya vositasi ekanligi pedagogik muammo sifatida muhim ilmiy ahamiyat kasb etmoqda. Shu o'rinda yurtboshimiz Sh.Mirziyoevning "Sizlarga yaxshi ma'lum,

mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohot va o'zgarishlar, keng ko'lamli dasturlar yagona va ulug' bir maqsadga qaratilgan. U ham bo'lsa, xalqimiz hayotini yanada obod va farovon qilish, farzandlarimizni har tomonlama yetuk va barkamol etib tarbiyalashdan iborat" [12.412] degan fikrlari bizning bugungi kundagi maktabgacha ta'lim tizimidagi maqsadimizni belgilab bermoqda.

Maktabgacha ta'lim tizimida o'z navbatida oila, mahala hamkorligi mavjud bo'lib, ma'lumki oila jamiyatning kichik va birlamchi bo'lagidir. Ayni paytda u aniq maqsadlar atrofida uyushgan itifoqdir, bu intifoqdan dunyoga kelgan har bir yangi avlod, o'zi alohida bir olam, yangi kashfiyotdir, millatning, elatning davomchilari shaksiz kelajak avlodidir, kelajak avlodni, ajdodlarga munosib qilib tarbiyalab yetishtirish oila a'zolarining zimmasidagi muhim vazifadir.

Buyuk siymolar bilan tanishtirish orqali bolalarda milliy g'urur hissini shakllantirish metodikasini takomillashtirish yechimini topishda tarixiy manbalar, adabiyotlar, etnografik tadqiqotlar bilan tanishish, bolalar tarbiyasidagi mavjud holati barkamol inson tarbiyalashning muhim vositasidir.

### **Tavsiyalar.**

Buyuk siymolar bilan tanishtirish orqali bolalarda milliy g'urur hissini shakllantirish bo'yicha quyidagi amaliy tavsiyalar berildi:

- Bolalarni buyuk siymolar bilan tanishtirish orqali milliy g'urur hissini shakllantirish haqidagi tasavvurlarini rivojlantirish bo'yicha ilg'or tajribalarni o'rganish.
- Maktabgacha ta'lim tashkilotlarda bolalarni buyuk siymolar bilan tanishtirish orqali milliy g'urur hissini shakllantirishga oid tasavvurlarini rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlar metodik majmuasini ishlab chiqish.
- metodik majmua asosida bolalarning buyuk siymolar bilan tanishtirish orqali milliy g'urur hissini shakllantirishga oid tasavvurlarini rivojlantirish bo'yicha mashg'ulotlarni tayanch maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tajriba sinov tariqasida o'tkazish.
- .Tajriba sinov natijalari bo'yicha "Ilk Qadam" Davlat o'quv dasturi asosida bolalarning buyuk siymolar bilan tanishtirish orqali milliy g'urur hissini shakllantirishga oid tasavvurlarini rivojlantirish bo'yicha variativ dastur ishlab chiqish .
- "Ilk Qadam" Davlat o'quv dasturi asosida ishlab chiqilgan variativ dasturini ta'lim-tarbiya jarayoniga tatbiq etish bo'yicha tarbiyachilar uchun pedagogik yo'riqnoma ishlab chiqish va treninglar tashkil qilish.
- "Ilk qadam" Davlat o'quv dasturi asosida ishlab chiqilgan variativ dastur bo'yicha barcha maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilish.
- Maktabgacha ta'lim tizimidagi malaka oshirish kurslarida mashg'ulot olib

boruvchi o'qituvchilarga bolalarning buyuk siymolar bilan tanishtirish orqali milliy g'urur hissini shakllantirish eksperimentlar – amaliy tajribaga oid tasavvurlarini rivojlantirish bo'yicha zamonaviy pedagogik texnologiyalarini o'rgatish.

➤ Buyuk siymolar bilan tanishtirish orqali bolalarda milliy g'urur hissini shakllantirish bo'yicha zamonaviy ko'rgazmali va tarqatma materiallar, didaktik o'yinlar, elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqish va amalda tatbiq qilish

g

g'urur hissini shakllantirishga yo'naltirish;

u

r

g

,

## **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.**

### **I. Normativ-huquqiy hujjatlar.**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017-2021 yillarda maktabgacha ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2016 yil 29 dekabrda PQ-2707-son qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim vazirligi to‘g‘risidagi nizomni hamda maktabgacha ta’lim tashkilotlari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti ustavini tasdiqlash haqida” to‘g‘risidagi 2017 yil 19 iyuldagi 528-son qarori.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish” to‘g‘risidagi 2017 yil 30 sentabrda PQ-3305-son qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimi boshqaruvini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari” to‘g‘risidagi 2017 yil 30 sentabrda PF-5198-son Farmoni.
5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim vazirligining markaziy apparati tuzilmasini takomillashtirish” to‘g‘risidagi 2017 yil 7 noyabrda PQ-3378-son qarori.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” 2019 yil 8 mayda PQ-4312-son qarori.
7. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirishni tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2017 yil 28 dekabrda 1026-son qarori.
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2019 yil 13 mayda 391-son qarori.
9. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablarini tasdiqlash haqida Maktabgacha ta’lim vazirining 2018 yil 18 iyundagi 1-mh-son buyrug‘i.
10. “Ilk qadam”. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari davlat o‘quv dasturi. Tuzuvchilar: I.V.Grasheva, L.G.Yevstafeva, D.T.Mahmudova, Sh.B.Nabixonova, S.V.Pak, G.E.Djanpeisova. – T.: MTV, 2018. – 69 bet.
11. Mirziyoev Sh.M. Bilimli avlod – buyuk kelajakning, tadbirkor xalq – farovon hayotning, do‘stona hamkorlik esa taraqqiyotning kafolatidir.–Toshkent: “O‘zbekiston”, NMIU, 2018.– 64 b.
12. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: O‘zbekiston, 2017. – 592 b.
13. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga

quramiz. – Toshkent: “O‘zbekiston”, NMIU, 2017. – 488 b.

14. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. T.: Ma’naviyat, 2008.

15. Karimov I.A., O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. – Toshkent.: O‘zbekiston, 1996. -362 b

## **II Kitoblar, monografiyalar, maqolalar to‘plami.**

16. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari: 1 jild Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. – 304 b.

17. Abu Ali ibn Sino. Ta’lim va tarbiya to‘g‘risida. –Toshkent: O‘qituvchi, 1992. –104 b.

18. Abu Ali ibn Sino. Kanon vrachebnoy nauki. Toshkent - 1985.–262.

19. Asqarxo‘jaeva M. Bog‘chalarda o‘zbek tilini o‘rganish. Bolalar bog‘chasi tarbiyachilari uchun metodik qo‘llanma. -T.: O‘qituvchi – 1994, 128 b.

20. Avloniy. Turkiy guliston yoxud ahloq. –Toshkent: O‘qituvchi, 1992. – 160 b.

21. Azarov Yu.P. Oila pedagogikasi.– Toshkent: O‘qituvchi, 1998. – 272 b.

22. Asqarova M., Matchonov S. va b. Kichik yoshdagi bolalar nutqini o‘stirish. – Toshkent “O‘zbekiston” - 2001, 160 b.

23. Al-Buxoriy, Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil. Hadis. 4 kitob. 1-k. Al-Jomiy as-sahih (Ishonarli to‘plam) /Arabchadan Z.Ismoil tarj. –Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 1991. – 560 b.

24. Amir Temur. Ko‘ragon jangnomasi. –Toshkent: Cho‘lpon, 1990. – 329 b.

25. Amir Temur va Ulug‘bek zamondoshlari xotirasida / B. Ahmedov, U.Uvatov, G‘.Karimov . – Toshkent: O‘qituvchi, 1996. – 299 b.

26. Asqarov A. Oilada bola tarbiyasi.– Toshkent: O‘zbekiston, 1973. – 24 b.

27. Ahloq – odobga oid hadis namunalari. – Toshkent: Fan, 1990. – 172 b.

28. Ahmedov B. Ulug‘bek. – Toshkent: Fan, 1994. – 40 b.

29. Ahmedov B. Amir Temur. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1995. – 640 b.

30. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. – Toshkent: O‘qituvchi, 1994. – 427 b.

31. Ahmedov B., Alimov, A. Amir Temur o‘g‘itlari: (to‘plam). –Toshkent: Navro‘z, 1992. – 64 b.

32. Arnautova Ye.P. Pedagog i semya. M., 2001.

33. Arnautova Ye.P. Planiruem rabotu s semey // Upravlenie DOU. 2002. № 4. 10-18 s.

34. Asmolov A.G. Psixologiya XXI veka i rojdenie variativnogo obrazovatel'nogo prostranstva v Rossii // Novoe vremya i novaya didaktika / A.G.Asmolov. — M., 2001.

35. Afanaseva T.P., Nemova N.V. Profilnoe obuchenie: pedagogicheskaya sistema i upravlenie. Kniga 1. Sistema profilnogo obucheniya starsheklassnikov: Metodicheskoe posobie / Pod redaksiyey N.V.Nemovoy. - M.: APK i PRO, 2004.

73 s.

36. Bayoniy. Shajarayi Xorazmshohiy.–Toshkent: Fan, 1991.– 460 b.
37. Beruniy Abu Rayhon. Mineralogiya – Moskva: 1963. – 518 b.
38. Beruniy Abu Rayhon. Ruhiyat va ta’lim-tarbiya haqida. – T.: 1992.
39. Bobomurodov A. Islom odobi va madaniyati. – Toshkent: Cho’lpon, 1995. – 176 b.
40. Babaeva D.R. “Nutq o‘stirish nazariyasi va metodikasi”. Darslik, Toshkent, 2018.
41. Bobur Z.M. Boburnoma - Toshkent: Yulduzcha, 1960. – 514 b.
42. Bo‘riev, O. Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo. – Toshkent: O‘zbekiston, 1997. – 198 b.
43. Batalov A.S. «Marketing obrazovatelных uslug». Internet-sayt [www.supermarketing.narod.ru](http://www.supermarketing.narod.ru).
44. Bern E. Lider i gruppа. O strukture i dinamike organizatsiy i grupp. – Yekaterinburg: Izd-vo «Litur», 2000. – 320 s.
45. Belaya K.Yu. Yejednevnik starshego vospitatelya DOU. M.: AST, 2002.
46. Bertold V. V. Istoriya izucheniya Vostoka v Yevrope i v Rossii. – Sankt–Peterburg: tip. M.M.Stasyulevicha, 1991.– 282 s.
47. Bilimdon (qisqa muddatli guruhlar uchun dastur). // Tuzuvchilar: L.G. Yevstafeva, I.V. Grosheva, S.S. Mirdjalilova, M.N. A’zamova.-Toshkent, 2014. - 168 S.
48. Bogoslaves L.G. Motivatsionnoe programmno-selevoe upravlenie.
49. Variativnost doskolnogo obrazovaniya i razvitie seti doskolnых obrazovatelных uchrejdений. M., 2008.
50. Golubev N.K. Vvedenie v diagnostiku vospitaniya / N.K. Golubev, B.P. Bitinas. - M.: Pedagogika, 1989. – 157.
51. Gulyamov D.R, Umarova M.X., G‘ulomova N.B. “Pedagogik diagnostika va korreksiya”. Metodik qo‘llanma, Toshkent, 2018.
52. Galiev Sh.O‘zbek bolalari o‘yin folklori. T.: Fan, 1998. -141 b.
53. Galperin P. Ya. Vvedenie v psixologiyu: Uchebnoe posobie dlya vuzov. 2-ye izd. M. : Universitet, 2000. 336 s.
54. Gippenreyter Yu.V. Obщatsya s rebenkom. Kak? – M.: Mass Media. 1995. – 240 s.
55. Gonina O.O. Psixologiya doskolnogo vozrasta. 2015.
56. Davron X. Somon yo‘li.–Toshkent: Kamalak. 1992. – 192 b.
57. Donishmandlar odo-bahloq to‘g‘risida. – Toshkent: O‘qituvchi, 1986. – 134 b.
58. Davletshin M.G. Yosh davrlar va pedagogik psixologiya asoslari. -Toshkent: TDPU, 2006. – 43 b.

59. Donishmandlar tarbiya to'g'risida / Arab, fors va boshqa sharq tillaridan Shorasul Zunnun tarj.; To'pl. va nashrga tayyor: A.Zunnun. –Toshkent: O'qituvchi, 1982. – 176 b.
60. Denyakina L.M. Predshkolnoe obrazovanie: idei, poiski, resheniya // Metodist. – 2008. № 1. – 61–65 s.
61. Detskiy sad i semya / pod red. T.A.Markovoy.- 2-ye. izd-ye. -M.: Prosveteniye, 1986. - 207 s.
62. Djamilova N.N. “Maktabgacha ta’limda metodika fanlarini o’qitish texnologiyasi”. O’quv qo’llanma, Toshkent, 2017.
63. Djanpeisova G.E. “Maktabgacha yoshdagi bolalarning elementar geometrik tasavvurlarini shakllantirish va rivojlantirish usullari”. Uslubiy qo’llanma, Toshkent, 2017.
64. Dubrova V.P., Milashevich Ye.P. Organizatsiya metodicheskoy raboty v doshkolnom uchrejenii. M., 1995.
65. Djuraeva B.R., Tojiboeva H.M., Nazirova G.M. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga ta’lim-tarbiya berishning zamonaviy tendensiyalari // Toshkent, - O’zPFITI. – 2015. 112 bet.
66. Dyui Dj. Individualizatsiya obucheniya shkolnikov. – Chikago., 1991.-19 s.
67. Ziyomammedov B., Abdullaeva Sh. Pedagogika. – Toshkent.: O’zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat nashriyoti, - 2000. – 66-69 betlar.
68. Zvereva O.L., Krotova T.V. Obshenie pedagoga s roditelyami v DOU: Metodicheskiy aspekt. - M.: TS Sfera, 2009. - 80 s.
69. <sup>1</sup> Zahiriddin Muhammad Bobur Boburnoma. T.:-«Yulduzcha» 1990.-368 b
70. Lyutova Ye.K., Monina G.B. Trening effektivnogo vzaimodeystviya s detmi. - S-Pb. - Rech, 2001. – 156.
71. Inoyatov M. Oila, ijod, tarbiya va ma’naviya-Toshkent. –Toshkent: Sharq, 2000. –111b.
72. Ivanin M. Ikki buyuk sarkarda. – T.: Yangi asr avlodi, - 2018 y.- 304 b.
73. Inomova M.O. Oilada bolalarni ma’naviy axloqiy tarbiyalashda milliy qadriyatlar. – Toshkent: Fan, 1995. – 266 b.
74. Inomova M.O. Farzand nihol, ota-ona bog’bon. – Toshkent: O’qituvchi, 1993. – 56 b.
75. Yo’ldoshev J., Hasanov S. “Avesto”da ahloqiy-ta’limiy qarashlar. Toshkent: O’qituvchi, 1992. – 112 b.
76. Kaykovus Qobusnoma. – Toshkent: O’qituvchi, 2006. – 193 b.
77. Karomatov, H. Qur’on va o’zbek adabiyoti. – Toshkent: Fan, 1993. – 91b.
78. Karimova, V. Mehr va muruvvat oiladan boshlanadi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004. – 28 b.

79. Kayumova N. "Maktabgacha pedagogika", O'quv qo'llanma, Toshkent 2013.
80. Marsel Brion Menkim sohibqiron – jahongir Temur. -T.: Yangi asr avlodi, - 2018. - 572 b.
81. Mavlonova R., To'raeva O., Xoliqberdiev K. Pedagogika. – Toshkent.: O'qituvchi, 2008 yil. – 495 b.
82. Mirkarim Osim. Ajdodlarimiz fojeasi. – Toshkent: G'. G'ulom, 1983. – 269 b.
83. Muqaddimayi Zafarnoma O'zbekiston FA Sharqshunoslik Instituti qo'lyozmasi. In 1 1520-1 596-62 a.
84. Mahkamov S. Islom dini va oila tarbiyasi / Mas'ul muharrir. –Toshkent: G'. G'ulom nom. Adabiyot va san'at nashr, 2000. – 31 b.
85. Mirzo Ulug'bek. To'rt ulus tarixi.– Toshkent: Cho'lpon, 1994. – 460 b.
86. Mahkamov U. Axloq-odob saboqlari.- Toshkent: Fan, 1994. – 134 b. 90-bet.
87. Montessori M. Deti - drugie /Per. s nem./ Vstup. i zakl. stati, komment. K.Ye.Sumnitelnyy. - M.: Karapuz, 2004. - 336 s.
88. Musurmonova, O. Oila ma'naviyati-milliy g'urur: o'quv qo'llanma.– Toshkent: O'qituvchi, 1999. – 200 b.
89. Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent.: O'qituvchi, 1996. – 192 b. - 5 bet.
90. Mirzaev T. O'zbek tilining izohli lug'ati / T. Mirzaev. – Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2008.– 608 b.
91. Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim atamalarining izohli lug'ati. //tuzuvchilar O. Musurmonova va boshq.-T.: bekinmachog-Plyus, 2011. -260 b.
92. Maktabgacha yoshdagi bola shaxsini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim asoslari // Tuzuvchilar F.N. Vaxabova, Sh.B Nabixanova, D.T. Karimova.-T.: - 2015.-170 S.
93. Ma'naviyat asosiy tushunchalar izohli lug'ati. - Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010.-760 b.
94. Muxsieva A. "Oila pedagogikasi", O'quv qo'llanma, Toshkent 2018
95. Navoiy A. Hayratul-abror. – T.: Adabiyot va san'at nashriyoti, -1989.-352 b.
96. Narshaxiy Abu Bakr Muhammad ibn Ja'far. Buxoro tarixi// Fors-tojik tilidan A.Rasulov tarjimasi. - T.: Fan. 1966.
97. Nemova N.V. Upravlenie metodicheskoy rabotoy v shkole. M., 1999.
98. Otamuratov S., Rahimov J., Husanov S. Ma'naviyat asoslari.-Toshkent, 2000. – 228 b. - 194 bet.
99. Pedagogika tarixi / Mualliflar jamoasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1996.– 448 b.
100. Pedagogika tarixidan xrestomatiya: / Tuzuvchi va muallif O. Xasanboeva; Pedagogika instituti talabalari uchun qo'llanma.– Toshkent: O'qituvchi, 1993. –

2008 b.

101. Rahimov S. Abu Ali ibn Sino Ta'lim - tarbiya, haqida. –Toshkent: O'qituvchi, 1967. - 98 b.

102. Rubinshteyn S.Ya. Eksperimentalnye metodiki patopsixologii. - M., 1999. - 448 s.

103. Rizouddin ibn Faxruddin. Oila. – Toshkent: Mehnat, 1991. – 59 b.

104. Rumer, Goden. Gulbadan.– Toshkent: Sharq, 2007. – 129 b.\

105. Radugin A. «Pedagogika» Moskva: Izdatelstvo «Sentr», 2005.– 448 s.

106. Рыданова I. I. Основы pedagogiki obsheniya.– Minsk: Belorusskaya nauka, 1998. - 319 s.

107. Sodiqova Sh.A. “Maktabgacha pedagogika”. Darslik, Toshkent, 2017.

108. Solodyankina O.V. Vospitanie rebenka s ogranichennymi vozmojnostyami zdorovya v seme.-M.: ARKTI, 2007.- 80 s.

109. Sterkina R.B. Kachestvo doshkolnogo obrazovaniya i osnovnye tendensii yego izmeneniya // Doshk. vospitanie. - 1996 - № 6.

110. Sulaymonov A. va b. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida applikatsiya mashg'ulotlari. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2014. – 100 b.

111. Sulaymonov A., Amirova G. Maktabgacha ta'lim muassalaridagi tasviriy faoliyat mashg'ulotlarining nazariy va amaliy asoslari/ “Xalq ta'limi” j. 2013, 1-son.–54 –60-b

112. Solnseva O. Igraem v syujetnye igrы // Doshkolnoe vospitanie. - 2005. - №5. - M. - S. 63 - 67.

113. Sorokova M.G. Sovremennoe doshkolnoe obrazovanie: SShA, Germaniya, Yaponiya. M., 1998.

114. Temur tuzuklari, - T.: “Sharq”, 2005. -160 b

115. To'raeva O. Oilaviy hayot etikasi va psixologiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1990. – 223 b.

116. Tojiboeva H.M. Maktabgacha ta'lim tashkiloti va oila o'rtasidagi hamkorlikni rivojlantirish masalalari // Ta'limning uzviyligi va uzluksizligini ta'minlash – soha taraqqiyotining muhim mezon: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (6-kitob). Toshkent, TDIU, 2015. – B. 81-83

117. To'raqulov E., Rahimov S. Abu Rayhon Beruniy: Ruhiyat va ta'lim-tarbiya haqida. – Toshkent: O'qituvchi, 1992. – 62 b.

118. Uilyam Erskin. Bobur Hindistonda: Bobur hukumronligi davridagi Hindiston tarixi. – Toshkent: Cho'lpon, 1995. – 110 b.

119. Uvatov U. Donolardan saboqlar. – T : Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1991.– 104 b.

120. Usmonxo'jaev T.S., Islomova S.T. «Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jismoniy tarbiya» «Ilm Ziyo» nash. T.: 2006
121. Fayziev T. Zahiriddin Muhammad Bobur va uning avlodlari. – Toshkent: Yozuvchi, 1996.– 215 b.
122. Fayziev T. Temuriylar shajarasi . – Toshkent: Yozuvchi, 1995. – 352 b.
123. Farobiy Abu Nasr. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Abdulla Qodiriy nomli xalq merosi nashriyoti, 1993. – 229 b.
124. Fitrat Abdurauf. Tanlangan asarlar. 1-jild. Ilmiy asarlar. –Toshkent: Ma'naviyat, 2000. – 254 b.
125. Fitrat Abdurauf. Tanlangan asarlar. 2- jild. Ilmiy asarlar. – Toshkent: Ma'naviyat, 2000. –173 b.
126. Fayzullaeva M., Z.Rahimova, M.Rustamova Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini o'stirish // (Tayyorlov guruhi uchun mashg'ulotlar ishlanmasi) Toshkent, 2011. 147 b
127. Farobiy. Fozil odamlar shaxri. - T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1993. - B. 11-19.
128. Fitrat Abdurauf. Oila yoki oila boshqarish tartiblari /2-nashri. Toshkent: Ma'naviyat, 1998. – 112 b.
129. Fausek Yu.I. Montessori bolalar bog'chasi /Tuzuvchilar: S.I. Sumnitelnaya, K.Ye. Sumnitelnaya – M.: Karapuz-Didaktika, 2007, 240 b.
130. Shodmonova Sh. "Maktabgacha ta'lim pedagogikasi", O'quv-met. qo'llanma, T.2008
131. Shaexova, R.K. Predshkolnoe obrazovanie i samotsennost perioda detskogo razvitiya // Nachalnoe obrazovanie. – 2008. № 4. – S. 21-
132. Sharipova D.J. «Ota-onalarga maktabgacha yoshdagi bolalarning gigienik tarbiyasi haqida» Ilm Ziyo nash. T.: 2007
133. Shodieva Q.S. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish. - T.: O'qituvchi – 1995., 226 b.
134. Ergasheva N. Ajdodlarga munosib avlod. Variativ dastur.
135. Xudoynazarov H. "Shajarayi turk" va uning o'rganilishi. –Toshkent: O'qituvchi, 1993. – 128 b.
136. Xayrullaev M.M. O'tmish mutafakkirlari ta'lim tarbiya haqida / Xalq pedagogikasi – inson kamolotining asosi. 1-kitob. – Toshkent: O'zPFITI, 1992.– 324 b.
137. Xasaniy M., Qilicheva K. G'ijduvoniylar ilmiy ahillari xotirasida.–Toshkent: Fan, 2003. – 220 b.
138. Xoliqov D. Turkona an'ana – millat ko'rki. – Toshkent: Mehnat, 1998. - 116 b.

139. Xoshimov K., Nishonova S., Inomova M. "Pedagogika tarixi". –Toshkent: O'qituvchi, 1996. – 446 b.
140. Yusuf Xos Xojib. Qutadg'u bilig: (Saodatga yo'llovchi bilim) / Hozirgi o'zbek tilida bayon qiluvchi va so'z boshi muallifi B.To'xliev. – Toshkent: Yulduzcha, 1990. – 192 b.
141. Yusupova P. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi. - T.: "O'qituvchi", 1993., 264 b.
142. O'zbek tilining izohli lug'ati. A-D / 5 jildli. Birinchi jild. A.Madvaliev tahriri ostida. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Davlat ilmiy nashriyoti. 2006. – 679 b.
143. O'zbek tilining izohli lug'ati. Ye-M / 5 jildli. Ikkinchi jild. A. Madvaliev tahriri ostida. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. 2006. – 671 b.
144. O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. – Toshkent: "Fan" nashriyoti. 1996. – 350 b.
145. Qurbonov Sh., Seytxalilov E. va boshqalar. Milliy istiqlol g'oyasini shakllantirishda tashkiliy-uslubiy yondoshuvlar. – Toshkent: Akademiya, 2002. - 280 b.
146. Qodirov B. Komil inson tarbiyasining pedagogik asoslari.– Toshkent: Mehnat, 2001. – 195 b.
147. Qodirova. F.R. va boshq. Maktabgacha pedagogika (o'quv qo'llanma). T.: "Ma'naviyat", 2013.
148. Qodirova F.R., Qodirova R.M. "Maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi tilni o'rgatish metodikasi". O'quv-metodik qo'llanma. Toshkent 2004.
149. Quronov M. O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim maktablarida milliy tarbiyaning ilmiy-pedagogik asoslari. Ped.fan.dok. - Toshkent: O'zPFITI, 1998.- 316 b. - 196-bet.
150. Hasanboev J. To'raqulov X, Haydarov M, Hasanboeva O, Usmanov N, Pedagogika fanidan izohli lug'at. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2009. –672 b.
151. Hasanboeva O. Pedagogika tarixi xrestomatiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1993. – 210 b.
152. Hasanboeva O. Oila pedagogikasi.- Toshkent: Aloqachi, 2007. – 315

### **III. Dissertatsiya va avtoreferatlar**

153. Abduraximova D.A. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarni axloqiy ruxda tarbiyalashda xalk ertaklaridan foydalanish: dis. ped. fan. nom. / D. A. Abduraximova. O'zR Oliy va O'rta maxsus ta'lim vazirligi . – Toshkent: 1998. – 165 b.
154. Askarova U. Mexribonlik uydari o'smirlarida milliy g'ururni tarbiyalashning pndagogik xususiyatlari. Ped.fan.nom. ...diss.- Toshkent, 2001-112

b.

155. Adujalilova Sh.A. Abdurauf Fitratning oila tarbiyasiga oid qarashlari: ped. fan. nomzodi dis. avtoreferati / Sh. A. Adujalilova O‘zR Xalq ta’limi vazirligi.– Niyoziy nom. O‘z. Ped. Fan ilmiy tadqiqot in-ti.–Toshkent: 2005. – 22 b.
156. Atadjanova Sh. Oilada o‘spirin-yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda milliy qadriyatlardan foydalanishning pedagogik asoslari: Ped.fan. nomzodi dis. avtoreferati / Sh. Atadjanova; O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, TDPU.–Toshkent: 2001.–19 b.
157. Abrajeev A. I. Literaturnoe znachenie Shadjarai Turkiya Abulgazi Bagadurxana - kan. dis. / A. I. Abrajeev. – Samarkand: 1944. – 122 s.
158. Abdullaevaning N., Maktabgacha ta’limni variativ yondashuv asosida takomillashtirish. Ped.fan.dok. ...diss.avtoreferati. –Toshkent, 2019.- 23 b.
159. Azizovning “Qo‘g‘irchoq teatri vositasida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish. Ped.fan.dok. ...diss.avtoreferati. –Toshkent, 2020.- 27 b.
160. Berdieva M. “Maktabgacha ta’lim tashkilotlari tarbiyalanuvchilarini pedagogik qo‘llab-quvvatlash asosida intellektual imkoniyatlarini rivojlantirish. Ped.fan.dok. ...diss.avtoreferati. – Toshkent, 2020.- 23 b.
161. Berdialieva G. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari nutq o‘stirish mashg‘ulotlarida bolalarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish tizimi. Ped.fan.dok. ...diss.avtoreferati. – Toshkent, 2019. - 26 b.
162. Begmatova N. X. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida multimediyaga texnologiyasidan foydalanishning ilmiy-metodik asoslari. Ped. fan. nomz. ...diss. –Qarshi, 2012. –150 b.
163. Valixo‘jaeva F.B. Talabalarni MTMda bolalarga estetik tarbiya berishga tayyorlash. // Dissertatsiya. Samarqand – 2005y., 139 b.
164. Mamadalieva N.S. Abulg‘oziy Boxodurxonning “Shajarayi turk” asari leksik xususiyatlari: dis. filolog. fan. nom. / N. S. Mamadalieva; O‘zR Oliy va O‘rta maxsus ta’lim vazirligi Samarqand Davlat un-ti .– Toshkent: 2004. – 134 b.
165. Munavvarov A.K. Pedagogicheskie usloviya rovysheniya effektivnosti semeynogo vospitaniya. dis dok. ped. nauk / A. Munavvarov – Toshkent. – 1989.
166. Nazirovaning G. Maktabgacha ta’lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni takomillashtirish. Ped.fan.dok. ...diss.avtoreferati. – Toshkent, 2019.- 45 b.
167. Raximov J. O‘quvchilarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda tarixiy o‘lkashunoslik manbaalaridan foydalanishning pedagogik asoslari. Ped.fan.nom. .. diss.. -Toshkent, 1996. 151 b.
168. Raximova S. Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarining malakasini

- oshirish mazmunini takomillashtirish. Ped.fan.dok. ...diss. avtoreferati. – Toshkent, 2020. - 56 b.
169. Ro‘zieva D. Oliy ta’lim tashkilotlari talabalarida milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari. Ped.fan.dok. ... diss. Avtoreferati.- Toshkent: O‘zPFITI, 2007. – 28 b.
170. Rejаметова N. “O‘zbek xalq cholg‘ulari vositasida bolalar ijodkorligini shakllantirish texnologiyalarini takomillashtirish. Ped.fan.dok. ...diss.avtoreferati. – Toshkent, 2019.- 27 b.
171. Redjaboev A.D. yoshlarning milliy istiqlol g‘oyasi asosida harbiy Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash. (O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Respublika qurolli kuchlari bosh qo‘mondoni akademik I.A.Karimov asarlari misolida) ped.fan.nom. ... diss. Toshkent, 2004. – 204 b.
172. Tojiboeva H.M.O‘quvchi yoshlar ijtimoiy faolligini oshirishning pedagogik tizimi:pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasi/ Tojiboeva H.M.Toshkent: 2008.-169b
173. Shodmonova Sh. S. Oilada kichik maktab yoshidagi bolalarni milliy qadriyatlar asosida axloqiy tarbiyalashning pedagogik asoslari: ped. fan. nom. dis. / Sh . S. Shodmonova –Toshkent: 2001.–176 b.
174. Quronov M. O‘zbekiston umumiy o‘rta maktablarida milliy tarbiyaning ilmiy-pedagogik asoslari. Ped.fan.dok... diss Toshkent: O‘zPFITI,1998.-316 b.
175. Qurboniyozova Z. Tarbiviy ishlar jaayonida o‘quvchilarda milliy o‘zlikni anglashni shakllantirishning pedagogik asoslari. (Qoraqalpoq maktablarining 7-9-sinflari misolida). Ped.fan.nom... diss. Avtoreferati. Toshkent, 2002.-24 b.
176. Muslimov N.A. Kasb ta’limi o‘qituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari: Pedagogika fanlari doktori. ... diss. - T., 2007. - 315 b.
177. Ortiqov N., Milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida o‘quvchi shaxsini ahloqiy shakllantirish. Ped.fan.dok. ...diss. – Toshkent, 2000. – 305 b

#### **IV Ilmiy maqolalar**

178. Ergasheva N.I. Ajdodlarni xotiralash vositasida bolalarda milliy g‘urur hissini tarbiyalash // “Uzluksiz ta’lim” ilmiy uslubiy jurnal.–Toshkent, 2010.– №1. - B.75-76. (13.00.00; №9)
179. Ergasheva N.I. Ajdodlar shajarasi asosida bolalarda g‘urur hissini tarbiyalash // “Xalq ta’limi” ilmiy metodik jurnal. –Toshkent, 2010. -№1. - B.84-87. (13.00.00. №17)
180. Ergasheva N.I. Milliy g‘urur hissini tarbiyalashni maktabgacha tarbiya yoshidan boshlaymiz // “Bola va zamon” jurnal. – Toshkent, 2020. - № 2. – B.55-56. (13.00.00. №14)

181. Ergasheva N. Significance of preschool training and education system reformation // Eastern European Scientific Journal. 2020. №3 – R.100-107.(13.00.00; №1)
182. Ergasheva N. Fostering a sense of national pride and patriotism among students by introducing great figures Scientific Journal “European Science” № 4 (53). 2020
183. Ergasheva N. Maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy ahloqiy tarbiyasida avlodlar shajarasidan foydalanish // Maktabgacha ta’limda yangi pedagogik va axborot texnologiyalarini tatbiq etishning dolzarb masalari Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. Qarshi 2010. 150-153 b
184. Ergasheva N. Oilada barkamol avlodni tarbiyalashda ajdodlar merosining tutgan o‘rni // “Naselenie Uzbekistanasovremennnoe sostoyanie i novye gorizonty razvitiya” Toshkent, 2014. S.174-177.
185. Ergasheva N Ajdodlar shajarasida barkamol avlod tarbiyasi nomli Uslubiy qo‘llanma. - Toshkent 2010 yil. 60 b.
186. Ergasheva N Milliy-ma’naviy qadriyatlar va komil inson tarbiyasi// Metodik qo‘llanma IT-8-108 “Yoshlarda moddiy va ma’naviy hayot uyg‘unligini ta’minlash muammo va vazifalari” granti asosida yaratildi. Toshkent 2011 yil. B.168.
187. Ergasheva N Maktabgacha ta’lim tashkilotlari pedagog xodimlarining malakasini oshirish jarayonida malaka oshirish o‘quv dasturlarini takomillashtirib borish omillari// Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Samarqand. 2019. B.42-45.
188. Ergasheva N Yoshlar tarbiyasida oilaning o‘tmishi va kelajagi tutashgan nuqta // “Yuksak ma’naviyatli oila yosh olimlar nigohida” ilmiy maqolalar to‘plami. - Toshkent 2010. B.94-98.
189. Ergasheva N. Jaloliddin Manguberdi faoliyati bilan tanishtirish orqali bolalarda milliy g‘urur hissini tarbiyalash. “Maktabgacha ta’lim metodikasi va nazariyasi” jurnali №1 Toshkent 2020. B.28-29.
- [http://fikir.uz/blog/Fikr\\_maktabgacha\\_talim/7611.html](http://fikir.uz/blog/Fikr_maktabgacha_talim/7611.html)
- <http://uznet.biz/bolajonim/psixologiya/6-yoshli-bolalarni-maktabgatayyorligini-aniqlash-boyicha-metodik-tavsiya>
- <http://www.educationsystems.info/>
- <https://galitravel.ru/doshkolnoe-obrazovanie-v-yaponii/>
- <https://mama.ru/articles/metodika-marii-montessori/>
- <https://vseobr.com/detskoe-obrazovanie/doshkolnoe>
- <https://www.bookyourstudy.com/ru/osobennosti-doshkolnogo-obrazovaniya-v-germanii>

**Ilova**

**BUYuK SIYMOLARNING TARJIMOIIY HOLLARI**

**Yusuf Hamadoniy**

Yusuf Hamadoniy rahmatullohi alayhi Hamadon shahrida 440 hijriy sanada tug‘ilganlar. U zotning to‘liq ismlari Abu Ya‘qub Yusuf ibn Husayn ibn Ayyub Hamadoniydir. Yusuf Hamadoniy rahmatullohi alayhi tasavvufning yirik namoyandasi, buyuk olim edi. Bog‘dodda Abu Is‘hoq Sheroziydan tahsil olgan. Isfahon, Samarqand, Buxoroda ilmlarini oshirganlar. Tasavvufni Abu Ali Formadiy, Abdulloh Juvayniy va Hasan Simnoniylardan oladilar. Zamonasining buyuk allomalari Abdul Qodir Giloniy, G‘azzoliy, Hamiduddin Multoniylar bilan muloqatda bo‘lganlar. 30 marotaba Haj ziyoratiga borganlar.

Yusuf Hamadoniy rahmatullohi alayhi Buxoroda uzoq muddat yashab, Ahmad Yassaviy va Abdul Qodir G‘ijduvoniy va boshqa mashoyixlarga ustozlik qilganlar va keyinchalik Xojagon Naqshbandiyya tariqatining ayrim qoidalarini ishlab chiqqanlar. Xoja Abdulloh Barroqiy Xorazmiy, Xoja Hasan Andoqiy Buxoriy,

Ahmad Yassaviy, Abdul Xoliq G'ijduvoni Yusuf Hamadoni rahmatullohi alayhidan so'ng uning xalifalari sifatida muridlarning tarbiyasi bilan shug'ullanganlar.

“Rutbatul hayot” (“Hayot mezon”), “Kashf”, “Risola dar odobi tariqat”, “Risola dar axloq va munajat” kabi asarlar yozganlar. “Hayot mezon” risolasi o'zbek tilida nashr qilingan (Toshkent, 2003).

Yusuf Hamadoni rahmatullohi alayhi 18 yoshlarida Hamadondan Bag'dodga keladilar. U yerda Abu Ja'far ibn Maslama, Abdus Somad ibn Mamun, Ibnul Muhtadiy billah, Xatib Abu Bakr, Ibn Hizormard, Ibn Nuqud, Abu Hattob Muhammad ibn Ibrohim Tobariy, Ahmad ibn Muhammad ibn Fazl Forsiy va boshqa bir necha ulamolardan ilm olganlar. Yusuf Hamadoni rahmatullohi alayhi silsila omonatini Abu Ali Farmoniy rahmatullohi alayhdan olganlar.

Abu Sa'd Sam'oni aytdilar: “U zot taqvodor, parhezkor, ibodatgo'y, ilmiga amal qiluvchi, hol va maqomlar sohibi edi. Uning karvonsaroyida Alloh taologa yaqinlik hosil qilish uchun dunyo ishlaridan uzilgan muridlar yashaganlar”. 506 yili bog'dodga keladilar. Keyinchalik Marvda yashaganlar. So'ng Hirotga safar qilganlar. U yerda bir necha yil yashaganlar. Shundan so'ng Marvga qaytdilar. So'ng yana Hirotga ikkinchi bor safar qiladilar. Yo'lda ketayotib “Bag'shur” yaqiniga yetganlarida vafot etadilar.

Yusuf Hamadoni rahmatullohi alayh o'z suhbatlarida mashoyihlarning hikmatli so'larini ham ko'p ishlatar edilar. U kishining himmatlari oliy edi. Yusuf Hamadoni rahmatullohi alayh Hirot bilan Marvning orasida borib kelib turar va va'zu nasihatda davom etar edilar. U kishidan istifoda etganlardan besh odam buyuk shayh va tariqat namoyandalari bo'lib yetishdilar. Ular: Xoji Ubaydulloh Barkiy, Xoja Hasan Antokiy, Xoja Ahmad Yassaviy, Xoja Abdulxoliq G'ijduvoni va Xoja Hakim Sano'iydirlar. Hazrati Xoja Bahouddin Naqshbandning bosh xalifalari Muhammad Porso hazratlari o'zlarining “Faslul Xitob” nomli kitoblarida Yusuf Hamadoni rahmatullohi alayhining har biri bir kitobga teng keladigan hikmatli so'zlaridan bir qismini to'plaganlar.

Hijriy 535 sanada Marvda vafot etganlar. Xoki Bomiyondan Marv shahriga olib kelinib, qayta dafn etilganlar. Abdul Xoliq G'ijduvoni, Fariduddin Attor, Abdur Rahmon Jomiy, Alisher Navoiy asarlarida Yusuf Hamadoni rahmatullohi alayhi haqida ma'lumotlar uchratish mumkin.

### **Ahmad Yassaviy**

XII asrda Markaziy Osiyoda paydo bo'lgan ilk tasavvufiy tariqatning asoschisi Xoja Ahmad Yassaviy 1105 yilda Sayramda, Shayx Ibrohim oilasida

dunyoga kelgan. Uning vafot etgan vaqti ko‘pgina qo‘lyozma manbalarda 1167 yil deb yozilgan. Ahmad yoshligida onasidan, so‘ng otasidan ajraladi. Yassaviy tarbiyasi bilan opasi Gavhar Shahnoz mashg‘ul bo‘ladi. Yassaviy opasi bilan Yassiga ko‘chib borgach, 1-ustoz Arslon bob bilan uchrashadi va undan tahsil oladi («Yetti yoshda Arslon bobom izlab topdim...»). Ahmad dastlabki ta‘limotini Yassida mashhur olim Shahobiddin Isfijobiydan oladi. So‘ngra bobosi Arslonbob ko‘rsatmasi bilan Buxoroga borib Yusuf Hamadoniyan ta‘lim oladi. Ahmad Yassaviyning o‘zi ustoz Yusuf Hamadoniyaning huzuriga 23 yoshda borganini va uning tarbiyasiga noil bo‘lganligini e‘tirof etadi. Buxoroda u arab tili bilan bir qatorda fors tilini ham chuqur o‘rganadi. Forsiyda yaratilgan tasavvufiy adabiyot bilan tanishadi. Xoja Abduxoliq G‘ijduvoni, Abdulloh Barqiy, Xoja Hasan Andoqiylar bilan hamsuhbat va hammaslak bo‘lib, Yusuf Hamadoniyaning muridlari qatoridan o‘rin oladi. Alisher Navoiy Yassaviy to‘g‘risida «Maqomoti oliy va mashhur, karomoti matavoliy va nomahsur ermish. Murid va ashob g‘oyatsiz va shohu gado aning irodat va ixlosi ostonida nihoyatsiz ermish», — deydi. Bu fikr Yassaviyning Yassiga qaytib kelib, yangi bir tariqatga asos solgan murshid sifatida shuhrat topgan davrlariga tegishlidir. Yassaviy turkiy xalqlarni islomga yanada kengroq jalb qilish va tasavvuf g‘oyalarini omma ko‘ngliga chuqur singdirish maqsadida she‘riyatdan ham foydalangan. Abdurauf Fitratning ta‘kidlashicha, Yassaviyning «adabiyotda tutgan yo‘li sodda xalq shoirlarimizning tutg‘on yo‘lidir... Uning hikmatlari vaznda, qofiyada, uslubda xalq adabiyoti atalgan she‘rlar bilan barobar». Yassaviy nuqtai nazarida hikmat — «ilmi laduniy», ya‘ni ilmi g‘aybu haqoyiq va ilohiy sirlarni kashf aylash mazmuniga ham ega. Yassaviyning o‘zi «Devoni hikmat» nomi bilan biron bir kitob yaratmagan. Ushbu nodir asar uning murid va izdoshlari tomonidan tartib berilgan. Lekin bu narsa hikmat majmuasining Yassaviyga aloqasi yo‘q, degan da‘voni ilgari surishga asos bermaydi. So‘fi Olloyor Yassaviy haqida fikr bildirib, yana shundaydegan:

***Shariatda edi ul oftobe***

***Qolibdur bizga ul erdin kitobe.***

«Devoni hikmat»da ilohiy ishq va oshiqlik, ma‘rifat va oriflik saodati, fanodan baqoga yetishish tushunchalari nihoyatda samimiy va ta‘sirli ohanglarda yoritib berilgan. «Devoni hikmat»dagi barcha she‘rlar ham Yassaviyga mansub emas. Unga Yassaviy izdoshlarining ijod namunalari ham kiritilgan. Bu esa, tabiiyki, hikmatlar tili va uslubida ma‘lum o‘zgarishlar hosil qilgan. Lekin Yassaviyning o‘nlab izdoshlaridan hech biri ustozlari boshlagan g‘oyaviy, axloqiy, ma‘naviy-ma‘rifiy va mafkuraviy yo‘nalishni o‘zgartirmagan. Buni Yassaviy hayoti, tariqati va ijodiyotidan bahs yuritilgan o‘nlab qadimiy manbalar, ayniqsa, Sulton Ahmad Haziniyning «Javohir ul-abror min amvojil bihor» asari ham to‘la tasdiqlaydi.

Yassaviyning faqat ijodiyoti emas, qancha umr ko‘rib, qachon vafot etganligi ham bahsli. U hikmatlaridan birida «Yuz yigirma beshga kirdim, bilolmadim», deydi, bu so‘zlar tarixiy haqiqatdan ko‘ra, manolibiy mazmunga ega. Bundan tashqari, 125 yillik uzoq bir umrning yarmidan ko‘pini «yer osti»da o‘tkazish aql bovar etmas hodisadir. Rivoyatlarga ko‘ra, Yassaviy 63 yoshga yetgach, yer ostida hujra yasatib, “chilla”ga kirgan, («Oltmish uchda yer ostiga kirdim mano», deydi Yassaviy) qolgan umrini toat-ibodat qilib, qimmatli hikmatlar yozib, riyozatlar chekib, yer ostida o‘tkazgan. Lekin ko‘pchilik tadqiqotchilar uning vafot tarixini 1166—67 yil deb qayd etishgan.

### **ABU RAYHON BERUNIY**

Muhammad ibn Ahmad – Beruniy o‘rta asrning buyuk ensiklopedist olimi va o‘z zamonasining bilimdoni edi. U yoshligidan astronomiya, fizika, matematika, geodeziya, geologiya, mineralogiya kabi fanlarga qiziqib, ularni puxta egallab olgan.

Abu Rayxon Beruniy 973 yil 4 sentabrda (hijriy 362 yil 2 zulhijja) Xorazmning qadimiy poytaxti Kot (Kat) shahrida tug‘ilgan. Ota-onadan juda yetim qolgan Beruniy yaxshi odamlar qo‘lida tarbiyalangan. Yoshligidan ilm-fanga, tabiatga qiziqqan. U kamtarin, odobli, haqgo‘y, oliyjanob inson bo‘lgan. Beruniy ona tilidan tashqari arab, so‘g‘diy, fors, suryoniy, yunon va qadimgi yahudiy tillarini ham chuqur egallagan.

U tabiat hodisalarini ilmiy asosda izohlab bera olgan. 22 yoshida Xorazmdan chiqib ketib Afg‘oniston, Hindistonda yashagan. Abu Rayhon Beruniy ilm-fanning homiysi, muxlisi edi. Beruniy qaysi mamlakatda yashagan bo‘lmasin, o‘sha yerni, xalqini chin dildan sevgan, urf-odatini, an‘analarini o‘rgangan. Beruniy yerning dumaloq shaklda ekanligini birinchi bo‘lib isbotlagan. U besh metr keladigan globus yaratib, dunyo xaritasini chizgan. Dunyoning qaerida qanday qazilma boyliklar borligini izohladi. Beruniy tarixiy obidalar, yodgorliklar va dorivor o‘simliklar haqidagi asarlar yaratib qoldirgan. Uning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Ma’danshunoslik”, “Mas’ud qonuni” va boshqa asarlari bizgacha yetib kelgan. Xalqimiz ulardan ilm-fan ravnaqi yo‘lida foydalanmoqda.

Beruniy ma’rifatparvar olimlar, ziyolilar qattiq ta’qib ostiga olinayotgan bir davrda yashaganligiga qaramay 150 dan ortiq asar yozib qoldirgan. Xalqimiz Beruniy nomini e’zozlamoqda, undan meros qolgan asarlarni o‘rganmoqda. Respublikamizda ko‘pgina joy nomlari, ilmgohlar, ko‘chalar Beruniy nomi bilan atalgan. Uning nomi bilan 1974 yili Respublika davlat mukofoti ta’sis etilgan. Bu mukofot fan va texnika sohasida yangilik yaratgan, samarali mehnat qilgan olimlarga, fuqarolarga beriladi.

### **ABU ALI IBN SIN**

Sharqning buyuk allomasi Abu Ali ibn Sino 980 yilda Buxoro yaqinidagi Afshona (Vobkent tumani) qishlog'ida tug'ilgan.

Ibn Sino iste'dodli va xotirasi o'tkir bo'lgan. U 10 yoshidayoq, Qur'oni Karimni yod olgan. O'sha vaqtda diniy ilmlar keng targ'ib qilinib, dunyoviy ilmlar bilan shug'ullanish gunoh hisoblanar edi. Shunday vaziyatda ham ilm o'rganishdan tolmaydi. 10-13 yoshlaridan boshlang'ich matematika, mantiq, falsafa ilmlarini mukammal egallay boshlagan.

18 yoshga kirganda esa, tibbiyot sohasida yetuk mutaxassis tabib-hakim bo'lib tanildi. U somoniylarning amiri Nuh Ibn Mansurni davolaydi. Evaziga saroy kutubxonasidagi noyob kitoblarni o'qish uchun ruhsat oladi. Natijada u mashhur ensiklopedist olim, huquqshunos, shoir, faylasuf va dunyoga taniqli hakim bo'lib yetishadi. U turli mavzularga oid bo'lgan 280dan ortiq asar yaratgan. Shulardan 40 tasi meditsinaga oid. "Tib qonunlari" hozirgacha tibbiyot ilmi uchun katta poydevor vazifasini o'tab kelayotgan manbalardan biridir.

Sharqda uni "Shayh-ul-ra'is", G'arbda esa Avitsena deyishadi.

Ibn Sino 1037 yil 18 iyun oyida Isfahon shahrida 57 yoshida vafot etgan. Xalqimiz hali hanuz ibn Sinoning tibbiyotga oid qoldirgan davolaridan foydalanmoqda.

## **AMIR TEMUR (1336-1405)**

Amir Temur 1336 yilning 9 aprelida o'sha paytlarda Kesh (Shaxrisabz)ga qarashli Xoja Ilg'or (bu qishloq hozir Yakkabog' tumaniga qaraydi) qishlog'ida tavallud topadi. Otasi Amir Tarag'ay o'ziga to'q, badavlat kishi edi.

Amir Temur bolaligidan o'tkir zehni, mulohazali bola bo'lgan. U kattalar gapini diqqat bilan tinglagan. Kerak bo'lib qolganida, o'z fikrini odob bilan ayta oladigan, qo'rqmas, kuchli, to'g'ri so'z, g'ururli bola bo'lgan. Shu bois o'rtoqlari uni nihoyatda hurmat qilishgan. Temur o'z tengqurlari bilan birgalikda turli o'yinlar tashkil qilib, o'zi doimo boshchilik qilgan. Qur'oni Karimni yod olgan. Hadis ilmini o'rgangan. Iymon-e'tiqodli, halol, pok inson bo'lgan. Temur feodal tarqoqlikdan foydalanib, hokimiyatni qo'lga oladi. Musulmon ruhoniylari uni Samarqandda Movarounnahr amiri deb e'lon qiladilar (1370). Keyin u Samarqandni markaz-poytaxt deb e'lon qiladi va uning gullab yashnashi uchun, ilm-fan madaniyat, savdo-sotiq ishlarini rivojlantirish uchun boshqa mamlakatlardan olimlarni, me'mor, rassom, ganchkor, zardo'z va boshqa hunarmandlarni taklif etadi. Samarqandda tengi yo'q hashamatli va chiroyli tarixiy obidalar yaratadi. 1399-1404 yillar mobaynida sevimli xotini Saroy Mulk xonimga atab mashhur Bibixonim masjidini, Toshkentda bo'lganda esa, Zangiota va Shayx Zayniddin bobo maqbaralarini qurdiradi. Amir Temur dovyurak sarkarda bo'lib,

urushlarda oldingi saflarda yurib jang qilgan. U otda mohirlik qilib har ikkala qo'lida ham qilich ishlata bilgan, askarlarini sog'lom, jasur, epchil bo'lishlari uchun doimiy ravishda jismoniy mashqlar bilan chiniqtirib turgan. U nihoyatda shijoatli, dovyurak odam bo'lgan. Amir Temur – buyuk shaxs, mashhur sarkarda, davlat arbobi: qonunshunos, iqtidorli me'mor, notiq, ruhshunos, shu bilan birga, el-yurtini sevgan va uni mashhuri jahon qilgan inson.

## **MIRZO ULUG'BEK**

**(1394-1449)**

Muhammad Tarag'ay – Mirzo Ulug'bek buyuk o'zbek astronomi, matematigi, davlat arbobi. Amir Temurning suyuqli nabiralaridan biri.

Ulug'bek 1394 yili Sultoniya shahrida tug'ilgan. Uni buvisi – Amir Temurning katta xotini - Bibixonim tarbiyalagan.

Bobosi Amir Temur esa, jasoratli, kuchli, qo'rqmas bo'lishini istagan. Shuning uchun ham, uni tez-tez harbiy yurishlarga borganda o'zi bilan birga olib ketgan. Undan davlat ishlarini qunt bilan o'rganib, qabul marosimlarida ham qatnashishni talab qilgan.

Ulug'bek 15 yoshida Samarqandga hokim bo'ldi. Endi u Samarqand va Buxoroni obodonlashtirib, ko'plab madrasalar qurdiradi. Hunarmandchilik, me'morchilik va adabiyot ravnaq topishiga, ilm-fanning yuksalishiga, savdoning rivojlanishiga ahamiyat beradi.

Ulug'bek she'riyatni sevgan, tibbiyot, tarix, matematika, falsafa, musiqa va boshqalar bilan shug'ullangan. Shuning uchun ham juda ko'p vaqti kutubxonada o'tgan. Juda ko'plab kitoblarni mutoala qilgan. U asosan falakiyot (koinot) ilmiga, astronomiya faniga qiziqqan. U hukmronlik qilgan davrida Samarqandda buyuk olimlarni chaqirtirgan. Ular yordamida rasadxona qurdirgan. Ulug'bek "Zijji Ko'ragoniy" nomli astronomik jadvalini tuzdi: Quyosh va oy harakatini hisoblashda esa foydasi katta bo'lgan. Biz Ulug'bekni ko'proq olim, ilm kishisi sifatida taniymiz. Chunki u asosan ilm-fanni rivojlantirishga, olimlarni ko'paytirishga harakat qilgan. Xalqimiz Mirzo Ulug'bekni juda sevadi. Shuning uchun ham Mirzo Ulug'bek xotirasiga bag'ishlab kinofilm yaratilgan, shuningdek, "Ulug'bek" metro bekati, Ulug'bek nomidagi istirohat bog'i barpo etilgan. Hatto, Toshkent Davlat milliy universitetiga ham Mirzo Ulug'bek nomi berilgan.

## **ALISHER NAVOIY**

**(1441-1501)**

Alisher Navoiy buyuk mutafakkir, iste'dodli shoir, olim va davlat arbobi edi. Shunday oliy zot 1441 yilda Hirot shahrida tavallud topdi.

Alisher Navoiy juda ziyrak, aqlli, odobli bola bo'lgan. U uch yoshidan boshlab she'r, musiqa eshitishni nihoyatda yaxshi ko'rgan. Aqlli, g'ayratli bola bo'lganligi

uchun ham otasi uni 4 yoshga to'lganida maktabga bergan. Alisher kichkina bo'lishiga qaramay yaxshi o'qigan. 10 yoshligida Fadriiddin Attorning "Qush tili" nomli kitobini yoddan bilgan.

Alisherning Hirotda o'qishi uzoqqa cho'zilmadi. Chunki, bu yerda urush, janjallar, har xil to'polonlar boshlanib ketdi. Shuning uchun ko'pgina oilalar boshqa joylarga ko'chib ketishga majbur bo'lishdi. Alisherning otasi ham, oilasini olib, Iroqning Taft shahriga ko'chib bordi. Alisher bu yerda ham o'qishni davom ettirdi. U darsdan keyin juda ko'p kitob o'qir va qator she'rlarni yod olishga harakat qilardi. O'zi ham she'rlar yoza boshlaydi.

Alisher Navoiy o'z she'rlarida odamlarni yaxshilikka, halol mehnat qilishga, tinch-totuv yashashga, bir-birlarini hurmat qilishga, Vatanni sevishga chaqiradi. Alisher Navoiy 60 yil umr ko'rdi. O'tgan qisqa umri davomida ko'plab kitoblar yozishga ulgurdi. Uning "Hamsa" asariga kirgan "Xayrat-ul abror", "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun", "Sab'ai Sayyor", "Saddi Iskandariy" kabi besh buyuk dostoni, bir qancha go'zal hikoyatlari, she'rlari, hikmatli so'zlari odamlarni hamisha yaxshilikka yetaklaydi.

## **ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR**

**(1483-1530)**

Zahiriddin Muhammad Bobur atoqli davlat arbobi, buyuk sarkarda, shu bilan birga iste'dodli shoir, tadbirkor shoh, donishmand tarixchi, zakovatli olim va tarjimon bo'lgan. U 1483 yilda Andijon shahrida tug'ilgan. Otasi Umarshayx Mirzo temuriylardan bo'lib, Farg'ona viloyatiga hokimlik qilgan. Bobur oilada bosh farzand bo'lib, uning ikkita ukasi va beshta singlisi bo'lgan. U iste'dodli muallimlardan ta'lim olgan. Zehni juda o'tkir bola bo'lgan. U she'r, musiqa eshitishni juda yaxshi ko'rgan. Bulardan tashqari, Bobur kamonda o'q otish va qilichbozlikdan ham saboq olgan. Otasi Umarshayx halokatidan so'ng, 12 yoshli Bobur Farg'ona viloyati hukmdori etib tayinlangan. Hukmdor bo'lish yosh Bobur uchun juda qiyin edi. Unga bu masalada otaxon bek Bobo Qosimbek va onasi Qutlug' Nigorxonim juda katta yordam berishgan. Bobur umrining oxiriga qadar ko'p urush va yurishlar bilan band bo'lgan. U nihoyatda botir, jasoratli, pahlavon sarkarda edi. Janglarda hamma vaqt oldinda borib, jasurligi bilan navkarlariga o'rnak bo'lardi. Shuning uchun navkarlari uni nihoyatda hurmat qilishar, unga o'xshashga intilishardi. Bobur 16 yoshdan boshlab she'rlar yoza boshlagan.

Umrining yarmidan ko'pini vatanidan yiroqda, vatan sog'inchi bilan o'tkazgan. U qolgan umrini yurtini sog'inib yashagan. Shu bois u o'z she'rlarida vataniga bo'lgan cheksiz sog'inch va muhabbatini kuylaydi, odamlarning hayoti xafachilik bilan emas, xursandchilik, quvnoqlik bilan o'tishini, kishilar bir-birlariga faqat yaxshilik qilishlari, ilm o'rganishlari kerakligi haqida yozadi. Bizga meros bo'lib qolgan "Boburnoma" – Bobur hayotini to'la yorituvchi nodir asardir.

Maktabgacha ta'lim yoshdagi bolalarni buyuk siymolar bilan tanishtirish orqali milliy g'urur hissini shakllantirishga yo'naltirilgan "Ajdodlarga munosib avlod" mavzusidagi variativ dasturi. katta va tayyorlov guruhlar uchun (5-6 yosh)

№	Milliy g'urur hissini shakllantirishga yo'naltirilgani mavzular	Ajratilgan soat		
		nazariy	amaliy	jami
1.	Bolalarni allomalarimiz va buyuk Sharq mutafakkirlari (Beruniy, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahriddin Muhammad Bobur, ibn Sino, Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Kamoliddin Bexzod) hayoti va ijodi bilan tanishtirish. Bolalarda buyuk siymolar hayotiga bo'lgan qiziqish va muhabbatni shakllantirish orqali ular qalbida milliy g'urur, faxr, iftixor hisslarini shakllantirish.		2	4
2.	Bolalarni buyuk siymolar haqidagi badiiy asarlar bilan tanishtirish orqali ularning badiiy asarlardagi qahramonlarning hatti-harakatlari va xulq-atvorlarini to'g'ri baholash, asar qahramonlarining ijobiy fazilatlariga taqlid qilish, o'z Vatanida yetishgan buyuk insonlardan faxr, iftixor tuyg'ularini his etish, o'zligini anglash, shu millat vakili ekanligidan g'ururlanish, aks ettirilayotgan voqealar mohiyatini tushunish qobiliyatlarini shakllantirishdan iborat	2	2	4
3.	Bolalarga Alisher Navoiyning buyuk shoir, mutafakkir olim, odil, adolatparvar davlat arbobi, dono, xalqparvar, saxiy, o'z millati, va o'z Vatanini, o'z tilini judayam sevadigan inson bo'lganligi haqida ma'lumot berish. Uning bolalar yoshiga mos odob-ahloq, tarbiyaga oid, ota-onalarga, Vatanga muhabbat hissini uyg'otuvchi asarlari bilan tanishtirish.	2	2	4
4.	Bolalarni mulohaza yuritishga, to'g'ri xulosalar chiqarishga undash A.Navoiy ("Chumolining vatani", "Himmatli bo'lsang"), bolalarning non haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, nonni aziz deb bilib, uni ehtiyotlash kabi an'analarga amal qilishga undash A.Navoiyning "Non hidi" hikoyatida o'z aksini topgan, insonni saxiylik, to'g'rilik, xalqparvarlik kabi fazilatlar egasi bo'lishga chorlash mehribon inson bo'lish A.Navoiy "Sher bilan Durroj" haqidagi asaridagi yorqin tushunchalar bilan tanishtirish.	-	4	4
5.	Alisher Navoiy asarlariga nisbatan qiziqish va muhabbat hissini tarbiyalash, asarlar ("Bir kabutar"), ("Sher bilan Durroj") g'oyasini mustaqil tahlil qilib, xulosa chiqarish ko'nikmasini shakllantirish. Birovning ko'ngliga ozor bermaslik, yolg'onchilik yomon odatlardan biri ekanligi haqida tushunchalarini boyitish	2	2	4
6	Bolalarga bugungi kunda Alisher Navoiy haqli suratda jahon madaniyatining mumtoz vakillari safidan o'rin olgani, uning asarlari jahondagi yuzlab tillarga tarjima qilingani, dunyo ahli uning merosi bilan asrlar davomida qiziqayotgani, asarlarida tarannum etilgan olijanob g'oyalar va falsafiy mushohadalaridan zavq olinayotgani, shoir haykallari dunyoning turli shaharlarida jumladan Yaponiyaning Soka universiteti hovlisida, Moskva va Boku shaharlarida qad ko'targani, haqida vidiorolik orqali so'zlab berish.	-	4	4
7	Bola qalbida ajdodlarimiz hayotiga qiziqish, ular bilan faxrlanish hissini tarbiyalashda davom etish. Sharqning buyuk allomalari Abu Ali ibn Sino hayotiga qiziqish uyg'otish, faxrlanish hissini tarbiyalash ("Ibn Sino va kitoblar", "Ibn Sino shogirdlari", "Rahmatni joyiga ayt", "Donishmand ustoz", "Kulguning kuchi", "Hayvonga qalqon", "Sezgirlik", "Bola boshidan" rivoyatlari orqali ma'naviy-axloqiy sifatlarni: saxiylik, mehnatsevarlik, botirlik, jasurlik, do'stlik, mehr-oqibatni tarbiyalash.	2	2	4
8	Bolalarga Ibn Sino o'zining ko'p tarmoqli mahsuldor ijodi, boy merosi bilan jahon madaniyati taraqqiyotida katta rol o'ynagani, o'z ijodi, ilmiy faoliyatida ibn Sino katta	2	2	4

	yutuqlarga erishgani, u o'z davrida Sharqda "Tabiblar podshohi" degan eng buyuk nomga sazovor bo'lgani, "Tib qonunlari" asarining o'zi lotinchada 30 martadan ortiq nashr qilingani, Sharq xalqlarida uning to'g'risida turli hikoya, rivoyatu afsonalar vujudga kelgani, hozirda jahondagi deyarli barcha tillarda ibn Sino haqida asarlar yaratilgani haqida suhbatlar tashkil etish, video, audio roliklar orqali ma'lumot berish.			
9	<b>Mashhur sarkardalar</b> haqida ilk tushunchalar berish. Bolaning millat, Vatan tarixiga bo'lgan qiziqishini, tasavvurini shakllantirish va rivojlantirish. Zahiriddin Muhammad Boburning podshoh, shoir va buyuk sarkarda bo'lganligi haqida tushuncha berish. Bolalarda Zahiriddin Muhammad Bobur siymosiga qiziqish uyg'otish ("Bog'i Boburiy"), uning bolaligidagi fazilatlariga e'tibor qaratish maqsadida "Bobur va kabutar" asari, Mirzo Bobur tabiatiga xos bo'lgan: qat'iyatlilik, sabot, matonat, halollik kabi insoniy fazilatlariga e'tibor qaratish, asar qahramonining hatti-harakatlariga mustaqil baho berish, erkin fikrlash o'z mulohazalarini tortinmay bemalol bayon etishni o'rgatish maqsadida "G'or topildi" hikoyasi bilan tanishtirish, Zahiriddin Muhammad Boburning farzandlari bilan o'zaro munosabatlari haqida tushuncha berish, namuna sifatida ko'rsatish, Vatanga bo'lgan sadoqati, sog'inchini tarannum etadigan g'azallari bilan tanishtirish, ma'lumot berish.		4	4
10	O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng Zahiriddin Muhammad Bobur o'z yurtida haqiqiy qadr-qimmat topdi. Andijon shahrida Bobur nomida teatr, kutubxona, milliy bog' ("Bog'i Bobur") bor. Bobur milliy bog'i majmuasiga "Bobur va jahon madaniyati" muzeyi, shoirning ramziy qabr maqbarasi bunyod etilgani. Shahar markazida (muallifi Ravshan Mirtojiev) va Bobur bog'idagi yodgorlik majmuida (muallifi Qodirjon Salohiddinov) shoirga haykal o'rnatilgani, Andijondagi markaziy ko'chalardan biriga, shuningdek Toshkentdagi istirohat bog'i va ko'chaga, Andijon viloyati, Xonobod shahridagi istirohat bog'iga Bobur nomi berilgani haqida so'zlab berish.	2	2	4
11	Amir Temur mashhur sarkarda, yirik davlat arbobi, siyosatchi bo'lganligi haqida video rolik orqali ma'lumot berish. Bolalarga "Amir Temurning Jayxundan shoshilinch o'tishi" hikoyasini o'qib berish orqali Amir Temurdan faxrlanish, bolalarni botirlik, jasurlik ruhida tarbiyalash, jonzotlarga g'amxo'rliqi, ularni asrash, ularga mehr ko'rsatish fazilatlar egasi bo'lganligi haqida "Amir Temur" nomli hikoyani o'qib berish bilan bolalarda milliy g'urur, faxr va ma'naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalash, bolalarni Amir Temur o'z oldiga Samarqandni ko'rkam shaharga aylantirishni maqsad qilib qo'ygani haqidagi "Samarqand" hikoyasi bilan tanishtirish. Samarqand shaharini rolik shaklida namoyish etish orqali ma'lumot berish.		4	4
	<b>Jami:</b>	<b>1</b> <b>4</b>	<b>2</b> <b>0</b>	<b>4</b> <b>4</b>

**O'quv yili oxirida bolalarda buyuk siymolarning hayoti va ijodiga oid quyidagi ma'lumotlarni egallaganligining daraja ko'rsatkichlari % hisobida. Katta guruh (5-6 yosh) misolida.**

№	Milliy g'urur hissini shakllantirishga yo'naltirilgan buyuk siymolarning hayoti, ijodi va ilg'or qarashlarining mazmuni	O'zlashtirish ko'rsatkichlari % hisobida
1	O'zbek xalqining Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur singari buyuk siymolarni taniydilar. Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburning bolaligi haqidagi rivoyatlarni biladilar va mustaqil qayta hikoya qila oladilar	<b>81%</b>
2	Bolalarda Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi bobolarimizga nisbatan hurmat, faxrlanish, iftixor tuyg'usi tarkib topganligi	<b>72%</b>

3	Bolalarda milliy qadriyatlar, urf-odatlarimizni ulug'lash, hurmat qilish tuyg'usini shakllanganligi	80%
4	Buyuk insonlar: Al Beruniy, Abu Ali ibn Sino haqida ilk tushunchalarni egallaganligi	78%
5	Zahiriddin Muhammad Boburning podshoh, shoir va buyuk sarkarda bo'lganligi haqidagi mahlumotlarni o'rganganligi	70%
6	Amir Temurning mashhur sarkarda, yirik davlat arbobi bo'lganligi haqida tushunchalarga ega bo'lishi	71%
7	Bolalarda tug'ilib o'sgan ona-yurtida yashab ijod qilgan buyuk shaxslarga nisbatan muhabbat hissi, milliy g'urur hissi va faxr, iftixor tuyg'ulari shakllanganligi	79%
8	Buyuk siymolar haqidagi rivoyatlarni mustaqil qayta hikoya qilishlari, ular haqidagi she'rlarni ohangiga rioya etgan holda ifodali ayta olishlari	67%
9	Buyuk siymolar haqidagi rivoyatlarni sahnalashtirishda qatnashishga, rol ijro etishga ishtiyoqlari baland bo'lishi va faxr, g'urur tuyishlari;	65%
10	Buyuk siymolar haqidagi rivoyatlarni mazmuni bo'yicha beriladigan savollarga o'ylab, aniq va to'g'ri javob berishlari, fikrlarini imkon darajasida asoslab, erkin va mustaqil bayon qilish malakasiga egalik darajasi	64%

**Maktabgacha yoshdagi bolalarni buyuk siymolar bilan tanishtirish orqali milliy g'urur hissini shakllantirishga yo'naltirilgan "Ajdodlarga munosib avlod" mavzusidagi variativ dasturi. Tayyorlov guruh (6-7 yosh) misolida.**

**(davomi)**

№	Milliy g'urur hissini shakllantirishga yo'naltirilgan mavzular	Ajratilgan soat		
		Nazariy	Amaliy	Jami
1.	Bolalarni tariximiz va buyuk Sharq allomalari ( Beruniy, ibn Sino, Mirzo Ulug'bek) hayoti va ijodi bilan tanishtirish. Bolalarda buyuk siymolar hayotiga bo'lgan qiziqish va muhabbatni rivojlantirish. Bolalarda milliy g'urur hissini shakllantirishda buyuk allomalar haqidagi qarashlarni vidioroliklar orqali mustahkamlash.		2	2
2	Bolalarni buyuk siymolar haqidagi badiiy asarlar bilan tanishtirish, badiiy asarlardagi qahramonlarning hatti-harakatlari va xulq-atvorlarini to'g'ri baholashi, aks ettirilayotgan voqealar mohiyatini tushunish orqali milliy g'urur, faxr, iftixor hislarini shakllantirish va rivojlantirish. Bolalarga Beruniyning birinchi o'zbek olimi bo'lganligi haqida ma'lumot berish. Uning bolalar yoshiga mos odob-ahloq, tarbiyasiga oid, ota-onalarga, Vatanga muhabbat hissini uyg'otuvchi asarlari bilan tanishtirish.	2	2	4
3	Bolalarni mulohaza yuritishga, to'g'ri xulosalar chiqarishga undash, xalqparvarlik kabi fazilatlar egasi bo'lishga chorlash Navoiyning "Odami ersang", bolalarni	2	2	4

	hikoyalarda aks etgan voqealar ma'nosiga tushunish, qahramonlar harakatlarini kuzatib, mulohaza yuritishga (Navoiy "Til", "Tandir qurolmagan, uy quradimi?") mazmundagi qissalari bilan tanishtirish			
4	Mirzo Ulug'bek haqida tushuncha berish. Uning bolaligida odobli, qiziquvchan bola bo'lganligi, o'z yurtini sevuvchi, tabiatga, kitob o'qishga qiziqqanligi, juda ko'p kitoblar yozganligi haqida ma'lumot berish.	2	2	4
5	Bolalarda Jaloliddin Manguberdi hayotiga qiziqish uyg'otish, Uning o'zi uchun dam olish deb bilgan ishi haqida "Jaloliddinning jasorati" haqidagi rivoyatlarni o'qib berish orqali bolalarda milliy g'urur, faxr, iftixor hissi, xalqparvarlik, vatanparvarlik, mehr-oqibat fazilatlarini tarbiyalash.		2	2
6	Mirzo Ulug'bekning qomusiy olim, astronom, ilm kishisi, davlat arbobi bo'lganligi haqida ma'lumot berish. Bolalarni badiiy asarlarda aks etgan voqealar haqida Mirzo Ulug'bekning yoshligidan boshlab samoga qiziqib boqishi ("Bu mening yulduzim"), Mirzo Ulug'bekning yoshligidan sezgir, topqirligi ("Ishoratda bashorat"), uning ilm ahlini hurmat qilish, shogirdga bo'lgan munosabati ("Ulug'bekning shogirdi") haqidagi rivoyatlarni o'qib berish orqali bolalarda bilim olishga qiziqish, kattalarni hurmat qilish, mehr-oqibatli bo'lish		2	2
7	<b>Mashhur sarkardalar</b> haqida ilk tushunchalar berish. Bolaning millat tarixiga bo'lgan qiziqishi, Vatanga sadoqat, milliy o'zligini milliy faxrni, iftixor hislarini shakllantirish		2	2
8	Amir Temur mashhur sarkarda, yirik davlat arbobi, siyosatchi, diplomat bo'lganligi haqidagi tushunchalarini mustahkamlash. Bolalarga "Amir Temurning Jayxundan shoshilinch o'tishi" hikoyasini o'qib berish orqali Amir Temurdan faxrlanish, bolalarni botirlik, jasurlik ruhida tarbiyalashda davom etish. Bolalarga bugungi kunda O'zbekistonda Amir Temurning faoliyatini o'rganishga va uni ommalashtirishga keng yo'l ochilgani, uning nomi O'zbekistonda abadiylashtirilgani, ko'plab shahar va qishloqlardagi shoh ko'chalar, maydonlar, jamoa xo'jaliklari, maktablar, kinoteatrlar uning nomi bilan	2	2	4

	atalayotgani, Toshkent, Samarqand, Shahrisabz va boshqa shaharlarning markaziy maydonlarida Amir Temurga haykal o‘rnatilgani, Toshkentdagi Amir Temur xiyobonida Temuriylar davri muzeyi barpo etilgani, (1996), «Amir Temur» ordeni ta’sis etilgani, (1996) va Xalqaro Amir Temur jamg‘armasi tashkil qilingani (1995), Toshkent, Samarqand va xorijiy mamlakatlarda YuNESKO rahbarligida hazrat Sohirqiron tavalludining 660 yilligi keng nishonlangani (1996), Amir Temur haqida ikki qismdan iborat badiiy film, spektakllar va she’riy hamda nasriy asarlar yaratilgani haqida <a href="#">vidioroliklar orqali</a> so‘zlab berishi.			
9	Bolalarga ona yurt himoyachisi jasur sarkarda, mustaqillik va ozodlik uchun kurashgan, tarixda iz qoldirgan qahramon Jaloliddin Manguberdi haqida so‘zlab berish. Jaloliddin Manguberdi umrini oxirigacha o‘z yurtini va xalqini bosqinchilardan mardona himoya qilib, minglab askarlarga bosh bo‘lgan buyuk sarkarda ekanligini bolalar ongiga singdirilganligi	2	2	4
10	Bolalarga Jaloliddin Manguberdi “milliy qahramon”lardan biri ekani, O‘zbekistonda unga atab bir nechta haykallar o‘rnatilgani, Xorazm viloyatida Jaloliddin Manguberdiga bag‘ishlangan memorial majmua qurilgani, 2000 yilning 30 avgust kuni “Jaloliddin Manguberdi” ordeni ta’sis etilgani, bu orden bilan mamlakat mustaqilligini, Vatan sarhadlarini, ona yurt tuprog‘ini himoya qilishda hamda uni ko‘z qorachig‘iday asrashda yuksak harbiy mahorat, qahramonlik va jasorat namunalarini ko‘rsatgan, davlatning mudofaa qudratini mustahkamlashga ulkan hissa qo‘shgan qo‘mondonlik tarkibiga kiruvchi harbiy xizmatchilar mukofotlanishlari, Jaloliddin Manguberdining mo‘g‘ullarga qarshi jasorati bugungi kunda ham tarannum etilishi haqida so‘zlab berishi.	2	2	4
	Jami:	12	20	32

## 2-Mavzu: Zahiriddin Muhammad Bobur bilan tanishtirish.

**Maqsad:** Bolalarga Zahiriddin Muhammad Bobur atoqli davlat arbobi, buyuk sarkarda, shu bilan birga iste’dodli shoir, tadbirkor shoh, donishmand tarixchi, zakovatli olim va tarjimon bo‘lgan haqida so‘zlab berish.

**Faoliyatning borishi:**

### **Kirish:**

Tarbiyachi: Bolalar, ilm olgan kishi har tomonlama rivojlangan, odobli, ahloqli, katar, komil inson bo‘ladi. Bugun men sizga ilmli, odobli, jasur, mard bobolarimizdan biri Zahiriddin Muhammad Bobur haqida so‘zlab beraman.

### **Asosiy qism:**

**Tarbiyachi bolalarga** Zahiriddin Muhammad Boburning portretini ko‘rsatadi va Zahiriddin Muhammad Bobur haqida so‘zlab beradi:

Zahiriddin Muhammad Bobur Andijon shahrida tug‘ilgan. Otasi Umarshayx Mirzo temuriylardan bo‘lib, Farg‘ona viloyatiga hokimlik qilgan. Bobur oilada bosh farzand bo‘lib, uning ikkita ukasi va beshta singlisi bo‘lgan. U iste‘dodli muallimlardan ta‘lim olgan. Zehni juda o‘tkir bola bo‘lgan. U she‘r, musiqa eshitishni juda yaxshi ko‘rgan. Bulardan tashqari, Bobur kamonda o‘q otish va qilichbozlikdan ham saboq olgan. Dovyurakligi va jasurligi uchun u yoshligidan «Bobur» («Sher») laqabini olgan.

Otasi Umarshayx Mirzo halokatidan so‘ng, 12 yoshli Bobur Farg‘ona viloyati hukmdori etib tayinlangan. Hukmdor bo‘lish yosh Bobur uchun juda qiyin edi. Unga bu masalada bek atkasi Qosimbek va onasi Qutlug‘ Nigorxonim juda katta yordam berishgan. Bobur umrining oxiriga qadar ko‘p urush va yurishlar bilan band bo‘lgan. U nihoyatda botir, jasoratli, pahlavon sarkarda edi. Janglarda hamma vaqt oldinda borib, jasurligi bilan navkarlariga o‘rnak bo‘lardi. Shuning uchun navkarlari uni nihoyatda hurmat qilishar, unga o‘xshashga intilishardi. Bobur 16 yoshdan boshlab she‘rlar yoza boshlagan. Umrining yarmidan ko‘pini vatanidan yiroqda o‘tkazgan. U butun umr yurtini sog‘inib yashagan. Shu bois u o‘z g‘azal va ruboyilarida vataniga bo‘lgan cheksiz sog‘inch va muhabbatini kuylaydi, odamlarning hayoti xafachilik bilan emas, xursandchilik, quvnoqlik bilan o‘tishini, kishilar bir-birlariga faqat yaxshilik qilishlari, ilm o‘rganishlari kerakligi haqida yozadi.

Bizga meros bo‘lib qolgan “Boburnoma” – Bobur hayotini to‘la yorituvchi nodir asardir.

Shoir sifatida ko‘plab nasriy va she‘riy asarlar yaratgan. Zaxriddin Muxammad Bobur qalamiga mansub ruboiylardan Bolalar yod olishgan.

### **Eshiting:**

Har kimki vafo kilsa, vafo topqusidir!

Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidir!

Yaxshi kishi ko‘rmagay yomonlik hargiz,

Har kimki yomon bo‘lsa jazo topqusidir.

Riboiyning mazmunida hamma bir-biriga yaxshilik qilish kerak. Kim birovga yomonlik qilsa albatta jazo oladi deyilgan

Kim yor anga ilm tolibi ilm kerak,

O'rgangali ilm tolibi ilm kerak.  
Men tolibi ilm tolibi ilme yo'q,  
Men bormen ilm tolibi ilm kerak.

Riboyning mazmunida hamma ilm olish kerak, men ilm olishni hohlayman deyilgan.

Hozirda Andijon viloyatida Mirzo Boburning bog'i va haykali qad ko'tarib turibdi

**Yakuniy qism:**

-Zahiriddin Muhammad Bobur bobomiz qanday inson bo'lganlar?

-Zahiriddin Muhammad Bobur bobomiz yaxshilik qilish kerakligi haqida qanday ruboiy aytganlar?

-Zahiriddin Muhammad Bobur bobomiz bolalik chog'larida qanday bo'lganlar? Nimalarga qiziqqanlar?

-Zahiriddin Muhammad Bobur bobomizning qanday katta asarlari bor ekan?

1. Bolalarni tariximiz va buyuk Sharq allomalari (Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Abu Ali ibn Sino, Amir Temur) hayoti va ijodi bilan tanishtirish. Bolalarda buyuk siymolar hayotiga bo'lgan qiziqish va muhabbatni shakllantirish orqali ular qalbida milliy g'urur, faxr, iftixor hisslarini shakllantirish.

2. Bolalarni buyuk siymolar haqidagi badiiy asarlar bilan tanishtirish orqali ularning badiiy asarlardagi qahramonlarning hatti-harakatlari va xulq-atvorlarini to'g'ri baholash, asar qahramonlarining ijobiy fazilatlariga taqlid qilish, o'z Vatanida yetishgan buyuk insonlardan faxr, iftixor tuyg'ularini his etishi, o'zligini anglashi, shu millat vakili ekanligidan g'ururlanishi, aks ettirilayotgan voqealar mohiyatini tushunish qobiliyatlarini shakllantirishdan iborat.

3. Bolalarga Alisher Navoiyning buyuk shoir, mutafakkir olim, odil, adolatparvar arbob, dono, xalqparvar, saxiy, o'z millati, va o'z Vatanini, o'z tilini judayam sevadigan inson bo'lganligi haqida ma'lumot berish. Uning bolalar yoshiga mos odob-ahloq, tarbiyaga oid, ota-onalarga, Vatanga muhabbat hissini uyg'otuvchi asarlari bilan tanishtirish.

4. Bolalarni mulohaza yuritishga, to'g'ri xulosalar chiqarishga undash A.Navoiy ("Chumolining vatani", "Himmatli bo'lsang"), bolalarning non haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, nonni aziz deb bilib, uni ehtiyotlash kabi an'analarga amal qilishga undash A.Navoiyning "Non hidi" hikoyatida o'z aksini topgan, insonni saxiylik, to'g'rilik, xalqparvarlik kabi fazilatlar egasi bo'lishga chorlash mehribon inson bo'lish A.Navoiy "Sher bilan Durroj" haqidagi asaridagi yorqin tushunchalar bilan tanishtirish.

5. Alisher Navoiy asarlariga nisbatan qiziqish va muhabbat hissini tarbiyalash, asarlar ("Bir kabutar"), ("Sher bilan Durroj") g'oyasini mustaqil tahlil

qilib, xulosa chiqarish ko'nikmasini shakllantirish. Birovning ko'ngliga ozor bermaslik, yolg'onchilik yomon odatlardan biri ekanligi haqida tushunchalarini boyitish.

6. Bolalarga bugungi kunda Alisher Navoiy haqli suratda jahon madaniyatining mumtoz vakillari safidan o'rin olgani, uning asarlari jahondagi yuzlab tillarga tarjima qilingani, dunyo ahli uning merosi bilan asrlar davomida qiziqayotgani, asarlarida tarannum etilgan olijanob g'oyalar va falsafiy mushohadalaridan zavq olinayotgani, shoir haykallari dunyoning turli shaharlarida jumladan Yaponiyaning Soka universiteti hovlisida, Moskva va Boku shaharlarida qad ko'targani, haqida vidiorolik orqali so'zlab berish.

7. Bola qalbida ajdodlarimiz hayotiga qiziqish, ular bilan faxrlanish hissini tarbiyalashda davom etish. Sharqning buyuk allomalari Abu Ali ibn Sino hayotiga qiziqish uyg'otish, faxrlanish hissini tarbiyalash ("Ibn Sino va kitoblar", "Ibn Sino shogirdlari", "Rahmatni joyiga ayt", "Donishmand ustoz", "Kulguning kuchi", "Hayvonga qalqon", "Sezgirlik", "Bola boshidan" rivoyatlari orqali ma'naviy-axloqiy sifatlarni: saxiylik, mehnatsevarlik, botirlik, jasurlik, do'stlik, mehr-oqibatni tarbiyalash.

8. Bolalarga Ibn Sino qomusiy olim uning mahsuldor ijodi, boy merosi bilan jahon madaniyati taraqqiyotida katta rol o'ynagani, o'z ijodi, ilmiy faoliyatida ibn Sino katta yutuqlarga erishgani, u o'z davrida Sharqda «Tabiblar podshohi» degan eng buyuk nomga sazovor bo'lgani, «Tib qonunlari» asarining o'zi lotinchada 30 martadan ortiq nashr qilingani, Sharq xalqlarida uning to'g'risida turli hikoya, rivoyatu afsonalar vujudga kelgani, hozirda jahondagi deyarli barcha tillarda ibn Sino haqida asarlar yaratilgani haqida suhbatlar tashkil etish, video, audio roliklar orqali ma'lumot berish.

9. Mashhur sarkardalar haqida ilk tushunchalar berish. Bolaning millat, Vatan tarixiga bo'lgan qiziqishini shakllantirish va rivojlantirish.

Zahiriddin Muhammad Boburning podshoh, shoir va buyuk sarkarda bo'lganligi haqida tushuncha berish. Bolalarda Zahiriddin Muhammad Bobur siymosiga qiziqish uyg'otish ("Bog'i Boburiy"), uning bolaligidagi fazilatlariga e'tibor qaratish maqsadida "Bobur va kabutar" asari, Mirzo Bobur tabiatiga xos bo'lgan: qat'iyatlilik, sabot, matonat, halollik kabi insoniy fazilatlariga e'tibor qaratish, asar qahramonining hatti-harakatlariga mustaqil baho berish, erkin fikrlash o'z mulohazalarini tortinmay bemalol bayon etishni o'rgatish maqsadida "G'or topildi" hikoyasi bilan tanishtirish, Zahiriddin Muhammad Boburning farzandlari bilan o'zaro munosabatlari haqida tushuncha berish, namuna sifatida badiiy asarlardan lavha o'qib berish, Vatanga bo'lgan sadoqati, sog'inchini tarannum etadigan g'azallari bilan tanishtirish, ma'lumot berish.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng Zahiriddin Muhammad Bobur

o‘z yurtida haqiqiy qadr-qimmat topdi. Andijon shahrida Bobur nomida teatr, kutubxona, milliy bog‘ («Bog‘i Bobur») bor. Bobur milliy bog‘i majmuasiga «Bobur va jahon madaniyati» muzeyi, shoirning ramziy qabr maqbarasi bunyod etilgan. Shahar markazida (muallifi Ravshan Mirtojiev) va Bobur bog‘idagi yodgorlik majmuida (muallifi Qodirjon Salohiddinov) shoirga haykal o‘rnatilgani, Andijondagi markaziy ko‘chalardan biriga, shuningdek Toshkentdagi istirohat bog‘i va ko‘chaga, Andijon viloyati, Xonobod shahridagi istirohat bog‘iga Bobur nomi berilgani haqida so‘zlab berish. Amir Temur mashhur sarkarda, yirik davlat arbobi, siyosatchi bo‘lganligi haqida video rolik orqali ma‘lumot berish. Bolalarga “Amir Temurning Jayxundan shoshilinch o‘tishi” hikoyasini o‘qib berish orqali Amir Temurdan faxrlanish, bolalarni botirlik, jasurlik ruhida tarbiyalash, jonzotlarga g‘amxo‘rligi, ularni asrash, ularga mehr ko‘rsatish fazilatlar egasi bo‘lganligi haqida “Amir Temur” nomli hikoyani o‘qib berish bilan bolalarda milliy g‘urur, faxr va ma‘naviy-axloqiy sifatlarni tarbiyalash, bolalarni Amir Temur o‘z oldiga Samarqandni ko‘rkam shaharga aylantirishni maqsad qilib qo‘ygani haqidagi “Samarqand” hikoyasi bilan tanishtirish. Samarqand shaharini rolik shaklida namoyish etish orqali ma‘lumot berish.

### **3-Mavzu: Jaloliddin Manguberdi haqida suhbat**

**Maqsad:** Bolalarga Jaloliddin Manguberdi haqida so‘zlab berish. Jaloliddin Manguberdi umrini oxirigacha o‘z yurtini va xalqini bosqinchilardan mardona himoya qilib, minglab askarlarga bosh bo‘lgan buyuk sarkarda ekanligi haqida bolalarga so‘zlab berish orqali bolalarda Vataniga muhabbat, mardlik, jasorat va fidoyilik, milliy g‘urur, faxr, iftixor hislatlarini tarbiyalash.

**Kerakli jihozlar:** Jaloliddin Manguberdi portreti

#### **Faoliyatning borishi:**

**Kirish:** Tarbiyachi: Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev "Bizning havas qilsa arziydigan tariximiz bor. Havas qilsa arziydigan ulug‘ ajdodlarimiz ko‘p" deb bejiz aytmaganlar. Darhaqiqat, o‘zining tarixini, milliy qadriyatlarni e‘zozlaydigan Vatanini sevadigan inson ko‘p narsaga qodir bo‘ladi. Vatanini sevgan yana bir ajdodlarimizdan biri Jaloliddin Manguberdi haqida so‘zlab beraman.

#### **Asosiy qism:**

**Tarbiyachi:** Bolalar, men sizga yana bir ona yurt himoyachisi jasur sarkarda tarixda o‘chmas iz qoldirgan qahramon Jaloliddin Manguberdi haqida so‘zlab beraman. Jaloliddin Manguberdi Xorazmda tug‘ilgan. Otasi Xorazm podshosi Muhammad Xorazmshoh bo‘lgan. U bolaligida mehnatsevar, aqlli, zehqli, chaqqon, botir, do‘stlariga mehribon bola bo‘lib o‘sdi.

Katta yigit bo‘lganida otda turli mashqlarni bajarish, jang qilish, kamon otish, qilichbozlik, kurash tushish borasida tengi yo‘q edi. Shu bilan barobar, u madrasalarda o‘qib bilimni oshirdi, bir qator hunarlarni ham o‘rgandi.

Otasi vafot etgach, Jaloliddin Manguberdi Xorazm davlatining Sultoni, deb e'lon qilindi. Jaloliddin Manguberdi mo'g'ullar bilan urushda qo'li baland kelib, g'alaba qozonadi. Chunki, u juda kuchli lashkar to'plagan edi. Shu bilan birga, dushman bilan qachon, qanday jang qilishni, askarlarini har tomonlama puxta jangga tayyorlashni va ularga yo'l-yo'riq ko'rsatishni bilardi. Jaloliddin janglarning birida mo'g'ullarning 45 ming qo'shinini mag'lub etgan. U tarixda birinchi bo'lib, jang olib borishda dushmanga qarshi ot yonida turib, piyoda yurish qilish usulini amalda qo'lladi. Juda ko'plab janglarda dushmanlarni mag'lubiyatga uchratib, qiyinchiliklar bilan buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdi va uning fidoyi safdoshlari Vatan taqdiri yo'lida o'z hayotlarini tikib, kuch jihatdan bir necha o'n barobar ortiq bo'lgan dushmanga qarshi yillar davomida qahramonona kurash olib borishgan.

Jaloliddin Manguberdi umrini oxirigacha o'z yurtini va xalqini bosqinchilardan mardona himoya qilib kelgan, minglab askarlarga bosh bo'lgan, buyuk sarkardadir.

Jaloliddin Manguberdi haqida sevimli shoirimiz Maqsud Shayxzoda "Jaloliddin" (1943) dramasi yozganlar.

Xalqimizning asl farzandi Jaloliddin Manguberding jasorati tariximizga zarhal harflar bilan bitilgan. Jaloliddin Manguberdi kelishmovchiliklar oqibatida Xorazm davlati darz ketganda ham, uning poytaxti Urganch Chingiz qo'shinlari tomonidan vayron etilganda ham Vatanini qutqarib qolishdek ezgu orzudan umidini uzmasdi. Bu mardlik qarshisida lol qolgan Chingizxon hayrat ichida: "Mening to'rt o'g'lim bor. qirqta o'g'lim bo'lganda ham birgina Jaloliddinga almashtirgan bo'lar edim", degan edi. Jaloliddin qorachadan kelgan, o'rta bo'yli, tili bo'yicha turk edi. Otliq yigitlar ichida eng botiri bo'lib, adolatni sevar, yovuzlikni qoralardi. Jaloliddin Manguberdi asrlar yillar davomida mardligi jasorati bilan xalq tilidan tushmay mangu qaxramon nomi bilan Vatan ximoyachisi bo'lib qolmoqda. O'z elini sevgan, qaxramonlarga uning jasorati ibratdir. Jaloliddin nomi mustaqillik va ozodlik uchun kurashgan xalq qahramonlari qatorida turaveradi.

### **Yakuniy qism:**

#### **Bolalar bilimni tekshirish va mustahkamlash uchun savollar:**

1. Xalqimizning mashhur sarkardasi Jaloliddin kimning o'g'li edi?
2. Jaloliddin qanday bola bo'lib o'sdi?
3. Jaloliddin qanday mashqlarni bajara olardi?
4. Jaloliddinning mardligidan Chingizxon hayratda qolib nima degan edi?
5. Jaloliddin Manguberdi kim?

### **MUNDARIJA:**

	KIRISH	<b>4</b>
<b>I BOB.</b>	<b>BUYuK SIYMOLAR BILAN TANISHIRISH ORQALI BOLALARDA MILLIY G'URUR HISSINI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY METODOLOGIK ASOSLARI</b>	
1.1.	Bolalarda milliy g'urur hissini shakllantirish ijtimoiy zaruriyat sifatida.	<b>12</b>
1.2.	Bolalarda milliy g'urur hissini shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlari	<b>28</b>
1.3.	Buyuk siymolarning maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy g'urur hissini tarbiyalashdagi o'rni va ahamiyati	<b>41</b>
	1- bob bo'yicha xulosalar	<b>58</b>
<b>II BOB.</b>	<b>BUYuK SIYMOLAR BILAN TANISHIRISH ORQALI BOLALARDA MILLIY G'URUR HISSINI SHAKLLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH TIZIMI</b>	
2.1.	Buyuk siymolar bilan tanishtirish orqali bolalarda milliy g'urur hissini shakllantirishning tashkiliy pedagogik shart sharoitlari.	<b>61</b>
2.2.	Buyuk siymolar bilan tanishtirish orqali milliy g'urur hissini shakllantirish metodikasi	<b>76</b>
2.3.	Milliy g'urur hissini tarbiyalashda tarbiyachi, ota-ona hamkorligi faoliyati tizimi	<b>88</b>
	2- bob bo'yicha xulosalar	<b>75</b>
	Boblar bo'yicha xulosa	<b>77</b>
	Tavsiyalar	<b>78</b>
	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati	<b>80</b>
	Ilova	<b>92</b>